

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI  
PEDAGOGIKA KAFEDRASI**



**MUSIQIY PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA  
fanidan**

**O'QUV-USLUBIY MAJMUA**

Bilim sohasi:	<b>100 000 – Gumanitar</b>
Ta'lif sohasi:	<b>150 000 – San'at</b>
Ta'lif yo'nalishi:	<b>5150600 – Vokal san'ati</b>
	<b>5150700 – Cholg'u ijrochiligi</b>

**Guliston - 2022**

Musiqiy pedagogika va psixologiya fanidan tayyorlangan o'quv-uslubiy majmua. – Guliston 2022. – 69 b.

Ushbu o'quv-uslubiy majmua 5150600 Vokal san'at va 5150700 Chog'u ijrochiligi bakalavriyat ta'lim yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalarga mo'ljallangan. O'quv-metodik majmua Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan 2020-yil 29-avgustda tasdiqlangan Musiqiy pedagoika va psixologiya fani namunaviy dasturi (BD-5151400-3.01) talablari asosida tayyorlanib, unda Musiqiy pedagogika fanining mohiyati, rivojlanishi, bilish jarayonlari, ta'lim-tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil qilishning yoshga bog'liq mexanizmlarini o'z ichiga qamrab oladi.

**Tuzuvchi:**

M.Ergashev GulDU "Pedagogika" kafedrasi o`qituvchisi.

**Taqrizchi:**

D.E.Toshtemirov GulDU "Pedagogika" kafedrasi mudiri dotsenti,

Mazkur o'quv-uslubiy majmua OO'MTVning 2017-yil 1-mart 107-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim o'quv rejalarini fanlarining yangi o'quv majmualariini tayyorlash bo'yicha uslubiy ko'rsatma" asosida yaratilgan.

O'quv-uslubiy majmua Guliston davlat universiteti Pedagogika fakulteti "Pedagogika" kafedrasining 2022-yil 26-avgustdagi 1-sonli yig'ilishida muhokama qilingan.

O'quv-uslubiy majmua Guliston davlat universiteti O'quv-metodik Kengashi tomonidan ko'rib chiqilgan va o'quv jarayonida qo'llashga tavsiya etilgan. (2022-yil 29 avgust, №1 bayonnomma).

## **MUNDARIJA**

<b>Kirish.....</b>	<b>4</b>
<b>O‘quv materiallar (ma’ruza mavzulari va mazmuni, amaliy, seminar va laboratoriya ishlarini bajarish b o’yicha uslubiy ko’rsatmalar).....</b>	<b>9-76</b>
<b>Mustaqil ta’lim mashg‘ulotlari.....</b>	<b>77</b>
<b>Glossariy.....</b>	<b>78</b>
<b>Ilovalar:</b>	
Fan dasturi.....	96
Ishchi fan dasturi (syllabus).....	109
Tarqatma materiallar.....	123
Test savollari.....	141
Baholash mezonlari bo’yicha uslubiy ko’rsatmalar.....	155

## Kirish

Mazkur o'quv qo'llanmada maktabgacha ta'lim mussasalari, umumiylar o'rta ta'lim muktablaridagi musiqa mashg'ulotlarini, darslarini tashkil etish masalalari, musiqa o'qitishning nazariy asoslari, xorijiy mamlakatlaidagi musiqa o'qitish tizimi, sinfdan tashqari musiqiy tarbiyani tashkil etish shakl va yo'llari o'z ifodasini topgan. Qo'llanma «Musiqiylar ta'lim» yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar hamda «Musiqa madaniyati» o'quv fani o'qituvchilari, maktabgacha ta'iim muassasalaridagi musiqa rahbarlari uchun mo'ljallangan. Mustaqil O'zbekistonning kelajagini, ertasini yoshlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ajdodlarimizga munosib avlodni tarbiyalash bizga, endi yetishib chiqayotgan kadrlar zimmasiga mas'uliyatli va sharafii ishni, ya'ni bola tarbiyasini to'g'ri yo'lga qo'yish yuklatildi. Maktabgacha yoshdagi bolalar musiqa tarbiyasi, uning taraqqiyoti timsolida yurtimizning porloq kelajagi, davlatimizni buyukligini tasavvur etganining natijasiga ko'ra ta'lim to'g'risidagi qonun va yangicha dunyoqarash talab etilar edi. 1997 yil «Ta'lim to'g'risidagi Qonun» hamda «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Ta'lim sohasida, jumladan, uning birinchi pog'onasi bo'lgan maktabgacha ta'lim bosqichida ham katta o'zgarishlar qilish ehtiyoji tug'ildi. Buning uchun pishiq - puxta o'ylangan, ma'lum maqsad va vazifalarni o'zida mujassamlashtirgan istiqbolli dasturlar talab etar edi. Unda uzlusiz davom etadigan bir butun ta'lim-tarbiya jarayonining belgilovchi ilk turi «maktabgacha ta'lim» deb ataldi. Birgina shu yondashuvning o'ziyoq tarbiyaga mehribonlik vaadolat bilan qarashni talab etadi. Negaki, bugunki yosh avlod zimmasida XXI asrda kuchga to'lib, sog'lom, bilimli, aqli bo'lib jamiyatimizning faol a'zolariga aylantirishdek ulkan vazifa turibdi. Bunda esa ular siz-u bizga, ya'ni kattalarga ishonadilar. Agar yoshlarimizdagi shijoatni, kuch-qudratni, bilimdonlikni va vatanparvarlik bilan uyg'unlashtira olsak, bundanda ziyoda qudratni topa olmaymiz. Maktabgacha yoshdagi bolaiarni rivojlantirish jarayoni oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarning bajarilishiga erishish uchun «Uchinchi mingyillikning bolasi» tayanch dasturi va o'quv qo'ilanma asosida amalga oshiriladi, Bundan tashqari ko'pgina o'quv va metodik qo'llanmalar mavjud. Bularning asosiy maqsadlari bir yo'lga qaratilgan, ya'ni komil insonni tarbiyalash va voyaga yetkazishdir. Prezidentimiz «Bolalarimiz bizdan ko'ra dono, aqli, bilimdon, sog'lom va albatta baxtli bo'lishi kerak», - deb ta'kidlashlari bejiz emas. «Uchinchi mingyillikning bolasi» dasturi maktabgacha ta'lim bilan shug'ullanadigan barcha muassasalar uchun bajarilishi zarur bo'lgan tayanch dastur hisoblanadi. Tayanch dasturining pirovardi natijasi maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablarining bajarilishiga erishishdan, ya'ni maktabga jismonan, aqlan va ma'nana yetuk bolalarni tayyorlashdan iboratdir.

«Uchinchi mingyillikning bolasi» dasturi bolalarni rivojlantirish va maktabga tayyorlash jarayoni quyidagi 3 yo'nalishda amalga oshirilishini belgilab beradi:

1. Bolalarni jismonan rivojlantirish,
2. Bolalaming nutqi va tafakkurini rivojlantirish.
3. Bolalarni ma'nana rivojlantirishdir.

«Uchinchi mingyillikning bolasi» milliy dasturining 3-yo'nalishi bo'lmish bolalarni ma'nан rivojlanishida aynan musiqa mashg'ulotlarda bolani aqlan, jismonan va ma'nан yetuk qilib tarbiyalash ko'zda tutiladi. Bu borada «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da «Ta'lif to'g'risida»gi Qonun ta'lif tarbiya tizimini isloh qilish yo'lida hayotga tadbiq qilindi. San'at - kishilik faoliyatining ajralmas qismi bo'lib, kishi shaxsi san'at vositasi yordamida va ishtirokida to'laligicha yorqin namoyon bo'ladi. Hozirgi kelajak avlodni tarbiyalashda san'at muhim o'rinni tutadi. San'at insonparvarlik va odamiylik hamkorligi ruhida uning hissiyotini o'stirishda yordam berib, ijodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi. Hozirgi zamon yoshlariga estetik idroklarini tarbiyalash borasida g'amxo'rlik qilar ekanmiz, san'at bilan muomala qilishdan hosil bo'ladijan his-hayajondan uni o'z hayoti va faoliyatida foydalana olishga o'rgatishimiz kerak. Shu sababli musiqa estetik tarbiya tarmog'ining ajralmas qismi sanaladi. Bolalarda yoshlik chog'idan idrok etish, his etish, turmush va san'atdagi go'zallikni tushunish ishtiyoqi tarbiyalanadi va by kabi go'zallikni yaratishga intilish kuchayadi. Bolaning badiiy faoliyatga bo'lgan qiziqishi ortadi. Unda badiiy-iiodkorlik qobiliyati rivojianadi. Musiqiy-estetik tarbiya demokratik jamiyat kishisini garmonik tarbiyalash yo'lida olib borilayotgan ulkan ishning tarkibiy qismiga aylanmog'i kerak, Ayniqsa, bolalar bilan musiqiy ish olib borish katta ahamiyat kasb etadi. Omma orasida musiqiy targ'ibot olib bormay turib, to'laqonli natijalarga erishib bo'lmaydi. Musiqiy tarbiya bolalarda erta yoshdan boshlanishi kerak. Musiqa bola qalbida kuchli emotSIONAL his-tuyg'u uyg'otadi. Musiqa yordamida uning badiiy idroki o'sib, hissiyotini yanada boyitib boradi. Bolalarda musiqiy idrokini rivojlantirmay uiarning musiqaga mehr-muhabbatini yetarli darajada qiziqtirmay turib, har tomonlama jismoniy, ma'naviy boy shaxsni shakillantirib va boshqa ijobiy sifatlarini tarbiyalab bo'lmaydi. Musiqaga yoshlikdan uyg'ongan qiziqish kishining keyingi musiqiy rivojiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Shunga ko'ra musiqani idrok etishning vazifasi va mazmunini aniqlash muhimdir. Bular shaxsning har tomonlama rivoji, jumladan, estetik tarbiyasi vazifalari bilan bog'liq umumiyligi maqsadlar bilan belgilanadi. Ma'lumki, bunday vazifalar bolalarni musiqa sohasidagi faoliyatlarga jalb etish, badiiy musiqaga nisbatan estetik idrok etishni va emotSIONAL o'zlashtirishni rivojlantirish, muhabbatni tarbiyalash, musiqiy qobiliyatlarini o'stirish, musiqiy didni shakllantirish, qisqasi bolalaming badiiy ijodkorligi hamda iqtidorini rivojlantirish kerak. Musiqaning bola hissiyoti va intilishiga, uning mazmunini tushunish va his etishga kata ta'sirini hisobga olganda haqqoniy va voqelikni to'g'ri aks ettirgan musiqiy asardan o'rinni foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, musiqali obrazlarning shakllanishining asosiy manbai tabiat va kishi nutqiga mos kelishiga, atrofimizdagi dunyo va undagi go'zalliklarni idrok etishga bevosita bog'liqidir. Shu borada musiqa mashg'ulotlari mazmuni bolalar tomonidan bajaradigan qator faoliyatlarni taqozo etadi. Bulardan tinglash, kuylash, musiqiy ritmik harakatlar, musiqa cholg'ularida ijro etish jarayonida bolalar ijrochiligi va ijodkorligi malakalari shakllanadi. «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ning asosiy ustuvorligidan biri - bu fanlararo bog'liqlikni yo'lga qo'yishdir. Musiqa - san'ataing bir turi. Musiqa san'atning yana boshqa turlari bilan ham chambarchas bog'liqidir. Masalan, musiqa darslarini raqs,

she'riyat (adabiyot), badiiy san'at va san'atning boshqa turlari, bulardan tashqari jismoniy tarbiya, tasviriy san'at va boshqalar bilan qo'shib olib borish nazarda tutilgan. Bu masala <<Uchinchi mingyillikning bolasi» tayanch dasturi va o'quv qo'llanmada ham alohida ta'kidlanadi. Bolalar ijrochiligi - kuylash, musiqiy ritmik harakatlar, musiqa cholg'ularida ijro etish va hokazo „masalalari hozirgi kunda o'zining dolzarbligi bilan ko'pgina pedagog-olimlarning diqqat markazidadir. Uzluksiz ta'lim tizimida musiqiy ta'lim tizimi bir necha bosqichlardan iborat. Musiqa ta'limi boshqa fanlar kabi mакtabdan emas, balki maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlanadi va ta'lim tizimining barcha jabhalarida davom etadi. Shuning uchun biz kelajak avlodni musiqiy bilimga ega bo'lishlariga zamin yaratar ekanmiz, uiarning musiqiy-estetik tarbiyalariga alohida e'tiborimizni qaratmog'imiz zarur. Buning uchun «Ta'lim to'g'risidagi Qonun» va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ta'kidlab o'tilganidek, nafaqat bola shaxsi, balki musiqa o'qituvchisi shaxsini, uning ma'naviy-madaniy qiyofasini shakllantirishimiz, milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, milliy-musiqiy an'analarimizga amal qilgan holda bo'lajak musiqa o'qituvchilarmizni yosh avlodni tarbiyalashga loyiq hamda munosib inson qilib shakllantirishimiz kerak. Umumiyo'rta ta'lim makteblerining «Musiqa madaniyati» o'quv fani uchun tayanch dastur ishlab chiqildi. Ushbu dasturda umumiyo'rta ta'lim maktablarida musiqiy ta'lim-tarbiyaga qo'yiladigan maxsus talablar ham dasturning asosiy qismlari qatoridan o'rin olgan. Unga ko'ra musiqiy-estetik tarbiya uchun quyidagilarga rioya qilish kerak:

- Musiqiylar faoliyatni atrof-muhit hamda zamon bilan hamohangligi;
- Musiqaning san'at sifatida o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish;
- O'quvchilarning musiqiy rivojlanishlarida uzviylikni ta'minlash;
- O'quvchilaming qobiliyat va imkoniyatlaridan qat'i nazar ularning musiqiy tarbiyalariga qo'yiladigan majburiyatlar. Dasturda musiqiy tarbiyaning mazmuni va yo'naliishlari ochib berilgan, bolalaming rivojlanishining dinamikasi begilangan, har xil yoshdagi sinflarga minimal talablar qo'yilgan va aks ettirilgan.

Dasturning maqsadlari quyidagilardan tashkil topadi:

- bolalarni quvnoq, g'amgin, yengil va vazmin musiqani tinglashga past va yuqori registrni eshita olishga, musiqa tilini tushunishga, past ovozii va baland ovozii musiqaga mos chapak chalish orqali musiqa dinamikasini ajratishni o'rgatish;
- kattalar ketidan musiqani taqlid qilib, intonatsion mos ravishda qaytara olish;
- musiqiy rahbar boshchiligidagi raqs harakatlarini bajarish;
- kompozitorlar, musiqiy cholg'u asboblari haqida gapirib berish orqali bolalarda musiqa san'atiga muhabbat uyg'otish;
- bolalarni musiqani diqqat bilan tinglashga o'rgatish, yengi! va oson xalq qo'shiq hamda kuylarini musiqasiga mos ritmik harakatlar bajarib ijro etishga o'rgatish. Musiqa sur'atiga mos chapak chalish yoki oyoq bilan jo'r bo'lish orqali qo'shiqnini ijro eta olish.

Dasturda o'zbek kompozitor va bastakorlaming bolalar uchun yozilgan kuy va qo'shiqlari o'rin olgan. Musiqiy asarlar bolalaming psixologik xususiyatlarini, ularning qiziqishlari va dunyoqarashlarini hisobga olgan holda tanlangan.

Biz ushbu o'quv qo'llanmada maktabgacha ta'lim muassasalari hamda umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi musiqiy ta'lim-tarbiya masalalariga hamda uni to'g'ri tashkil etish masalalariga to'xtalib o'tdik. Zamonamizdag'i ma'naviy, madaniy, siyosiy, iqtisodiy o'zgarishlar, zamonaviy pedagogic texnologiyalar, axborot texnologiyalarining ta'lim jarayoniga kirib kelishi, bo'lajak «Musiqa ta'limi» yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan talabalarga nisbatan yuqori talablarni qo'ymoqda. Ushbu o'quv qo'llanmada biz asosan, «Musiqiy ta'lim» yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar hamda musiqiy pedagogika fakultetlari talabalari, «Musiqa o'qitish nazariyasi va metodikasi» o'quv fan! bo'yicha ma'ruza o'qiyotgan, maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqiy mashg'ulotlar olib borayotgan musiqiy rahbarlar uchun Musiqa ta'limining boshlang'ich bosqichlarida qo'llashlari kerak bo'lgan nazariyamaliy, psixologik hamda pedagogik bilimlarini oshirish hamda musiqa rahbarlari, o'qituvchilarini kasblariga yo'naltirish maqsadida metodik tavsiyalar berishga harakat qildik.

## O‘quv fanining maqsadi va vazifasi

Musiqiy pedagogika va psixologiya fannining asosiy maqsadi - musiqa san’atidagi o’ziga xos psixologik xususiyatlarini va pedagogik qonuniyatlarini o’rganish. Psixologiya va pedagogika zaminida yaratilgan musiqiy psixologiya va pedagogika fani, o‘z navbatida musiqa san’atining barcha psixologik va pedagogik masalalarini o’rganish uchun umumiy fan sifatida xizmat qiladi.

Mazkur dasturda o’rganiladigan Fan ikkita asosiy bo`limdan iborat: Musiqa psixologiyasi va pedagogikasi. Musiqa psixologiyasida - musiqa psixologiyasining umumiy asoslari, musiqachi shaxsi va faoliyati, musiqa san’atida bilish jarayonlari (diqqat, sezgilar, idrok, xotira, tafakkur, xayol), musiqa san’atining xissiy-irodaviy muhiti, musiqa san’atida individual-psixologik tafovutlar (temprament, xarakter, qobiliyat) va musiqiy qobiliyatlami aniqlash testlari o’rganiladi. Musiqa pedagogikasida - musiqa pedagogikasining umumiy asoslari, musiqiy ta’lim berish va o’qitish nazariyasi (musiqiy redaktika), musiqiy tarbiya nazariyasi va musiqiy ta’lim tarbiya tizimida boshqarish va tashkil etish masalalari o’rganiladi.

Mazkur kursning natijasida bakalavriat bosqichida taxesil olayotgan talabalar ko’rsatilgan mavzular mazmunini egallab, ularni o‘z soxalari bo'yicha moslashtira bilishlari kerak.

Fan bo'yicha talabalaming bilim, ko'nikma va malakalariga qo'ydagি talablar qo'yiladi.

### **Talaba:**

Bakalavr:

- musiqa o'qitish jarayonlarini tashkil etish;
- musiqachi shaxsi va faoliyati;
- musiqa san’atida bilish jarayonlari;
- musiqiy tarbiyasi tamoyillari va uslublaridan foydalanib faoliyat ko'rsatish;
- musiqiy tarbiya va ta’limini tashkil qilish va boshqarish ***hakida tasawurga ega bo'llshi;***

musiqa pedagogikasi va psixologiyasining umumiy asoslарини;

-musiqa san’atining xissiy-irodaviy muxitini tashkil etuvchi unsurlами;

-musiqachining pedagogik faoliyati va vazifalarini;

fanni o‘qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarni ***bilishi va ulardan foydalana olishi;***

musiqa san’atida shaxsiy-psixologik sifatlами ajrata bilish;

shaxsiy musiqiy rivojlantirish va tarbiyalash ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.***

## **1- modul. Musiqa pedagogikasi**

### **1-mavzu. Kirish. Musiqa pedagogikasi muammolari.** **Reja:**

1. Musiqa, pedagogika, fan sifatida.
2. Musiqa pedagogikasi umumiy pedagogika fanining tarmog‘i sifatida.
3. Musiqa pedagogikasi maqsadi va vazifalari.

«Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» hamda «Ta'lim to'g'risidagi Qonun»ga tayanch sifatida maktabgacha ta'lim muassasalar uchun «Uchinchi ming yillik bolasi» dasturi 1991 yil M.Sh.Rasulova tomonidan ishlab chiqildi. 2000 yilda ushbu dastur qayta nashr qilindi va unda maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar egallashlari kerak bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarga qo'yiladigan talablar, zamonaviy pedagogik jarayonni tashkil etishga qo'yiladigan talablar o'z aksini topgan. Maktabgacha bo'lgan davr psixologiyada ilk boialik davri deb yuritiladi hamda bolalikning eng go'zal va esda qoladigan damlarini o'z ichiga oladi. Musiqa tarbiyasi bolalar bog'chasi va umumiy o'rta ta'lim mакtablarida umumiy fanlar tarkibida o'qitiladi. Shuning uchun bu o'quv fanini o'qitish nazariyasi hamda metodikasini o'zlashtirish hozirgi kunda o'ta ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kun talabi maktabgacha ta'lim muassasalar oldiga musiqiy estetik tarbiya berish borasida aniq vazifalarni qo'yadi:

- bolalarni tabiat go'zalliklarini, badiiy asarlarni idrok etish;
- estetik did va hissiyotni shakllantirish;
- hayotda go'zallik tushunchasini to'liqligicha anglashni o'rgatish;
- bolalarga badiiy ijodkorlikni shakllantirish;
- bolalarda go'zallikni o'z hayotlariga, o'z faoliyatlariga olib kirishni o'rgatish va hokazo.

Uzluksiz ta'lim tizimida maktabgacha ta'lim muhim o'ren egallyaydi. Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim muassasalarining ahamiyati uzluksiz ta'limning oldingi bosqichi sifatida muhim rol o'ynamoqda. Shuning uchun har bir fanning alohida o'qitilish ahamiyati oshib bormoqda. Maktabgacha ta'lim muassasalaridagi har bir fanning asosiy vazifasi bolalarni fikrlash va o'ylashga o'rgatishdir.

#### **Musiqa san'atining ahamiyati**

Musiqa shunday san'at turiki, u insonlami kechinmaiari, emotsional hissiyotlari orqali birlashtiradi. Ular orasidagi aloqa vositasiga aylanadi. Bir kompozitor tomonidan yaratilgan musiqa boshqa insonlar qalbida turli-tuman kechinmalar uyg'otishining o'zini bir mo'jiza deb, atash mumkin. Musiqa tarbiyasi estetik tarbiyaning tarkibiy qismi hisoblanadi. Inson shaxsini shakllantiruvchi yetakchi omillardan biri - ta'lim-tarbiyadir. Estetik tarbiya esa uning tarkibiy qismi sifatida go'zallikning mohiyati, estetik va axloqiy hissiyotlarning birligi, san'atning xalqchilligi to'g'risidagi ta'limotga suyanib, o'quvchilarning ob'ektiv dunyo haqidagi bilimini kengaytiradi va chuqurlashtiradi, ijodiy qobiliyatini va iste'dodini o'stiradi hamda ularda yuksak ma'naviy fazilatlarning tarkib

topishiga yordam beradi. Odatda, estetik tarbiyaning maqsadi bolalarda estetik his-tuyg'u va fikrlarni rivojlantirish, go'zallikni ko'ra bilish va ulardan zavqlana olishdan iborat, deb tushuniladi. Aslida estetik tarbiyaning maqsad va vazifalari bu bilan chegaralanib qolmaydi, o'quvchilarni go'zallik va xunuklikni, yuksaklik va tubanlikni, shodlik, kulfatni anglash va ko'ra bilishga o'rgatadi. Estetik tarbiya umuminsoniy va milliy qadriyatlar qaror topishiga xizmat qiladi. Ayonki, tarbiya inson ongiga, his-tuyg'ulariga, tasawuriga, e'tiqodiga, dunyoqarashiga, xatti-harakatlariga, xulq-atvoriga ta'sir o'tkazadi. Musiqa tili barchaga tushunarli va yaqindir.

Musiqa tovush tovlanishlari orqali fikr va tuyg'ularni aks ettiradi, hayot bosqichlarida insoniyatni to'lqinlantirib kelgan axloqiy muammolarni bayon qiladi. Bunda musiqaning falsafiy mohiyati ham namoyon bo'ladi. Ajoyib musiqa asarlari chuqur falsafiy mazmun bilan sug'orilgan bo'ladi, musiqada hayot va o'lim, shaxs va jamiyat, ezgulik va zulm, qudrat va zaiflik kabi masalalar aks etadi.

Musiqaning inson ruhiyatiga ta'sir qilishining tugallanmas imkoniyatlari haqida qadimdan musiqashunoslar, mutafakkirlar va olimlar diqqatini o'ziga tortgan. Faylasuflar, psixologlar, pedagoglar va jamoat arboblari san'atlar ichida. musiqa san'atining insonni Shaxs sifatida shakllanishiga ta'sir qiladigan xususiyatlari haqida aniqlashga uringanlar. Qadim zamonlardan musiqaning, ayniqsa, uning komponentlari - ritm va kuuning inson

kayfiyatiga ta'siri, uning ichki dunyosini o'zgartirishi haqida fikrlar mavjud bo'lgan.

-Musiqa san'ati estetik tarbiyaning muhim omili sifatida Shaxs shakllanishiga kuchli ta'sir etadi. Oilada, bog'chada, mакtabda musiqa mashg'ulotlarini maqsadga muvofiq tarzda uyuşhtirish, yosh avlodning ichki dunyosini boyitish va san'atni to'g'ri tushunishdagi samarali yo'ldir. Musiqa inson his-tuyg'ularini, orzu-umidlarini, xohish-istaklarini o'ziga

xos badiiy tilda ifoda etadi va kishining his-tuyg'ulariga faol ta'sir etadi. Musiqa ham fan, ham san'atdir. U fizika va matematikaga asoslanadi, bu fanlar musiqani fanga aylantiradi. Lekin musiqa asariga Shu fanning turg'un tushunchasi sifatida qarab bo'lmaydi. Chunki musiqa har doim rivojlanib turuvchi jonli san'atdir. Musiqa san'ati inson hayotining ilk yillaridanoq uning hamrohiga aylanib, umumiyl madaniy rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shami. Musiqa inson umrining doimiy yo'ldoshi. Olim Stendalning aytishiga ko'ra, musiqa — san'at turlari ichida insonning yuragiga chuqur kirib, uning ichki kechinmalarini aks ettirishga qodirdir. «Musiqa san'atning ifodali turi tizimiga kiradi. Musiqa ham voqeahodisalarni ifodali aks ettiradi. Ammo u me'morchilikdagi kabi fazo va moddiy ashyo o'lchovlari bilan belgilanmaydi. Musiqa ko'rish orqali emas, balki eshitish vositasida idrok etiladi. Musiqa mavzui o'z xususiyatiga ega bo'lib, inson va voqelikdagi barcha tomonlami qamrab ololmaganligi uchun, eng awalo, inson ichki ma'naviy dunyosini, uning tuyg'u va kayfiyatini ifodalaydi... musiqa voqelikning his-tuyg'uli qiyofasini yaratadi». Musiqa kayfiyat holatini ifodalashda keng imkoniyatga ega. Inson kayfiyat murakkab hissiyat bo'lib, u hech narsa bilan bog'lanmagan. Kayfiyat umumlashgan xususiyatga ega bo'lib, undan ikkilamchi tomonlar chiqarib tashlanadi va insonning voqelikka bo'lgan tuyg'u munosabatini belgilaydigan eng muhim tomonlari

ajratib olinadi. Musiqaning kuch-qudrati Shundaki, u shodlanish, qayg'urish, hayol surish, bardamlik, jasurlik, tushkunlik va Shunga o'xshash inson ruhiy holatlarini xususiy va umumiy tarzda o'zaro bog'liqlikda, bir-biriga singib ketishida namoyish qila oladi. Musiqa «til»i barcha qismlarning uzviy birligini, asar shaklini ifodalaydi. Shakl - musiqa mazmunining moddiy ifodasidir. Bastakor fikri, tuyg'ulari, tasawurlari eshituvchilarga musiqiy shakl orqali yetib boradi. Shu bois musiqa «til»ini egallahsga, uning mazmun-mohiyatini anglashga, musiqadagi fikrlar, tuyg'ular, kechinmalar boyligini o'zlashtirishga keng yo'l ochadi. O'sib kelayotgan avlod uchun musiqiy tarbiyaning ahamiyatini nihoyatda buyuk ekanligini qadimiy mutafakkirlar alohida urg'u bilan a'kidlashgan. Kelajak jamiyat a'zosining insoniy va ijobjiy fazilatlari aynan bolalikdan boshlab shakllana boradi. Aynan shu davrda musiqa ijobjiy sifatlarni shakllantiruvchi vosita hisoblangan, Musiqa ashula va raqs tarkibida ham vujudga keladi va keyinchalik badiiy ijodning mustaqil turiga aylanadi, o'ta o'ziga xos badiiy ifoda «til»iga ega bo'lib, maxsus ishlab chiqilgan va tanlab olingan tovushlar ana shu «til»ning manbaidir. Albatta. musiqa Shaxsni shakllantirishning, uning ijobjiy fazilatlarining yo'nalishlarini o'z-o'zidan belgilab bermaydi. Tarbiyaviy ta'sirning eng muhim tomonlari musiqiy asarning g'oyaviy mazmuniga bog'liqdir. Ana Shu bilan musiqiy-estetik tarbiyaning vazifalari belgilanadi. Mashxur polyak kompozitor K.Shimanovskiy o'zining «Jamiyatda musiqaning tarbiyaviy ahamiyati» nomli maqolasida, musiqaning tabiiy kuchi haqida gapirar ekan, - uning ikki qarama-qarshi yo'nalishda - yaratish va buzish uchun ishlatish mumkinligini - «kerakli ishga yo'naltirgan holda, tez oqar daryoning suvlaridan foydalanib, foydali va unumli ishlar uchun, ya'ni tegrimonni aylantirish uchun ishlatgandek, musiqa kuchidan ham unumli foydalanish kerak», - degan. Musiqaning insonga ta'siri, shaxsning va jamiyataing ruhiy hayotidagi o'rni kompleks muammo hisoblanadi. Ushbu murakkablik va serqirralik fanga darrov kelmadи. Shu o'rinda Asafevning «...musiqa - bu ham san'at, ham fan, ham til, ham o'yin» - degan so'zlarini eslash maqsadga muvofiqidir. Demak, bolalaming musiqiy hamda shaxsiy xususiyatlarini shakllantirishda musiqa san'atining o'rni beqiyosdir. Musiqa kishiga har tomonlama ta'sir ko'rsatar ekan: kuy va uning musiqiy ifodasi kishining hissiyotiga chuqur ta'sir qilib, unda har xil hislarni uyg'otadi, turlicha kayfiyatlarni hosil qiladi. qo'shiqning matni, g'oyaviy mazmuni faqat hissiyotga emas, balki tinglovchilarining ongiga ham ta'sir qilib, ularni hayajonlantiradi va fikrlashga majbur etadi. Kishilarda asarda aks etgan ma'naviy muammolarga nisbatan muayyan munosabat uyg'otadi. Bunday ta'sir g'oyat murakkab va kuchlidir. Musiqa qobiliyarini rivojlantirishning shart-sharoitlari Qobiliyat - ma'lum bir turdag'i faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirismiing sub'ektiv sharti bo'lib hisoblanuvchi shaxsning individual xususiyatidir. Qobiliyat - faoliyat jarayonida namoyon bo'ladi. Psixologiya/anining ko'rsatishicha, inson bolasi tayyor qobiliyat bilan emas, balki biron-bir qobiliyatning ro'yobga chiqish va rivojlanish manbai' layoqat bilan tug'iladi. Layoqat o'z holicha rivojiana olmaydi, uning rivojlanishi uchun qulay muhit kerak. Bola musiqaga layoqat bilan tug'ilishi mumkin, lekin uning musiqiy xususiyatlari shakllanishi uchun qulay muhit yaratilmasa, musiqaga bo'lgan layoqati rivojlanmay qoladi. Insonning shaxs

sifatida shakllanishida yetakchi omillardan biri muhitdir. Muhit deganda kishiga ta'sir etadigan tashqi voqealar yig'indisi tushuriiladi. Muhit o'z navbatida - tabiiy muhit, ijtimoiy muhit, oia muhiti va boshqalarga bo'linadi. Insondagi musiqiy layoqatning rivojlanishi va shakllanishi uchun ijtimoiy va oila muhiti muhimdir. Inson bolasi, agar insoniy muhitga tushmay, hayvonlar muhitiga tushib qolsa, unda irsiy belgilarning ayrim biologik ko'rinishlari saqlanadi, lekin insoniy fikr, faoliyat, xatti-harakat shakllanmaydi. Odob, axloq, fe'l-atvor - shaxsning barcha ruhiy sifatlari faqat muhit va tarbiyaning o'zaro ta'siri asosida vujudga keladi. Bolalaming musiqa ijrochiligi malakalarini rivojlantirishdagi eng muhim shartlardan biri - ularning musiqiy qobiliyatlarini shakllantirishdir. Chunki musiqiy qibiliyatlar - musiqani ritmik his qilish, ladni his qilish, musiqiy eshitish, musiqiy xotira, musiqaga emotsiyal ta'sirchanlik bolalarda ijrochilik malakalarini rivojlantirish omili hisoblanadi. Pedagog N.V.Vetlugina «... musiqa kechinmalari aslini olganda doimo sensor qobiliyatga asoslanadi, chunki musiqa eng oddiy ohanglar, murakkab obrazlar va eng avvalo hissiyotlar orqali idrok etiladi va musiqiy qobiliyat rivojlanadi». - deb ta'kidlagan. Qobiliyatning eng yuqori darajasi - talantdir. Talant - insonga qaysidir murakkab faoliyatni muvaffaqiyatli, mustaqil va o'ziga xos ravishda amalga oshirish imkon qobiliyatdir. Shu o'rinda bir narsani aytish kerak, musiqiy qobiliyati bo'lgan barcha insonlarning avlodlari ham. musiqiy qobiliyatga ega bo'ladi, degan fikrga qo'shilmaymiz. Ularning bolalarida musiqaga layoqat bo'lishi mumkin, lekin shu layoqat rivojlantirilmasa, layoqat qobiliyatga aylanmay, ya'ni shakllanmay qoladi. Zero, musiqa yosh avlodning ma'naviy, badiiy-axloqiy madaniyatini shakllantirishga, milliy g'ururi va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga, fikr doyrasini kengaytirishga, ijodiy mahorati va badiiy didi o'sishiga, mustaqilligi va tashabbuskorligini tarbiyalashga xizmat qiladi. Shu sababli Respublikamizdagi har bir mакtabda hozirgi kunda musiqiyestetik tarbiyaga pedagogikaning shaxsni shakllantiruvchi eng muhim omili sifatida qaralmoqda. Olimlardan Platon inson qobiliyatlar tug'ma ekanligini aytgan va inson bilgan barcha harsa uning ideal bilimlar dunyosida bo'lgan paytidan xotiralar bo'lib hisoblanadi, deb taxmin qilgan. Frencis Galton o'zining «talantning tug'maligi, uning qonuniyatlarini va oqibatlari» (1869) nomli kitobida «... buyuklik va iste'dod avloddan avlodga o'tadi, muhit esa bunda ikkinchi darajali omildir...», - deb aytgan. Biroq ko'pgina mashxur ijrochilar buyuklikning sababi to'qson foiz mehnatdandir va qolgan foizlarigina qobiliyatga bog'liqligini ta'kidlashgan. Lekin faqat mehnat bilan ham qobiliyatni cheksiz darajada-rivojlanirib bo'lmaydi. Kishining qobiliyati ma'lum bir imkoniyat va shaxsiy xususiyatlari doyrasidagina shakllanadi. Estetik va emotsiyal muhit musiqa olamida bolaga emotsiyal qulayliklar yaratib, undagi ijodga bo'lgan qiziqishni shakllantiradi. Biroq, musiqiy muhitning samaradorligi faqat tashqi sharoitlargagina bog'liq bo'lmay, balki bola musiqiy rivojlanishini tartibga soluvchi muloqot, musiqiy-nazariy bilimlar, ijodiy usullarga ham bog'liq. O'quvchilarni musiqiy tarbiyalash jarayoni samarali kechishi uchun: qobiliyat yo'nalishlarida aks etuvchi insonning ijtimoiy-madaniy faolligi (E.A.Bodina) ijtimoiy va shaxsiy tajriba to'plash, madaniyatni saqlash yo'llari (A.LArnoldov, L.P.Bueva, E.S.Makaryan, V.M.Mejuev); belgilovchi faoliyat (L.S.Vigotskiy); hissiyot va obrazli

tafakkur bilan bog'liq estetik tajriba, badiiy ma'lumotlar bilan bog'liq tushunchalar (A.E.Lazar); insonlar va[ narsalar dunyosi bilan aloqadorlik (V.S.Muxina); faoliyatlarni bilish va yanadarivojlanishga intilish (V.A.Petrovskiy) bo'iishi lozim. V.V.Bogoslovskiyning fikricha, qobiliyat faoliyat talablariga javob beruvchi va undagi yuqori natijalarni ta'minlovchi inson shaxsi xususiyatlarining sintezidir. Shuningdek, V.V.Bogoslovskiy qobiliyatlamini ularning yo'nalishi va sohasiga qarab turlarga ajratadi. Bu borada psixologiya asosan umumiyligi va maxsus qobiliyatlamini farqlaydi. Umumiyligi qobiliyatlar deganda, bilimlami o'zlashtirganda va har xil faoliyat turlarini qo'llaganda nisbatan yengillik hamda sermahsullikni ta'minlovchi shaxs xususiyatlarining tizimi tushuniladi, deb hisoblaydi psixolog. Qobiliyat - ko'nikma, malaka va bilim emas, balki ulami o'zlashtirish dinamikasıdır. Qobiliyatlar - faoliyat davomida namoyon bo'ladigan imkoniyatdir. Musiqiy qobiliyat faqat musiqa amaliyoti, musiqa san'atiga xos bo'lgan musiqiy material, maxsus usullar orqaligina rivojlantirilishi mumkin. Faqat musiqagina insonning musiqiy hislarini uyg'otadi. V.N.Shatskaya o'quvchilarda musiqani his qilish va tushunish qobiliyatini tarbiyalash lozimligini ko'p marotaba uqtirgan. Musiqiy tarbiya berish, har bir bolada mavjud musiqiy qobiliyat va iste'dodni tarbiyalash, o'quvchining aqliy, fiziologik, mehnat va estetik xususiyatlarini shakllantirish aynan musiqa san'ati orqali, ma'lum bir tizimga solingan musiqiy ta'lim va tarbiya orqali amalga oshiriladi, deydi olima. Musiqiy ta'lim olmagan kishilarda, musiqiy qobiliyat bo'lmaydi. Chunki ular musiqiy bilimlami o'zlashtirmaganlar. O'quvchilar mакtabga kelgunga qadar musiqa bilan tanish bo'lganlar, lekin musiqiy bilimlami o'zlashtirish uzluksiz ta'limning - umumiyligi o'rta ta'limning boshlang'ich sinflariga to'g'ri keladi. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchisining ruhiy jihatları - xotirasi, ongi, diqqat-e'tibori, tafakkuri bilimlami o'zlashtirishga tayyor bo'ladi. B.M.Teplov o'zining «Musiqa qobiliyatlar psixologiyasi» asarida musiqiy-pedagogik amaliyotdagi musiqiy qobiliyatlamini uch asosiy guruhgaga: musiqiy eshitish qobiliyatiga - kuydagiligi tovushlaming lad funksiyalarini, tovush ifodalilagini emotsiyonal jihatdan ajrata olish. ritm hissiga – musiqiy ritm ifodasini his etish va musiqiy kechinmalarni faol (harakatlar bilan) aks ettirish, musiqiy xotiraga (musiqiy ma'lumotlami eslab qolish va qayta tiklash) bo'ladi. «Musiqa madaniyati» o'quv dasturida darsdagi barcha «... faoliyatlar o'quvchilar musiqiy qobiliyatini, xususan, ritm-usul hissi va asar badiiyatini ifodalash malakalarini rivojlantirishi muhimdin», deyilgan. Qobiliyatning musiqiy ta'limdagi ahamiyatini ko'rib chiqar ekanmiz, Shum" alohida ta'kidiash joizki, bizning fikrimizcha, qobiliyat musiqani ijro etishda juda katta rol' o'ynasada, musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirishda (nota yozushi, nazariy ma'lumotlarni egallash, musiqa ifoda vositalarini o'rganishda) musiqiy qobiliyat muhim emas. Lekin ayni vaqtda biz o'z fikrimizni qisman inkor etgan holda shuni aytishimiz kerakki, «Musiqa madaniyati» o'quv dasturida aytishicha «... musiqa savodi boshqa musiqiy faoliyatlarini birlashtiruvchi jarayondir...», ya'ni nazariy bilimlarni o'zlashtirgandan keyin ularni amaliy qo'llash mumkindir. Buning uchun musiqiy xotira, musiqiy ritm hissi, musiqiy eshitish qobiliyatı - bir so'z bilan aytganda musiqiy qobiliyatlar zarurdır.

V.I.Kirienko, E.I.Ignatev va boshqa psixologlarning fikriga ko'ra, musiqiy qobiliyatlar o'z ornida murakkab ta'limiy kompleksga ham ega bo'lib, o'z tuzilishiga bir qator zarur

va maxsus qobiliyatlarni oladi. Qobiliyat kuch, harakat, jismoniy va aqliy jarayonlar, tabiiy iqtidor, iste'dod, shuningdek, tashqi muhit ta'sirida rivojlanadi. Odatda umumiy va maxsus qobiliyatlar farqlanadi. Odam umumiy qobiliyatlarga ega bo'lganda faoliyataing har xil turlari bilan aytarli qiyalmay shug'uiiana oladilar. Bunday o'quvchilar tabiat fanlarini ham, ijtimoiy fanlarni ham birdek yaxshi o'zlashtiradilar. Maxsus qobiliyatga ega bo'lgan odam qandaydir aniq narsa bilan muvaffaqiyatli Shug'uiiana oladi. Maxsus qobiliyatlardan biri – bu musiqiy qobiliyat hisoblanadi.

O'quvchilarda musiqiy qobiliyat juda erta rivojlanadi. Biroq ayrim hollarda musiqiy qobiliyat kech namoyon bo'lishi ham mumkin. Shuning uchun musiqiy qobiliyati sust bo'lgan bolalarda umuman musiqiy qobiliyat yo'q deb hisoblash noto'g'ridir. Bolalaming xotiralari juda yaxshi rivojlangan bo'-ladi, lekin dars davomida diqqatlari bir joyda turmaydi. Maktab yoshidagi bolalar ijodiy topshiriqlarni yaxshi bajaradilar. Ular turli ritmlardagi kichik kuylar o'ylab topishlari, qo'shiqlarni tahlil qilishlari, musiqani rasm orqali ifodalashlari va qobiliyatlarini namoyon qilishlari mumkin. Bu yoshdagi bolalarda ritmni his eta oladigan yuqori musiqiylik, ya'ni musiqaga emotsiyal javob qaytarish qobiliyati, shuningdek, musiqani nozik did bilan farqlash, ya'ni musiqani eshitish qobiliyati namoyon bo'ladi. O'quvchilarning musiqiy qobiliyatlari dars (mashg'ulotlar)dagi faoliyatlarda namoyon bo'ladi. Shu bilan birga ular asarlarni farqlash, qarama-qarshi hamda o'xshash tomonlarini ajratish, qismlarni taqqoslash, tovush, ritm, dinamikadagi o'zaro munosabatlarni bilishga o'rganadilar. Bu jarayonda esa uiarning musiqiy asami ijiro etish, ritmni his qilish va ijrochilik qobiliyatlari o'sadi. Bolalar o'zlarini eshitib idrok etgan kuy va qo'shiqlari asosida paydo bo'lgan tasavvurlarini aks ettirishga qodir bo'ladilar. Bularning barchasi musiqa dars (mashg'ulot) lari va musiqiy to'garaklarda amalga oshiriladi. Musiqiy qobiliyatning asosiy shakllarini tahlil eta turib kuy va garmoniya idrokini ajratib ko'rsatish mumkin. Ular asosida uchta qobiliyat yotadi:

**1.** Musiqiy eshitish qobiliyatining perceptiv va emotsiyal qismi deb ataluvchi lad hissi mavjud. Lad hissi, ya'ni kuy, tovushlarning lad vazifasini emotsiyal his qilish yoki tovushlarning yuqoriga-pastga harakatlanishining ifodalishini emotsiyal his qilish qobiliyati. Bu qobiliyatni boshqacha qilib musiqiy eshitish qobiliyatining emotsiyal yoki perceptiv qismi deyiladi. Lad hissi musiqiy tovushlarning balandligini his etish va bevosita kuyning anglash va intonatsiyalarni his qilish jarayonida namoyon bo'ladi. U ritm hissi bilan bir qatorda musiqaga bo'lgan asosiy emotsiyal munosabatni tashkil qiladi.

**2.** Musiqiy ta'limning reproduktiv yoki idrok etish qismi bo'lib hisoblanuvchi musiqiy eshitish qobiliyati. U lad hissi bilan birgalikda uyg'unlikni his etishga yordam beradi. Bu qobiliyat musiqiy xotira va musiqiy tasavvurning asosiy negizidir.

Musiqiy eshitish qobiliyati - musiqani to'la-to'kis idrok etish qobiliyatidir. Musiqiy eshitish qobiliyati quyidagi turlarga bo'linadi: mutlaq, nisbiy va ichki qobiliyat. Mutlaq eshitish qobiliyati - musiqiy tovushlarning mutlaq balandligini etalonlari bilan solishtirmagan holda aniqlash qobiliyati. Nisbiy yoki interval eshitish qobiliyati - kuy,

intervallar,akkordlardagi tovushlar soni, ular orasidagi masofa va tovushlar balandligini sezish, aniqlash, ijro etish qobiliyatidir. Buning uchun kishiga hech bo'lmaganda bitta tovush ma'lum bo'lmos'h i kerak. Ichki eshitish qobiliyati - musiqani butun tarkibiy qismini hayolan tasavvur qilish qobiliyatidir. Musiqiy eshitish qobiliyati musiqiy faoliyatlar davomida rivojlanib boradi. Mutlaq eshitish bundan mustasno, negaki uni maxsus mashqlar orqali takomillashtirishning iloji yo'q. Musiqiy eshitish qobiliyatini rivojlantirish uchun ixtisoslashgan musiqa muktablarida solfejio darslari o'tiladi. Musiqiy ritm hissi - musiqani faol boshdan kechirish, musiqiy ritm ifodaviyligini emotSIONAL his etish va uni aniq ijro eta olish qobiliyati. Ritmhissini rivojlantirish juda murakkab bo'lgan qobiliyatlardan biridir.

## **2-mavzu. Musiqa pedagogikasining predmeti.**

### **Reja:**

1. Musiqa pedagogikasining metodologik asoslari.
2. Musiqa pedagogikasi tarixidan O'zbek musiqa pedagogik madaniyati va uning boy an'analari.
3. Musiqa san'atini rivojlantirishda pedagogikaning o'rni.

Ma'lumki, uzoq va boy tarixga ega bo'o'lgan Markaziy Osiyo xalqlari o'zining ta'lim-tarbiyaga oid ulkan merosini yaratib, takomillashtirib, insoniyatning yuzlab avlodlarini insonparvarlik, ilmparvarlik, mehr-oqibat, mehnatsevarlik, do'stlik, saxovat kabi umuminsoniy fazilatlari ruhida tarbiyalab kelgan, xalqimiz yaratgan ma'rifiy fikr sarchashmalari qadim-qadimlarga borib taqaladi. O'zbek xalqi tarixan ta'lim-tarbiya sohasida o'ziga xos dorilfunun yaratgan. Hatto hozirgi o'zbek xalqi yashab turgan zaminda zardushtiylik dini keng yoyilgan davrda ham pedagogik mafkura hukm surgan. Bu zardushtiylik dinining muqaddas kitobi «Avesto»ning bizgacha yetib kelgan ayrim sahifalarida o'z ifodasini topgan. Biroq islomgacha davr tarbiyashunosligi, fan va madaniyati tarixini yoritish imkonи chegaralangan. Chunki, dastlab Iskandar boshchiligidagi yunon-Makedon qo'shinlari, so'ngra Qutayba ibn Muslim rahbarligidagi arab istilochilar olib borgan talonchiliklar, vayronagarchiliklar tufayli o'sha davrga tegishli deyarli barcha asarlar, manbalar yo'qotib yuborilgan. Lekin islom va islomdan keyingi mavjud pedagogik qarashlarni, milliy ta'limtarbiyaga oid an'analarni, qadriyatlarni, xalq pedagogikasini ilmiy o'rganish, puxta taxlil qilish va hayotga tadbiq etish bugungi kunning muhim va dolzarb muammosidir. Istiqlolga erishganimizga qadar biz tarbiya ishlarimizga Yevropa pedagogikasini asos qilib oldik va o'rgandik. Endigi vazifa Sharq pedagogikasi bilan G'arb pedagogikasining eng ilg'or an'analarni o'rganishga e'tiborni qaratishdan

iboratdir. Chunki ilmu-fan avval Sharqda taraqqiy etgan. Buyuk olmon olimi Xerler: «Sharq Yevropaning muallimidir» -deganda haq edi.1 . Pedagogika jamiyat taraqqiyoti qonunlariga suyangan holda turli pedagogik nazariyalarni, ta’limtarbiyaning mazmuni va metodlarini o’rgatadi. O’tmisning pedagogik sistemalarida bo’lgan ilg’or va progressiv fikrlarning hammasidan ijodiy foydalanadi. Demak, pedagogika tarixi ijtimoiy fandir. U tarixiy pedagogika xodisalariga davr talabi asosida yondoshadi, tarbiya nazariyasi va amaliyotini turli bosqichlarda xilma-xil bo’lganligini ochib beradi, ilg’or qarashlarning taraqqiyot yo’lini ko’rsatib beradi. Musiqa pedagogika tarixi fani quyidagi fanlar, ya’ni, pedagogika, psixologiya, madaniyat tarixi, o’zbek cholg’uchilik sanat tarixi (umuman o’zbek musiqa tarixi), O’zbekiston tarixi, jahon xalqlari tarixi, falsafa, etnografiya, arxeologiya, ahloqshunoslik va boshqa bir qator fanlar bilan uzviy aloqadadir. Biz o’zbek musiqa pedagogikasini o’rganish va tahlil qilishda: qadimgi yozuvlar, bitiklar, qo’lyozma yodgorliklari, sharq mutafakkirlarining ilmiy – ma’naviy me’rosi, xalq og‘zaki ijodi, muqaddas kitoblar, pandnomalarga oid asarlariga asoslanamiz. Eng qadimgi yodgorliklarda tarbiyaga oid fikrlar Hozirgi o’zbek xalqining ajdodlari bundan bir necha ming yillar oldin yashagan bo’lib, ular yuksak va o’ziga xos madaniyatni vujudga keltirishda juda katta va mashaqqatli yo’lni bosib o’tgan. Dastlabki tosh quollaridan tirikchilik uchun foydalanish, ancha takomillashgan mehnat quollarini yasash, urug’chilik davriga kelib, xo’jalik hayoti va madaniy taraqqiyotda erishilgan yutuqlarni o’z ichiga olgan davrgacha bo’lgan tariximiz otabobolarimizning boy qadimiylar madaniyatga ega bo’lganligidan dalolat beradi. Eramizdan avvalgi birinchi ming yillikda Baqtriya, Xorazm, So‘g‘diyona, Marg‘iyona, Parfiya hamda Parkana kabi davlatlarida turli qabila va elatlar yashagan. Ular saklar, massagetlar, so‘g‘diyonalar, xorazmiylar, boxtarlar, chochliklar, parkanaliklar kabi qabila va urug’lardan iborat bo’lib, hozirgi Markaziy Osiyo hududida yashovchi xalqlarning ajdodlari hisoblanadilar. Ushbu elatlar yashagan hududlarda o’ziga xos madaniy an’analar tarkib topa borgan. Masalan, eramizdan oldingi asrning birinchi yarmida qadimiylar davlatlar: Baqtriya va So‘g‘diyona, Marg‘iyona, Xorazm, Parkana, Parfiya kabi o’lkalarda xalq xo’jaligining turli sohalarida rivojlanish va taraqqiyot ro‘y bergan. Eramizdan oldingi IX-VI asrlarda paydo bo’lgan Ahmoniylar, eramizdan avvalgi III asr o’rtalarida tashkil topgan Grek-Baqtriya, eramizning I asrida tashkil topgan Kushonlar, eramizning V asrda yuzaga kelgan Eftalitlar, so‘ngra Sosoniylar va nihoyat Turk hoqonligi davlatlarida ijtimoiy madaniyat yuksala bordi. Ajdolarimiz tomonidan qo’lga kiritilgan qadimiylar madaniyati tarkibidan ta’lim-tarbiyaga oid merosi ham alohida o’rin olgan. Zero, hozirgi turkiy va forsiyzabon xalqlarning bizgacha yetib kelgan muhim arxeologik topilmalari, tarixchilar, adabiyot va san’at namoyandalarining ijodiy merosi, san’at va adabiy asarlarning namunalari buning dalilidir. Bunday muhim manbalar sirasiga yunon olimlari Gerodot, Suqrot, Plutarx, Polienlarning tarixiy, geografik hamda axloqiy asarlari, allomalarimiz Abu Rayhon Beruniy,

Mahmud Qoshg‘ariy, faylasuf, sharqshunos va tarixchi olimlar: Ye.E.Bertels, S.P.Tolstov, V.V.Braginskiy, I.M.Mo‘minov, B.G‘afurov, I.V.Stebleva, A.O.Makovelskiy, Y. Jumaboyev, M.Ishoqov, adabiyotshunoslар A.Qayumov, N. Mallayev, N.Rahmonov, pedagog-olimlar O‘Aieuov, M.Orifiy va boshqalar tomonidan olib borilgan tаддиқотлар kiradi. Eng qadimgi tarbiya haqidagi yodgorliklar bizgacha bevosita yetib kelmagan. Turkiy va forsiyzabon xalqlarning hayot kechirish san’ati, donolik majmuasi sifatida yuzaga kelib, borliqqa amaliy munosabatda bo‘lishning namunasi tarzida e’tirof etilgan ma’naviy madaniyat yodgorliklari qadimgi grek tarixchisi Gerodotning “Tarix”, Strabonning “Geografiya” hamda Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘atit-turk” kabi asarlari, shuningdek, O‘rxun-Yenisey bitiklari kabi adabiy-tarixiy manbalarda saqlangan va ular orqali bizgacha yetib kelgan. Ushbu yodgorliklar mohiyatini o‘rganish insonning shakllanishida moddiy va ma’naviy madaniyat qay darajada katta rol o‘ynaganligidan dalolat beradi. Xususan, tarbiya insonning aqliy va axloqiy jihatdan tarkib topa borishiga ta’sir etgan bo‘lsa, insonning shakllana borishi ham o‘z navbatida kishilik jamiyatining qaror topa borishiga yordam bergen. Xullas, tafakkur yurita olish qobiliyatiga ega bo‘lgan inson kamolotining ta’minlanish jarayoni hamda jamiyatning ijtimoiy taraqqiyoti o‘zaro uzviy aloqada shakllangan. Mazkur tarixiy jarayon mohiyatini bilish bizga inson tafakkurining juda uzoq davr va murakkab sharoitlarda shakllana borganligidan dalolat beradi. Ma’lumki, kishilik jamiyatining vujudga kelishi jarayonida inson ham biologik jihatdan, ham ijtimoiy jihatdan takomillashib borgan. Dastlabki diniy e’tiqodlar, eng oddiy ixtirolarning takomillashib borishi kabi holatlar inson ongingin ham shakllanib borishiga turtki bo‘ldi. Bu jarayon minglab yillarni o‘z ichiga olgan bo‘lib, ana shu davrda inson ongi shakllanishining asosi sifatida qabul qilingan xulq-odob qoidalari, ijtimoiy talablar yuzaga kelgan. Ushbu talablar muayyan davrda yaratilgan yodgorliklarining asosiy mazmuni va mohiyatini tashkil etadi. Eng qadimgi kishilarga xos bo‘lgan xislatlar, ularning dastlabki, oddiy istaklari, orzu-umidlari qadimgi eposlarda aks etgan afsonaviy obrazlar hamda qahramonlar qiyofasida o‘z ifodasini topgan. Ruhga sig‘inish (onimizm), ajdodlar ruhiga sig‘inish (totemizm), sehrgarlik kabi diniy e’tiqodlar va marosimlar yoritilgan afsona va rivoyatlarda eng qadimi ajdodlarimizning tafakkur dunyosi aks etgan. Ammo bu rivoyat va afsonalar ham massaget, sak, xorazmiy, so‘g‘d hamda parfiyanlar yashagan davrlar ruhini ifoda etadi, xolos. Eng qadimgi madaniy boyliklarimizni o‘rganishda quyidagi uch guruhga ajratilgan manbalarga tayanamiz:

1) Arxeologik qazilmalar natijasida topilgan ko‘rgazmali ashyolar.

2) Xalq og‘zaki ijodi materiallari hamda yozma manbalar.

3) Buyuk adiblar, allomalarning ijodi merosi. Markaziy Osiyoning qadimi musiqa madaniyati O‘rta Osiyo xalqlari hayotida tarixiy chegaralanish bosqichi taxminan bizning eramizgacha bo‘lgan birinchi ming yillikdan boshlanadi. Bular o‘troq dehqonlar (sug‘diylar, baqtriyaliklar, xorazmiylar) hamda ko‘chmanchi (saklar, massagetlar va boshqa)

qabilalar edi. Ular haqidagi ma'lumotlar Avyestoda ham uchraydi. Xalq poetik va musiqa san'atining boshlanishi o'sha davrlarga borib taqaladi. Xalq poetik va musiqa san'ati dastlab sinkretik holatda bo'lgani to'g'risida "Avesto" kitobi va boshqa qadimgi yozma yodgorliklardan turmushi, ularning urfodatlari, to'ytomoshalarining elementlaridan guvohlik beradi. "Avesto"ning o'zi aslida ijro vositasida og'zaki tarqalib, faqat kyeyinchalik kitob shakliga keltirilgan arkonlar majmuasidir. Uning oyatlari va ayniqsa, madhiyalar qismini tashkil etuvchi - xatlar (bunda so'z oxiridagi "t" harfi juda yumshoq talaffuz etilib, so'nggi davrlarda "goh" shakliga aylanganligi ham ehtimoldan xoli emas: - yakgoh, dugoh, syegoh va h.k.) maxsus kuy tizimini tashkil etuvchi ohanglarda yoqimli ovoz bilan tarannum etilgan, dyeb topilmoqda. "Avesto"da "sruna" dyeb ataluvchi "sirli eshitish" tushunchasi bo'lgan ekan. Tinglash, quloq orqali vujudga ozuqa olishni zardushtiylar muqaddas tuyg'u hisoblaganlar. Dini islomda esa eshituvchilik (some') hissi Allohnning sifatlaridan biri. Qizig'i shundaki, zardushtiylar faqat unli tovushlar go'zalligidan emas, balki olov hovri (kuyi), hattoki jimlikni eshitib lazzatlanishga odatlangan ekanlar. Musiqa badiiyat, san'at sifatida tom ma'noda ijro etish va uni eshitishdan boshlanadi. Sozanda kuyning yaratuvchisi bo'lsa, eshituvchi uning qabul qiluvchisidir. Xalqimizda "Sozandaga chinakam baho beruvchi, uning ustozи va talabgori - eshituvchi" dyegan gap bor. Bunda tushunib eshituvchi - xos shinavanda ko'zda tutiladi, albatta. Ularning hammasi qo'shimcha dalil sifatida ko'zlayotgan fikrimizning isbotiga xizmat etishi mumkin. O'zbek xalqi uzoq musiqiy tarixiy merosiga ega musiqiy pedagogik fikr, taraqqiyotida musiqaning ma'naviy tarbiyaviy omil sifatida keng qamrovda talqin etilishi uni pedagogik ilmlar bilan bir qatorda falsafa, tarix, musiqashunoslik va axloq ilmi asoslari bilan uzviy bog'liqlikni o'rganishni taqazo etadi musiqaning insoniyat kayfiyatiga badiiy estetik va tarbiyaiv ahamiyati haqida qator sharq mutafakirlari o'zlarining boshqa sohalarga bag'ishlagan asarlari ichida bayon qilganlar IX - XII - asrlarda movorunnahrda madaniyat ilm fan san'at va adabiyot islom madaniyati yo'nalishida rivojlandi va taraqiy etdi bu davrda Farg'oniy, Farobi, Beruniy, Xorazimiy, Termiziy, Rudakiy, Firdavsiy, Yassaviy, Qoshg'ariy kabi yuzlab fozillar yashab ijod qildilar. Kelajak avlod uchun musiqiy tarbiyaning ahamiyati nihoyatda buyuyk ekanligi qadimiy mutaffakirlar alohida urg'u bilan takidlashgan. Aynan shu davrda musiqaning ijobiy sifatlarini shakillantiruvchi vazifa hisoblangan. Qadimgi risolalarida musiqani "Kimda kim musiqa san'atiga murojaat etsa, uning nomiga hech qanday dog' tushmaydi", musiqa ta'sirida o'ziga, vataniga katta foyda keltiradi, hech qayerda muvozanatini buzmay hamma yerda donolik va tartibga qat'iy rioya qiladi" deyilgan<sup>1</sup>. Temuriylar davri madaniyati va san'ati taraqiyotida Marog'iy boshchiligidagi Markaziy Osiyo musiqasi nazariyasi va ahamiyati maktabi alohida o'rinn tutadi shuningdek bir qancha xususiy maktablar ham bo'lib, unda musiqachilar odatda muayyan miqdor shogirdlar o'qitganlar ular o'qituvchining butunlay moddiy ta'minotida

bo‘lganlar bu maktabda muayyan darajada Italiyada XV - XVI asrlarda mavjud bo‘lgan badiiy maktablarni eslatadi. O‘zbekiston musiqa madaniyatini tarixiy jihatlari ko‘rib chiqilar ekan, uning O‘rta Osiyo teritoriyasida yashovchi qardosh xalqlar madaniyati bilan aloqasini qayd etmoq kerak. X - XI asrgacha bolgan O‘rta Osiyo xalqlarining musiqa madaniyati o‘rganilar ekan uni o‘zbek, tojik musiqa madaniyati taraqqiyoti uchun asos bo‘lib xizmat qilgan umumiy musiqa madaniyati deb qarash kerak<sup>2</sup>. O‘zbek xalqining musiqa madaniyati va profesional ijod maxsuli bolgan musiqa asarlari og‘izdan og‘izga o‘tishi asosida an‘analar zamirida rivojlangan u bizgacha xofizlar, musiqachilar va baxshilar orqali yetib keldi. Unda xalq ijodiyotining eng yangi namunalari xalq hamda uning proffesional ijrochilari tamonidan chalingan musiqalar qolgan. O‘zbek xalqi ajdodlarning musiqa sarchashmalari O‘rta Osiyo hududida yashagan qardosh xalqlar, birinchi navbatda tojik xalqi ijodi bilan mustahkam bog‘langan. Bu musiqa asarlarning X-XI asrgacha (ya‘ni, bu xalqlar faol chegaralangunlarigacha) o‘zida bir butunlikni ifoda etdi, keyinchalik u o‘zbek va tojik musiqa madaniyatlarining shakllanishi uchun umumiy asos bo‘lib xizmat qildi. Mumtoz musiqamizning "zamzama", "tarona" (eski shakli "taronik" – —taronacha, "buxorcha", "farg‘onacha"ga o‘xshagan uslub tushunchasi), "suvora" ("asp ros") kabi iboralarining ildizlari ham "Avesto" davrining urf-odatlariga borib taqaladi Zikr etilgan eski musiqiy belgilari, keyingi davrlar mafkurasiga binoan yangicha ma‘no va mazmunlar bilan to‘ldirilgan, albatta, qanday bo‘lmisin bu ramzlar zamonlar osha bizgacha moziydan yetib kelgan sadolarga aloqador so‘zlardir. Buni arxyeologiya, etnografiya va boshqa fanlar bergen ma’lumotlar ham tasdiqlaydi. Sinsiz jamiyat sharoitida O‘rta Osiyoda musiqa asboblarining asosi, ya‘ni, urib chalinadigan, puflab chalinadigan va torli sozlar turlari vujudga kelgan edi<sup>3</sup>. Urug‘chilik jamiyatining yemirilishi va sinfiy jamiyatga o‘tish, Baqtriya, Sug‘diyona va Xorazmda davlatlarning paydo bo‘lishi, ahmoniyarning harbiy-ma‘muriy jihatdan birlashuvlari, Alyeksandr Makyedonskiy davlati, Gryek-baqtriya podsholigining vujudga kyelishi eramizdan oldingi VII asrdan to eramizning IV asrgacha bo‘lgan juda katta tarixiy davrni o‘z ichiga oladi. Bu davr epik xaraktyerli mifologik qahramonlik ustun bo‘lgan qadimgi og‘zaki musiqali poetik ijodning yuzaga kelishi bilan mashhurdir. Qahramonlik afsonalari, epik qo‘shiqlar O‘rta Osiyo xalqlarining o‘z mustaqilliklari uchun olib borgan mardonavor kurashlarining bo‘yoq dor tasvirlari bilan to‘la. O‘z xalqining ozodligi yo‘lida jonini qurban qilgan cho‘pon Shiroqning mislsiz jasorati, vatanga bo‘lgan muhabbati to‘g‘risida hikoya qiluvchi Sak afsonalaridan parchalar bizning kunlarimizgacha saqlanib kelgan.

### **3-mavzu. Shaxsni musiqiy rivojlantirish, tarbiyalash va shakllantirish Reja:**

1. Insonni musiqiy rivojlanishining fiziologik asoslari.
2. Musiqiy fazilatlar va qobilyatlaming shakllantirishda irsiyat, muxitning ta'siri va taribyaning o'mi.
3. Musiqa tarbiyasida insonni kasbiy va shaxs fazilatlarini rivojlantirish.

Tayanch so'zlar: Inson,musiqiy fazilat, qobilyat, irsiyat, tarbiya, kasb, shaxs.

Musiqa madaniy hayotimizda keng o'rinn tutgan, inson shaxsiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadigan san'at turidir. Har bir insonni ma'naviy shakllanishida oilani, mакtabni, jamiyatni ahamiyati katta. Chunki insonni insoniylik xususiyatlari jamiyatda tarkib topadi. Yosh avlodni kamolot sari yetaklashda tarbiyani ko'plab omillari qatori musiqa tarbiyasi alohida o'rinn tutadi. Musiqa tarbiyasi nafosat tarbiyasining asosiy va murakkab qirralaridan biri bo'lib, insonni atrofdagi go'zal narsalarni to'g'ri idrok etishga va qadrlashga o'rgatadi. Musiqa inson ruhiyatiga kuchli ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lib, uni nafosat olamiga olib kirish va axloqiy g'oyaviy tarbiyalashni muhim vositasidir. Musiqa insonni yuksak did bilan qurollantiradi va unga ma'naviy ozuqa beradi. Maktabda musiqa o'qitishning asosiy maqsadi o'quvchilarda musiqa madaniyatini shakllantirish ulami zamon talabiga javob bera oladigan barkamol inson qilib voyaga yetkazish. Maktabda musiqa darslarini o'qitishning asosiy vazifaiari quyidagtlardan iborat: - o'quvchilami musiqa san'atiga bo'lgan qiziqishi va mehr-muhabbatini oshirish; - musiqiy faoliyatlar jarayonida o'quvchilami musiqiy qobiliyatları musiqiy o'quvi, ovozi, diqqat-e'tibori va ijodkorlik his-tuyg'ularini o'stirish; - musiqiy asariami badiiy-g'oyaviy mazmuni vositasida axloqiy estetik ruhda tarbiyalash; - musiqa darslarida o'quvchilami kasb-hunarga yo'naltirish, mehnatga muhabbat, Vatanga muhabbat, kattalarga hurmat tuyg'ularini shakllantirish. Mazkur maqsad va vazifalami amalga oshirish o'qituvchining kasbiy va pedagogik mahoratlariga bog'liq. Har qanday san'atkor ham, maktabda musiqa madaniyati darslarini olib borolmaydi. Buning uchun musiqa o'qituvchisi pedagogika, psixologiya, boialar fiziologiyasi, musiqa o'qitish va metodikasi hamda o'z musiqiy kasbiy fanlarini puxta o'zlashtirgan bo'lishi kerak. Musiqa o'qituvchisi o'z kasbiga va bolalarga mehr qo'ygan, yuksak madaniyatli, keng dunyoqarashga ega bo'lgan shxs boMishi lozim. Donishmand xalqimiz azaldan kuy va qo'shiqni bola qalbiga tez yo'l topa olishi, uning ruhiyatga ijobiy ta'sir ko'rsatishi, yaxshi xulq va odob, mehr oqibat, sabr-toqat, kattalarga hurmat fazilatlarini musiqa orqali tarkib topishini azaldan anglab yetgan. Oilada farzandni qo'shiq aytishga, soz chalishga o'rgatish ota-onas hisoblangan. Bola musiqa bilan ona allasi orqali tanishib, musiqadan umrbod ozuqa oladi. Chunki bola hali yurishni, so'zlashni bilmay turib, musiqani eshitib, turli qo'l harakatlari bilan musiqaga munosabatini bildiradi. Shuning uchun azaldan har bir oilada musiqa cholg'u asboblaridan dutor, doira, rubob saqlash urf-odat bo'lib qolgan. Musiqadan ozuqa olish uchun esa, inson sof qalb egasi, yuksak ma'naviyatlari, go'zallikni his eta oladigan inson boiishi kerak. "Har qanday

jamiyatning kelajagi yoshlar ekan, kelajagi buyuk davlatni barpo etilishi, ulami qanday tarbiya olishiga bog'liq. Chunki ma'naviy jihatdan qudratli davlat, ijtimoiy jihatdan kuchli bo'ladi" !. deb takitlaydi o'z asarlarida yurtboshimiz I.A.Karimov. 1 I.A. Karimov "Yuksak m a'naviyat yengilm as kuch", - T.: "M a'naviyat nashriyoti", 2008-yil. 6 Xalqimiz kelajagi mustaqil 0 'zbekistonning istiqboli ko'p jixatdan o'qituvchiga uning dunyoqarashiga, tayyorgarligi, fidoyiligiga, yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash ishiga bo'lgan munosabatiga bog'liq. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini kuchaytirish, ixtisoslarga doir fanlami o'qitish va pedagogik mahoratni egallash, nazariy bilim larni amaliyotda qo'llashga o'rgatish bugungi kun talabidir. Uzluksiz pedagogik ta'lim tizimini amalga oshirilishi munosabati bilan o'qituvchilami malakasini oshirish va ulami qayta tayyorlash ishlari diqqat markazidadir. 0 'qituvchilik kasbi sharaflı, lekin juda murakkab kasbdır, o'qituvchi musiqa nazariyasını egallashi bilan birga, bolalami sevishi, pedagogik amaliyotni ham o'tgan boiishi kerak. Chunki, maktab hayotidagi pedagogik jarayon juda xilma-xildir. Bu esa musiqa o'qituvchisidan puxta bilim, amaliy tayyorgarlikni, yuksak pedagogik mahorat va ijodkorlikni talab etadi. Bo'lajak musiqa o'qituvchisi kiyinish madaniyati va nutq madaniyatiga ega bo'lishi kerak. U o'qituvchilik kasbini va bolalami yaxshi ko'rishi hamda ularni barkamol inson sifatida kamol topishiga ko'maklashishi, har bir darsni o'quvchilarni hayot tajribasiga bogiagan holda olib borishi, hilma-hil metodlar, innovatsion texnologiyalar, ko'rgazmali qurollar, kompyutnr slayd, tarqatma materiallaridan foydalanishi kerak. 0 4z kasbiy mutaxassisligini puxta egallagan bo'lishi, bolalar ovoziga o'zining ovozini moslab kuylay olishi, ijrochilik mahoratiga ega bo'lishi, sinfdan tashqari to'g'aramlarga o'quvchilarni jalb etish bilan turli tanlovlarda, tadbirlarda o'quvchi!ar faol ishtirok etishi kerak, 0 'qituvchi har bir darsini senariy muallifi, artisti, ijrochisi hamda rejissyori boTishi bilan birga zamon bilan hamnafas qadam tashlashi muhim ahamiyat kasb etadi. Q'qituvchilik kasbini egallash uchun albatta kasbiy qobiliyatlar bilan birga jismoniy va ruhiy sog'lom bo'lishi darkor. "Biz sog'lom avlodni tarbiyalab, voyaga yetkazishimiz kerak" deb ta'kidlaydi Yurtboshimiz I.A.Karimov1. SogTom kishi deganda faqat jismoniy sog'iomlikni emas, balki sog'iom ruhiy xislatlami, sharqona axioq odob va umumbashariy g'oyalar ruhida kamol topgan insonni tushunamiz" Buyuk pedagog A.Avioniy shunday degan edilar "Tarbiya qiluvchilar tabib kabitirlar, tabib hastani badanidagi kasallikka davo qilgani kabi, o'qituvchi ham bolani musiqa orqali, aqliy rivojiga diqqat markaziga ta'sir etib, ularda poklik, vijdon, sadoqat, mehr, kattalarga hurmat, Vatanga muhabbat kabi tuyg'ulami tarbiyalaydi". "Tarbiya biz uchun yo hayot yo momot, yo najot-yo halokat. Yo saodat-yo falokat masalasidir" deb yozgan edi. Buyuk mutaffakkir shoir A.Navoiy o'z asarlarida musiqa tarbiyasining qirralarini chuqur o'rganib, shunday dedi: "Musiqa jamiyat hayotining muhim negizidir. Faqat musiqagina odamning qalbiga tiniqlik, mutanosiblik va o'z-o'zidan qanot tuyg'usini olib kiradi va uni baxtiyor qiladi" A1 Forobiy fikricha: "Musiqa - nodir san'at, ezgulikka yetaklovchi kuchdir" , "Kimki ilm xikmat o'rganmoqchi boTsa, avvalo o'zi ma'naviy barkamollika erishmog'i lozim"- deydi Abu Rayxon Beruniy. "Har kimki hikmat o'rganman desa, yoshlikdan bolasini, ilmli va dono kishilardan saboq olsin, shundagina u komillik darajasiga yetadi"; Shunday ekan, hozirgi davrda, musiqa o'qituvchisidan mas'uliyat, fanga yangicha

yondashuv uning metodologiyasini chuqur o‘rganish talab etadi. Umumta’lim maktablarida esa, musiqa madaniyati darslarning asosiy maqsadi, o‘quvchilarda musiqaga qiziqish uyg‘otish vositasida musiqiy madaniyatini tarkib toptirish. Zero kuy va ohang ta’sirida inson ezgulikka intilish, go‘zallikni asrash, ona tabiatga, ona Vatanga muhabbat his tuyg‘ularini shakllantirib, ma’naviy dunyosini boyitadi.

#### **4-mavzu. Musiqiy-pedagogik jarayon Reja:**

- 1. Musiqiy-pedagogik jarayon haqida tushuncha.**
- 2. Musiqiy pedagogik jarayon musiqa pedagogikasi fanining asosiy o‘rganiladigan predmeti.**
- 3. Musiqiy-pedagogik jarayoning asosiy tarkibiy qismlari, shakllari, bosqichlari, usullari.**

Dars, musiqa tarbiyasi tizimida, yetakchi omil hisoblanadi. Chunki, bolalar yalpitardza qamrab olinadi. Musiqa bolalami aqliy hamda axloqiy rivojlanishida katta ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. SHuning uchun musiqa darslari eng avvalo, tarbiya darsi deyiladi. Fanning nomi faqatgina musiqa o‘qitish metodikasi emas, balki musiqa tarbiyasi metodikasi deyiladi. Yangi dastur mazmunida dars o‘tish uchun musiqa o‘qituvchisi o‘zining musiqiy va nazariy bilimlarini takomillashtirishi lozim. Bugungi kunda musiqa insonni shakllanishida muhim rol o‘ynaydi, uning hissiyoti va ruxiyatiga faol ta’sir ko‘rsatadi. Umumtalim maktablarining asosiy vazifalaridan biri, o‘quvchilarni nafosat olamiga olib kirish va ma’naviy tarbiya berish. Bunda o‘qituvchi bolalarni ma’lum bir musiqa asari bilan tanishtirib, uni ifodali, jonli qilib ijro etib, o ‘quvchilar diqqat e’ tiborini asarga jalb etadi, ulaming nutqini ustirish, fikrlash qobiliyatini, dunyoqarashini kengaytiradi, elyutsional his -tuyg ‘ularga ham faol ta’ sir etadi. Musiqa darslarining mazmunida faqatgina o ‘zlashtirini emas, balki o ‘quvchilar ongini vogelikka munosabatini rivojlantirish, estetik madoniyatini tarkib toptirish va boshqa ichki his -tu y g ‘ularini shakllantirishnazarda tutiladi. O ‘qituvchining darsga ijodiy tarzda yondashishi muhim ahamiyat kasb etadi va bir qancha vazifalarni o ‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi;

- musiqa tarbiyasida yangi metod va vositalar izlash;
- hayot va san’ at o ‘rtasidagi o ‘zviy bogTiklikni ifodalash;

Ushbu maqsadlarni amalga oshirishda o ‘qituvchi jiddiy tayyorgarlik ko ‘rishi, o ‘z ustida tinmay ishlashi, ya’ ni bilim saviyasini oshirishi uchun ilmiy adabiyotlar, yangi dasturlar, badiiy adabiyotlar, teatr, muzeylarga borib (tinmay) ongini oshiris’n yoilarini takomillashtirib borishi zarur. Musiqa darslari olib boriladigan sinf xonaci did bilan namunali jihozlangan bo ‘lishi muhim rol o ‘ynaydi. Texnika vositalari, metodik ko ‘rgazmali qurollar, pianino cholru asbobi va o ‘zbek xalq cholru asboblari bilan

jixozlangan boTishi, yangi dasturdan foydalanib, dars reja konspektalarini tuzib yangi texnologiyani qo ‘llab olib borilishi kerak. SHunday qilib, musiqa darslarining barcha faoliyatlarini maqsadi va mazmuni darsni mazmunlarini yoritib, hayot bilan bog ‘lab darsning hamma qismlarini bir - biri bilan uzviy olib borishini talab etiladi.

Musiqa darsi boshqa darslardan o ‘zining badiyligi, qiziqarliligi va bolalargako ‘proq ijodiy zavq, emotsiyal tuyg ‘ular va obrazli kechinmalap uyg ‘otishi bilan ajralib turadi. Shuning uchun musiqa darsi eng avvalo, tarbiya darsidir. Musiqa darslari quyidagi spetsifik xususiyatlari bilan boshqa dars lar dan farq qiladi:

1) U musiqa nazariyasi va ijrochiligiga doir turli faoliyatlardan: vokal - xor mashg‘ulotlari, musiqa savodi, musiqa tinglash, bolalar cholg‘u asbobida chalish, ritmik harakatlar bajarish elementlaridan iboratdir.

2) Musiqa boshqa san’at turlaridan o‘zining ifoda vositalari, ya’ni tili (kuy, lad, dinamik belgilari, temp, alteratsiya belgilari, intervallar) bilan farq qiladi. Agar badiiy adabiyot so4z bilan tasviriy san’ at ranglar bilan, paqc san’ ati harakat bilan ifodalarka, musiqa esa musiqiy tovushlarda vujudga kelgan ohang vositasida ifodalananadi. Yuqoridagi

san’ at turlarim ko ‘rish va eshitish orqali idrok etsak, musiqani faqatgina diqqat bilan tinglabgina ifoda etamiz, shuning uchun ko ‘zi ojiz kishilardan ham yetuk musiqachilar yetishib chikqan.

3) Musiqa aniq vaqt oichovi bilan bog ‘langan san’ atdir. SHuning uchun, ijo etilayogan musiqa tempiga sozlanib, uning har bir elementnbiy diqqat bilan tinglamasak, asami mukammal idrok etolmaymiz. Mumtoz asami qayta - qayta tinglaganda, uning yangi - yangi badiiy qirralarini his etamiz.

4) Musiqa bolalarga faol emotsiyal ta’ sir ko ‘rsatadi, quvontiradi hamda ijodiy kechinmalar uygotadi. Yaxshi, mazmunli, qiziqarli musiqa darslaridan bolalar xordiq chiqarib, badiiy ozuqa oladilar, quvnoq, xursand bo ‘lib chiqadilar. Xullas musiqa darsi o ‘zining faol psixologik ta’ siri bilan boshqa fanlardan farq qiladi.

5) Musiqa aniq vaqt o ‘Ichoviga ega. Shuningdek, musiqa darsi boshqa fanlar bilan chambarchas bog ‘iiqdir. Tasviriy

san’ at, adabiyot, ona tili, matematika, tarix, pedagogika, psixologiya, vokal, ritmika va boshqalar. Bular musiqa darsnii hayot bilan bog ‘lashga, mazmunli, qiziqarli qilib darsni

olib borishga yordam beradi. Musiqa darsi o ‘zining aralash dars tipi bilan ham boshqa fanlardan farq qiladi.

Boshlang ‘ich sinflarda musiqa darsi beshta faoliyat turidan tuziladi:

1. Xor bo ‘lib kuylash.
2. Musiqa savodi.
3. Musiqa tinlash.
4. Musiqaga mos harakatlami bajarish.
5. Bolalar cholg‘u asboblarida jo ‘r bo ‘lishdan iborat.

## Xor bo‘lib kuvalash

Bolalami musiqiy o‘quvini ijodiy rivojlantirishda ayniqsa, vokal -xor ishlarining ahamiyati katta. Bunda o‘quvchilami kuvalashga qiziqtira olish ko‘p jihatdan o‘rganadigan har bir mashq yoki qo‘sinq o‘quvchi tomonidan chiroyli qilib kuylab berishga bog‘liq. CHunki yosh bolalar bilan olib boriladigan vokal -xor ishi ko‘pincha o‘qituvchi ovoziga taqlid qilib kuvalashga asoslanadi. SHuning uchun o‘qituvchi yoqimli ovozi ustida muntazam ish olib borishi kerak. Vokal-xor ishlarini amalga oshirishda o‘qituvchi ovoz sozlash, qo‘sinq o‘rgatish jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilaming ovoz diapazoni (do, - do2), ishchr: diapazoni(mi, - fa, - so 1) primar tovushlarida kuvalash uchun qo‘lay bo‘lgan (sol, - lya,), tovushlarini aniq bilishi lozim.

Musiqa madaniyati darslarida qo‘sinq o‘rgatish bir necha bosqich jarayonida amalga oshiriladi:

1. Bolalar diqqatini qo‘sinqqa jalb qilish.
2. Qo‘sinq haqida o‘qituvchining kirish so‘zi (qo‘sinq mualliflari, asarining mazmuni, tarixiy xususiyatlari haqida qisqacha hikoya qilish).
3. Qo‘sinqni tahlil qilinishi (musiqa ifoda vositalari, harakteri mazmunini suqbat yo‘li bilan belgilash).
4. Qushiqni musiqiy jumalarga bo‘lib o‘rgatish (to‘g‘ri nafas olib, jumlani oxirigacha tejab yetkazish, ijrochilik sifatlari ustida ishslash).
5. Qo‘sinqni badiiy ijrosiga erishish (qo‘sinq haqidagi bolalar taassurotlari yuzasidan qisqa suxbat o‘tkazish ya’ni umumlashtirish). **Musiqa savodi** Musiqa madaniyati darslari jarayonida, musiqa savodi mustaqil dars faoliyatlar jarayonida musiqa asariarini badiiy o‘rganish va ijro etish ishlarini savodxonlik asosida bajarish uchun qo‘llaniladi. Musiqa savodi mazmuni o‘quvchilami tobora shakllantiradi va ulami doirasini tobora kengaytirib, chugurlashtirib boradi. SHunday qilib musiqa savodi darsining ta‘limiy vazifasini bajaradi, Musiqa savodi (faoliyatining) asosiy negizi va pedagogik maqsadi, yangi dastur bo‘yicha berilgan chorak mavzulari quylash vatinglashga doir asariarini savodli tablil qilish orqali amalga oshiriladi. Ular o‘quvchilarni kundalik hayotidan olinayotgan taassurotlari va musiqiy tajribalarini asosida o‘rgatiladi.

Musiqa savodi quyidagi bosqichlar bo‘yicha o‘rgatiladi.

1. Bolalar diqqatini musiqa ifoda vositalari quy, registr, temp, ritm, dinamik belgilari o‘rgatish.
2. Ovoz sozlash va qo‘sinq ijro etish qoidalariga doir bilimlar, chapak va cholg‘u asboblar chalish qoidalariga amal ailishga o‘rgatish.
3. Musiqa ijodkorlari: kompozitor, ijrochi, tinglovchi mavzuning mazmuni va o‘rganiladigan asaming muailiflari haqidagi ma’lumotlar, musiqa savodi orqali amaiga oshiriladi.

## Musiqa tinglash

Musiqa tinglash, musiqa madaniyati darslarining asosiy omiii hisoblanadi, chunki musiqaning yangrashi ongli ravishda idrok etilib, uning harakteri, mazmuni ongli ravishda o‘zlashtiriladi. O‘quvchi!arni hayotiy tajribalariga tayangan holda har bir musiqa asari zamirida ma’lum, his - tungu va fikr aks ettiriladi. Biz musiqa darsining qaysi

faoliyatini olmaylik u avval musiqani tinglab, musiqani idrok etishdan boshlanadi va o‘quvchilaming ruhiyatiga ta’sir etadi, shuning uchun musiqa tinglash darsining yetakchi faoliyati bo‘lib hisoblanadi. Darsda tinglanadigan har bir musiqiy asar, badiiy - g‘oyaviy mazmuni jiqatdan choraq dars mazmuniga bog-lij bo‘ladi va ilmiyliq davomiylik, izchillik tamoyillariga amai qiladi. Musiqa tinglash bir necha bosqichlar orqali amalgalashiriladi:

1. 0 ‘quvchilar e’tiborini musiqiy asargajalb qilish va o‘qituvchining kirish so‘zi.
2. 0 ‘qituvchi ijrosida yoki magnit yozuvda asarni tinglash.
3. Asami suhbat yuli bilan musiqiy va badiyg‘oyaviy jixatdan oddiy tahiil qilish.
4. Asami bir butunligicha qayta tinglash va asarhakida o‘quvchilami umumiy taassurotlariyuzasida yakuniy suhbat o‘tkazish.

### **Musiqa tinglash metodlari:**

#### **1. Ko‘rgazmai metoli:**

- 0 ‘qituvchining jonli ijrosi, rasmlar vositalariorqali bolalar cholg‘u asbobi, torli, ritmli harakatlar.

#### **2. Amaly metod:**

- o‘quvchilar musiqiy asarga qiziqishini oshirib, ulami hayotiy tajribasiga bog‘lab tushuntirish vamusiqiy asarga munosabatini faollashtirish.

#### **3. Taqqoslash metodi:**

- bunda asarlarning janrlarijrochilikhususiyatlari templari, mazmunlari taqqoslanadi, musiqiy didini o‘stirishga yordam beradi. Musiqa darsini 5 ta faoliyati turlari (xor bo‘lib kuylash, musiqa savodi, musiqa tinglash, musiqaga mos harakatlar bajarish va bolalar cholg‘u asboblarida jo ‘r boiish) uzviy bog‘lab boriladi va mantikiy bir butunlikka erishish maqsadga muvofiqdir.

#### **4. Og’zaki metodlar:**

- 0 ‘qituvchi tinlanadigan asar mazmunini boialar hayotiga bog‘lab yoritadi. Asar mazmuniga qarab mualiflari, kelib chiqish tarixi haqida qiziqarli xikoya qilib beradi.

### **Bolalar cholg‘u asboblarida Jo‘r bo‘lish**

Boialar cholg‘u asboblarida jo‘r boiish. Bu faoliyat turi eng qiziqarli mashg‘ulotdir, chunki boialar cholg‘u asboblari jonli, tovushli o‘yinchoqlar sifatida har bir o‘quvchining qiziqtiradi. Bolalar cholg‘u asboblari birinchi navbatda o‘quvchilarda ijrolik elementlari orqali ijodkorlik, musiqiy o‘quv qobiliyatlarini rivojlantiradi. Musiqa madaniyati darslarida boialar cholg‘u asboblaridan foydalanish yaxshi natijalar berish bilan birga o‘quvchilami darsga intiiuvchanligini, qiziqishini, musiqiy o‘quvini oshiradi. Musiqa darslarida qoilaniladigan boialar cholg‘u asboblari ikki turga boiinadi.

**Kuychang va kuvchanff boimagan** (shovqinli) cholg‘u asboblar kiradi.

1. Kuychang cholg‘u asboblarga metalafon va kselafon kiradi.
2. Kuychang boimagan cholg‘u asboblariga: doirachalar, oddiy cho‘p qoshiqlar, kichik shiqildoklar, barabanchalar, uchburchaq markassa va rumbalar kiradi. Bolalar cholg‘u asboblarida jo‘r bo‘lish turli metodlar amalgalashiriladi;

1. Avval bolalar kuyni tinglab, chapak chalish, ritmik jo‘r boiish.

2. Musiqaga ritmik jo‘r boiishni aniq bajanganlar, bolalarcholq‘u asboblarida jo‘r

boiadigan.

3. Keyinchalikesa, passivbolalar, to‘g‘ri ijroetishga intilish maqsadida, ular ham jo‘r boiadilar.
4. Boialar cholg‘u asboblarida jo ‘r boiish har gal, har xil cholg‘u asboblarida bajariladi.
5. Sinfni 2 guruxga boiib. 1 - gurux chapak vacholq‘uda, 2 - gurux esa ovoz usul berish (bum - ba, baka - baka - bum) bilan amalga oshirish mumkin.
6. Boialar choig‘u asboblarida ritmiq jo ‘r boiish grafik koi'satilgan ritmik tuzilmalarga qarab, chalish ham o‘quvchilar ijodkorligini oshiradi, faollashtiradi, ijrochilik malakalarini va musiqiy qobiliyatlarini har tomonlama rivojlantiradi.

### **Musiqaga xos harakatiar bajarish.**

Boshlang‘ich sinflarda ritmik harakatlarni bajarish, o‘quvchilarni jismoniy rivojlantirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlangich sinf o‘quvchilari, ovoz apparatlari noziq diqqat e’tibori tarqoq serharakat, o‘ynqaroq xotirasi, nutqi, toiiq rivojlanmagan boiganligi

sababli musiqa darsida faoliyat turlari tez - tez almashib turishi lozim. Musiqaga mos raqs, o‘yin harakatlarini bajarish, o‘quvchilarni diqqatini jamlashda, xotirasini mustaxkamlashda va jismonan o‘sishga yordam beradi. Dars davomida quyidagi harakat turlaridan foydalanish tavsiya etiladi: marsh musiqalariga qadam tashlash, yugurish, raksi elementlarini bajarish, mustaqil o‘yinlar o‘tkazish, musiqaning harakteriga mos, turli q o i va tanaharakatlari bilan ifodalanadi. Maiumki, milliy musiqamiz madaniyatida raqs muhim o‘rin tutadi va unga har bir bola qiziqadi. Har bir harakat turini o‘qituvchi oldindan belgilaydi va o‘zi uni aniq go‘zal va ifodali qilib ko‘rsatib beradi. Har bir harakatni bajarishdan oldin, unga doir musiqani mazmunini avval ongli ravishda tinglab yoki kuylab, so‘ngra harakatiar bajarish yaxshi natija beradi. Boialar musiqali o‘yinlarga ham juda qizikadilar. Ko‘p musiqiy asarlar mazmunida o‘yin metodlaridan foydalanish mumkin. Dars jarayoni bajarilgan har bir musiqiy harakat turi, musiqali o‘yinlar, o‘quvchilarni xotirasini mustaxkamlaydi, nutqinio‘stiradi, jismoniy cogiom boiishiga ko‘maklashadi va ularni ruxlantirib, musiqa darsiga qiziqishini oshiradi. CHunki, boshlangich sinf o‘quvchilarini diqqat e’tiborini tarqoq ovoz apparatlari, kuchsiz, musiqiy o‘quv qobiliyatları to ia shakllanmagan, serharakat, o‘yinga moyil boiadilar. Bunda darsning tuzilishi pedagogik maqsadlarga qarab darsni xoxlagan dars faoliyatidan boshiash mumkin. Bundan maqsad, o‘quvchilami musiqaga qiziqtira olish, musiqiy qobiliyatlarini ustirish, dars faoliyatlarini bir - biri bilan chambar- chas bog‘lab mazmunjixatdai mantiqiy bir butunlikka erishdir. Demak, yangi dastur mazmunida dars o‘tish uchun, musiqa o‘qituvchisi ijodkor bo‘lishi, musiqadan zarur bilimlarga hamda ashulachilik malakalariga ega bo‘lishi lozim.

## **5-mavzu. Musiqiy ta’lim berish va o‘qitish nazariyasi**

### **Reja:**

1. Musiqaviy didaktikaning predmeti va vazifalari.
2. Musiqaviy didaktikaning asosiy katigoriyalari.
3. Musiqa ta’limining mazmuni, jarayoni, prinsiplari, metodlari, shakllari.

Musiqa ta’lim-tarbiyasining maqsadi yosh avlodni milliy musiqa merosimizga vorislik qila oladigan hamda umumbashariy musiqiy qadriyatlarni idrok eta oladigan madaniyatli inson darajasida voyaga yetkazishdan iboratdir. Buning uchun kamolga yetishib kelayotgan yosh avlodni musiqiy iqtidorini rivojlantirib, musiqa san’atiga mehr ishtiyoqini oshirish, musiqadan bilim va amaliy malakalar doiralarini tarkib toptirish, iqtidorli bolalarni musiqiy qobiliyatlarini rivojlanishlari uchun zaruriy shartsharoitlar yaratib berish, maktabgacha ta’lim muassasalarining musiqa mashg’ulotlarining asosiy vazifalaridan biridir. Mazkur oliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish musiqaga jamiyatni madaniy - ahloqiy rivojlantiruvchi omil sifatida qarash, predmet muammolarini xal etishda keng o’qituvchilar ijodkorligiga tayanish, musiqa o’qitish uslubiyotini ilgor tajribalar va kompleks ilmiy-metodik izlanishlar natijasi asosida takomillashtirish talab etiladi. Bu borada didaktik o’yinli mashg’ulotlarning ahamiyati uzgachadir. Didaktika ta’lim jarayonining umumiyl qonuniyatlarini o’rganiivchi qismidir. Didaktika grekcha so’z bo’lib, «didayko» - o’qitish. «didaskoya» - o’rgatuvchi degan so’zlardan kelib chiqqan. «Didaktika» - ning so’zma-so’z tarjimasi ta’lim nazariyasini anglatadi. Ta’lim nazariyasi tal’im jarayonining tushunchasi va mohiyatini, ta’lim qoidalarini, uslublari hamda tashkiliy formalarini o’z ichiga oladi. Didaktika o’z oldiga o’qitishning o’quvchilarni har tomonlama tarbiyalash maqsadlariga javob beruvchi umumiyl qonuniyatlarini bilib olish vazifasmi qo’yadi. Ta’limning asosiy vazifasi yosh avlodni ilmiy bilimlar, ko’nikma va malakalar tizimi bilan qurollantirishdan iborat. Demak, didaktika «nimaga o’qitish». «nimani o’qitish» va «qanday o’qitish» kabi savollariga javob izlaydi. Umumiyl didaktika esa o’z navbatida, ayrim o’quv fanlariga oid usullar bilan juda mustahkam bog’lanadi. Shu usullar mo’lumotiga tayanib, o’qitishning umumiyl qonuniyatlarini yechib boradi va ayni vaqtida har bir o’quv fanini o’qitish usullari uchun umumiyl asos bo’lib xizmat qiladi. Musiqaviy didaktika, uning birlashtiruvchi vazifasi hamda uning xususiy didaktikalar va musiqiy ta’limning mavzuli metodikalari bilan bog’liqdir. Musiqaviy didaktikaning asosiy kategoriyalari: musiqiy ta’limning jarayoni, prinsiplari, mazmuni, usullari, shakllari. . Musiqiy ta’lim mazmuni umumiyl madaniyatining rivojlanishiga va jamiyatning musiqa san’atiga bo’lgan extiyojiga bog’liq. Shuning uchun musiqiy ta’lim mazmuniga kiruvchi musiqiy bilimlar, malakalar, ko’nikmalar, musiqa materiali, ta’lim usullari va shakllarini sistemalashtirish lozim. Musiqa sabog’i tarbiyalovchi shaxsning badiiy tafakkurini shakllantiruvchi ta’lim

sifatida muhimdir. Uning vositasida nafosat tuyg'ularini tarbiyalash bilan birga yosh avlodda oliv insoniy fazilatlar tarkib toptirish nazarda tutiladi. Kupchilik holatlarda musiqa mashg 'ulotlarda utkazish oddiy an'anaviy holatlarda olib boriladi, shu sababli ham tarbiyanuvchilarni qo'shiq yoki musiqani uzlashtirishi qiyin kechadi. Ushbu holatlarda didaktik o'yinli mashg'ulotlardan foydalanish mashg'ulot sifatini oshiradi. Maktabda bosh lang'ich sinf musiqa darslarida didaktik o'yinli texnologiyalar didaktik o'yinli mashg'ulotlar shaklida qo'llaniladi. Ushbu mashg'ulotlarda tarbiyanuvchilarning bilim olish jarayoni o'yin faoliyati orqali uyg'unlashtiriladi. Shu sababli tarbiyanuvchilarning musiqani anglashi, o'yin faoliyati bilan uyg'unlashgan didaktik o'yinli mashgulotlar deb ataladi. Inson hayotida o'yin faoliyati orqali quyidagi vazifalar amalga oshiriladi: - o'yin faoliyati orqali shaxsning o'qishga, mehnatga bo'lган qiziqishi ortadi; - o'yin davomida shaxsning muloqotga kirishishi ya'ni, kommunikativ – muloqot madaniyatini egallashi uchun yordam beriladi; - shaxsning o'z iqtidori, qiziqishi, bilimi va o'zligini namoyon etishiga imkon yaratiladi; - hayotda va o'yin jarayonida yuz beradigan turli qiyinchiliklarni yengish va mo'ljalni to'g'ri olish ko'nikmalarining tarkib topishiga yordam beradi; - o'yin jarayonida ijtimoiy normalarga mos xulq-atvorni egallash, kamchiliklarga barham berish imkoniyati yaratiladi; - shaxsning ijobiy fazilatlarini shakllantirishga zamin tayyorlaydi; - insoniyat uchun ahamiyatli bo'lган qadriyatlar tizimi, ayniqsa, ijtimoiy, ma'naviy-madaniy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'rganishga e'tibor qaratiladi; - o'yin ishtiropchilarida jamoaviy muloqot madaniyatini rivojlantirish ko'zda tutiladi. [2,33- b] Didaktik o'yinli mashg'ulotlarni tarbiyanuvchilarning bilim olish va o'yin faoliyatining uyg'unligiga qarab: syujetli-rolli o'yinlar, ijodiy o'yinlar, ishbilarmonlar o'yini, o'yin-mashqlarga ajratish mumkin. Musiqiy mashg'ulot olib boruvchi pedagog avval tarbiyanuvchilarni individual (yakka tartibdagi), so'ngra guruhli o'yinlarga tayyorlashi va uni o'tkazishi, o'yin muvaffaqiyatli chiqqandan so'ng esa, ularni ommaviy o'yinlarga tayyorlashi lozim. Chunki tarbiyanuvchilar didaktik o'yinli mashg'ulotlarda faol ishtirop etishlari uchun zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari, bundan tashqari, guruh jamoasi o'rtaida hamkorlik, o'zaro yordam vujudga kelishi lozim.

"Tamoyillar" - ta'lim maqsadi va vazifalarining mohiyatini, uning mazmuni va jarayonining mohiyatini ochib beradigan dastlabki qoidalar.

Printsiplar musiqiy ta'limning tarkibiy qismidir. Musiqiy ta'limda ular musiqa o'qituvchisining falsafiy-estetik, musiqiy, psixologik va musiqiy-pedagogik yo'nalishdagi mavqeini tasdiqlaydilar. "Musiqiy ta'lim nazariyasi" darsligi mualliflari E.B. Abdullin va E.V. Nikolaev ushbu sohalarni quyidagicha tavsiflaydi.

1. Gumanistik, estetik, axloqiy yo'nalishmusiqa ta'limi quyidagi tamoyillarga ega:

Musiqiy san'atning ma'naviy hayot bilan turli xil aloqalarini ochib berish;

Musiqaning estetik ahamiyatini ochib berish;

Bolaning estetik, axloqiy va badiiy rivojlanishida musiqaning noyob imkoniyatlarini tan olish;

Musiqiy san'atni umumiylar tarixiy sharoitda va boshqa san'at turlari bilan bog'liq holda o'rganish;

Musiqiy san'atning yuqori badiiy namunalariga (durdonalariga) yo'naltirish;

Bolaning shaxsiyatining ichki qiymatini uning san'at bilan muloqotida tan olish.

2. Musiqashunoslikka e'tibor ta'lim quyidagi tamoyillarda namoyon bo'ladi:

Xalq, akademik (klassik va zamonaviy), ma'naviy (diniy) musiqa birligi asosida talabalar tomonidan musiqiy san'atni o'rganish;

Musiqani o'rganishda intonatsiya, janr, uslubiy yondashuvlarga tayanish;

Musiqa san'atida shaxsiy "yashash" usullari sifatida musiqa tinglash, ijro etish va yaratish jarayonini talabalarga ochib berish.

3. Musiqiy va psixologik yo'nalish musiqiy ta'lim quyidagi printsiplarda mujassam:

Musiqiy ta'lim jarayoni o'quvchining shaxsiyati, uning musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilganligi;

Turli xil talabalarni o'zlashtirishga e'tibor bering musiqiy faoliyat;

Musiqiy ta'limda intuitiv va ongli boshlanishlarni rivojlantirish birligiga tayanish;

Bolaning rivojlanishidagi eng muhim stimullardan biri sifatida musiqiy ijodkorlikni turli ko'rinishlarida tan olish;

Musiqiy ta'limda musiqaning art-terapeutik imkoniyatlarini amalga oshirish.

4. Pedagogik yo'nalish musiqiy ta'lim quyidagi tamoyillarda namoyon bo'ladi:

Talabalarni musiqiy tarbiyalash, o'qitish va rivojlantirishning birligi;

Tashkilotdagi hayrat, izchillik, izchillik, ilmiy xarakter musiqa darslari;

Musiqiy-pedagogik maqsad va vositalarning dialektik aloqasi;

Musiqiy tadqiqotlar mohiyatini musiqiy va ijodiy jarayonga singdirish.

Shubhasiz, zamonaviy musiqa ta'limi belgilangan tamoyillarning to'liqligi va to'ldirilishi uning mazmuni va musiqa darslarini tashkil etishga yaxlit yondashuvni ta'minlaydi. Biroq, musiqa ta'limi tamoyillarini aniqlash, rivojlantirish va tizimlashtirish muammosi hanuzgacha dolzarb va dolzarb bo'lib qolmoqda, shuning uchun ko'pgina nazariyotchilar, didaktiklar, psixologlar va musiqa o'qituvchilari unga murojaat qilishadi. Bu, avvalo, mohiyatni                anglash                bilan                bog'liq zamonaviy                dars musiqa.

Musiqa darsi va musiqaning o'zi ko'pchilik mualliflar tomonidan ko'rib chiqilgan metodologiya va o'quv qo'llanmalari, bir tomonidan, maktab predmeti sifatidava boshqa tomonidan - badiiy dars sifatida... Bu erda musiqa darsining har ikki tomoniga xos xususiyatlarini ta'kidlash zarur bo'ladi, o'xshashlik va farqlar ularni o'zлari va boshqa maktab sub'ektlari o'rtasida - bu dolzarb muammoga aylanib bormoqda.

O. A. Apraksina o'zining "Maktabda musiqiy ta'lim metodikasi" kitobida musiqa darslarining boshqa maktab fanlari bilan o'xshashligini umumiyl maqsad - har tomonlama rivojlangan barkamol shaxsni shakllantirishda topadi; talabalar rivojlanishining umumiyl psixologik va pedagogik qonuniyatlarini hisobga olish; darsni tashkil etish shakllarida - sinfning bir xil tarkibi, o'quvchilarning ma'lumotlari, qiziqishlari, darsning davomiyligi, yangisining xabari, konsolidatsiya, takrorlash, o'zlashtirilishini tekshirish, darsning majburiyati. Darslik muallifining so'zlariga ko'ra, umumiyl "... o'qitishning asosiy usullari: namoyish qilish-tushuntirish, suhbat, har qanday vazifani bajarish uchun muammoli vaziyatlarni yaratish va boshqalar."

Muallifning o'xshashliklarini quyidagi narsalardan ko'rishi biz uchun juda muhimdir: «... maktabdagи barcha o'qitishlarga asoslanadi umumiyl didaktik tamoyillar, yana har bir narsaning xususiyatlariga mos ravishda har xil usullar bilan amalga oshiriladi. Printsiplar: ta'limiy tayyorgarlik, muntazamlik, mavjudlik, ko'rinaliganlikva boshqalar - har qanday boshqa mavzuni o'qitish bilan bir qatorda musiqa darsiga ham xosdir. " Men ham ta'kidlamoqchi bo'lган farqlar, tabiiyki, "... musiqa darsining asosiy xususiyatidan kelib chiqadi: bu san'at darsidir ... Musiqani o'rgatish jarayonida yuzaga keladigan bilimning o'zi o'ziga xosdir, uni faqat fikr faoliyati bilan qisqartirish mumkin emas, balki hissiyotlar va aqlning birligini anglatishi kerak. , ong va hissiyotlar "deb nomlangan.

Bundan tashqari hissiy va ongli birligiham ajralib turadi badiiy va texnik jihatdan birligi... «San'atning psixikaga, vosita mahoratiga, organizmdagi fiziologik jarayonlarga kompleks ta'siri san'at darsining yana bir xususiyatiga aylanib bormoqda. Va oxirgi farqlovchi xususiyat bu asosan mehnatning kollektiv shakli. »

Musiqa darslarining asosiy printsiplari - san'at darslari haqida mulohaza yuritib, ko'plab mualliflar musiqaning maktab mavzulariga rasmiy ravishda tegishli bo'lishi va asosiy o'qitish usullarining bir xil rasmiy umumiyligi musiqani faqat umumiyl didaktikaga asoslangan holda o'qitish uchun jiddiy sabab bo'lishi mumkin emas degan fikrga kelishmoqda. maktabda o'qitish uchun "aloqa, konsolidatsiya, takrorlash va tekshirish"

uchun majburiy bo'lgan printsiplar. O. Apraksinaning printsiplarning "har bir predmetning xususiyatlariga mos ravishda" turli yo'llar bilan amalga oshirilishini ko'rsatishi bu pozitsiyaga konkretlik va ravshanlik keltirmaydi, chunki badiiy darsning alohida xususiyatlari (farqlari) bir qator e'tirozlarni keltirib chiqaradi.

Birinchidan, "asosiy xususiyat" - san'at darsi - bu musiqa nafaqat maktab predmeti sifatida, shu bilan birga musiqa san'at sifatida bu xususiyat emas, balki uning tabiat. Shuning uchun biz ilm-fan va san'at uchun umumiy idrok strategiyasi haqida va uning doirasida (ya'ni "hissiy va aql-idrokning birligi" sifatida bilish nazariyasi doirasida - falsafiy darajada), badiiy hissiyotlar kabi badiiy hissiyotlarning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida gaplashishimiz kerak. boshqa tabiat va shu sababli ilmiy va kundalikdan bir qator farqlar. Gap musiqiy ta'limda didaktikaning umume'tirof etilgan printsiplarini to'liq chiqarib tashlash haqida emas, balki musiqiy san'atni anglash xususiyatlarini hisobga olgan holda ularni maqbul talqin qilish haqida ketmoqda. Shuning uchun quyidagi savolga javob berish kerak: Musiqa darsining badiiy dars sifatida umumiy didaktik tamoyillari va ochib berilgan xususiyatlari qanday o'zaro ta'sir qiladi?

90-yillarda jamiyatning keskin o'zgargan ijtimoiy asoslari bilan bog'liq holda musiqiy ta'lim mazmunini yangilash masalasi paydo bo'ldi. Bu D.B.ning sheriklari va izdoshlariga aylandi. Kabalevskiy odatdagagi mакtab o'quv dasturining asl nusxasini qayta ko'rib chiqishga bir qator urinishlar qildi. Ushbu davrda musiqani mакtab predmeti sifatida o'qitish yondashuvi tarafdarları yangi dasturlar bilan chiqishib, an'anaviy g'oyalarni himoya qilishni va rivojlantirishni davom ettirdilar, ammo, ular aytganidek, "zamon ruhini" inobatga oldilar. Dasturning yangi versiyalari uchun bu xarakterli bo'ldi: uning kontseptual qismini buzilmasdan qoldirish, repertuarni qayta ko'rib chiqish va rad etish uslubiy ishlanmalar, lekin asosiy uslubiy pozitsiyalarni saqlab qolish bilan.

Bu borada qiziqishni Yu.B. tahrir qilgan "Musiqa 1-8 sinflar" dasturlari uyg'otmoqda. Aliev, "Musiqa 1-3, 5-8 sinflar" tahriri E.B. Abdullina, "1-4 musiqa sinflari" G.S. Rigina va boshqalar. 90-yillarda nashr etilgan ba'zi mualliflik dasturlari D. Kabalevskiy, B. Nemenskiy, L. Predtechenskaya, B. Yusov tomonidan badiiy ta'limning progressiv kontseptsiyalariga havolalar bilan boshlanadi, bu esa taniqli rus o'qituvchilari va o'qituvchilarining kontseptsiyalarini va dasturlarining dolzarbligini yana bir bor tasdiqlaydi.

So'nggi o'n yillikda turli xil faoliyat turlarini, san'atni bilishning turli usullarini birlashtirish jarayoni jadal rivojlanmoqda. Ushbu jarayonda san'atlarning murakkab o'zaro ta'siri g'oyalari (B. Yusov) alohida dolzarblikka ega bo'ladi. Masalan, uning dasturida "Musiqa (musiqiy va estetik tarbiya). 1-4 sinflar "tomonidan tuzilgan N.A. Terentyev va R.G. Shitikova musiqiy va estetik rivojlanish maqsadini shakllantirdi umumiy mакtab: "... Haqiqatning ijodiy bilishning har xil turlari sharoitida talabalarning badiiy madaniyatini shakllantirish va shaxsning ijodiy fazilatlarini optimallashtirish."

Ushbu dastur bog'liq bo'lган printsipga asoslanadi o'quv jarayonida turli xil san'at turlari integratsiyasining obrazli va tematik birligi: «... Butun estetik ta'lim tizimining tashkil etuvchi yadroси yaxlit badiiy idrok bo'lishi kerak, chunki bu tinglash, takror ishlab chiqarish va hukm qilish (hissiy va baholash bilan tushunish) jarayonini tavsiflovchi umumiy belgidir. Shu bilan birga, estetik tarbiyatagi mакtab darsi hayotni barcha boyligi va xilma-xilligi bilan anglash san'ati darsiga aylanadi. » Bizni qiziqtirgan muammo doirasida uning yangi istiqbolini - "hayotni anglash san'ati" darsini qayd etamiz.

Mualliflarning yana bir pozitsiyasi ayniqsa ahamiyatlidir: «... Sinfda o'rganish ob'ekti san'at bo'lishi kerak, ammo tor predmet-faoliyat yo'nalishidan tashqarida bo'lishi kerak. Malaka va bilim o'z-o'zidan maqsad bo'lmasligi kerak. Ular bolaning shaxsiyatini rivojlantirish uchun vosita va shartdir va san'at uning hayotining namoyon bo'lish shaklidir». "... Musiqa darslari san'at darslari, ijodkorlik darslari sifatida bolalarning yaxlit tafakkuri, tanlangan badiiy ehtiyojlari va qiziqishlari, ma'lum qadriyat yo'nalishlari va qarashlarini optimallashtirishga yordam berishi kerak.

"Ushbu munosabatlarning qiymati musiqa darsi tasvirining san'at darsining obrazi sifatida talqin qilinishi va ta'limni rivojlantirish nazariyasiga muvofiqligi bilan belgilanadi. Bu ma'naviy muloqotga va shaxsiy eksperimentlar asosida ijodiy anglash tajribasini asta-sekin toplash va ijodiy vazifalarni anglash va his qilish va uslubiy printsipga qaratilgan. hayot va san'at, san'at va hayot o'rtaсидаги dialektik munosabatlar, va boshqalar.

## **6-mavzu. Musiqa o'qitish jarayoni. Musiqa o'qitish prinsiplari va metodlari Reja:**

1. Musiqa o'qitish prinsiplari musiqiy-pedagogik jarayonining asosi va sifati.
2. Mashxur musiqa maktablar, buyuk pedagog, novator o'qituvchilaming o'qitish uslublari.
3. Musiqa o'qitish metodlari.

Musiqa madaniyati mashg'ulotlari pedagogikaning didaktik nazariyasi va prinsiplari asosida tuziladi. Mazkur prinsiplar musiqa rahbari hamda bola tomonidan bajariladigan barcha ta'lim asoslari - mashg'ulotlar mazmunining metodlari va mashg'ulotlarlaming tuzilishidagi asosiy talablar va uning yo'nalishlarini belgilab beradi. Mazkur prinsiplar asosan, o'quv materiallarini qo'llash, musiqa mashg'ulotlari (darslari) mazmuni va rejasini tuzish jarayonida qo'llanadi. Yuqoridagi qayd etilgan umumdidaktik prinsiplari bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, musiqa mashg'ulotiarini davlat ta'lim standartiga muvofiq milliy xususiyatlarini asos qilib musiqa faoliyati izchilligini ta'minlaydi.

«Musiqa madaniyati» darslarining didaktik prinsiplari bir necha turdan iborat:

### **1. Musiqa ta'limi va tarbiyasida tizimlilik. ilmiylik va davomiylilik prinsipi.**

Musiqa ta'limi va tarbiyasida tizimlilik, ilmiylik va davomiylilik prinsipi har bir mashg'ulotlarda o'zining tuzilishi va mazmuni bilan ilmiy asosda tashkil topishi lozim. Musiqa haqidagi bilimlar doyrsasi, musiqa ta'limi va tarbiyasining asosiy omilidir. Unda insoniyat yaratgan musiqaga oid qoidalar, xulosalar, umumlashgan musiqiy tajribalar o'z aksini topgan. Ulami o'zlashtirish - musiqa amaliyoti yo'lida bilim va ko'nikmalar hosil qilish ? demakdir. Mashg'ulotlar (darslar) jarayonida o'quv materiallarini boialarning ; bilim tajribasiga mosligi, bolalar ovozining rivqjlanish qonuniyatlarini hisobga olish, nota qonuniyatlarini to'g'ri o'rgatish, asoslarini bolalarning fikriy qobiliyatiga mos ravishda tahlil etish ashg'ulotlarining ilmiylik prinsiplarini tashkil etadi. Ilmiylikni, tizimliksiz amalga oshirish qiyin. Mashg'ulot (dars)larning barcha o'quv faoliyatini hamda keyingi mashg'ulot f

(dars)larning o'zaro mantiqiy bog'lanishi tizimlilik asosini tashkil etadi. Kuylash va tinglash uchun asarlarni bilim va malaka darajasiga ko'tarib, soddadan murakkabga, nomalumdan ma'lumga qarab o'zlashtirib borish prinsiplari muayyan tartibga mos bo'lib, tizimlilik demakdir. Mashg'ulotlarning har bir faoliyati o'z navbatida, har bir mashg'ulot, darslaming mantiqiy davomi bo'lib, pedagogik maqsadlarni tobora amalga oshirishi davomiylilik prinsipi demakdir.

Musiqa darslarida musiqiy bilimlarni o'zlashtirish mukammal o'ylangan va asoslangan tizim bo'yicha o'tilishi o'ta muhim ahamiyatga ega. Beriladigan bilimlar soddadan murakkabga qarab yo'naltirilgan bo'lmog'i darkor. Ushbu prinsipning buzilishi bolalarning o'quv materialini o'zlashtirishlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi, ularning musiqa madaniyati mashg'ulot (dars)lariga bo'lgan qiziqishlarini so'ndiradi. Musiqiy bilimlarni tushuntirishda musiqa rahbari (o'qituvchisi), awalo, o'tilgan mavzularga tayanmog'i lozim. Musiqa savodi, jumladan, musiqiy bilimlarni o'zlashtirish jarayonida beriladigan bilimlar aniq tizimga solingan bo'lmog'i kerak. Yangi tushuncha va bilimlar avval o'zlashtirilgan biiimlarga asoslangan bo'lishi, asta-sekin kengaytirilib va huqurlashtirib borilishi lozim. « ... oddiydan murakkabga va chuqurroqqa qarab borgan holda o'z didimizni mumtoz musiqaning eng yaxshi namunalari, zamonaviy kompozitorlarning eng yaxshi asarlari asosida tarbiyalashimiz kerak»

**(D. Shostakovich).** «Musiqa madaniyati»-darslarini tizimlilikka asoslangan holda tashkil etish, musiqiy bilimlarni o'zlashtirish va ko'nikma-malakalarni shakllantirish jarayonida bolalarda o'zlariga ishonch paydo qiladi, ruhlarini ko'taradi va musiqa mashg'ulotlarlariga bo'lgan qiziqishlarini orttiradi. Tizimlilik buzilsa, bolalar tez charchaydilar. mashg'ulotlarga nisbatan diqqat va qiziqishlari bo'shashib boradi, mashg'ulotlar materialini o'zlashtirish pasayib ketadi. Ta'linda izchillikka rioya qilish lozim, toki bugun olingan bilimlar kechagisini mustahkamlasin, ertaga o'rganiladiganiga zamin yaratsin. Shu ma'noda barcha guruhlarda musiqiy bilimlarni berish tizimi (mazmuni)ning tahlil qilish hamda uni tartibga solish katta ahamiyatga ega.

## **2. Mashg'ulot (darslarda bolalarni onglilik va faolligi prinsipi.**

Mazkur prinsip didaktikaning yetakchi prinsiplaridandir. Chunki, bilimni o'zlashtirish bolaning aqliy faoliyatiga asos bo'lgan bilish jarayoniga bog'liqdir. Musiqa idroki kishining hayotiy tajribasini boyitadi, real voqealarni badiiy his etib, bilish, fikrlash qobiliyatini o'stiradi. Mazkur malaka va ko'nikmaning shakllanishi bola ongingin uzoq rivqjlanish jarayonini talab etadi. Buning uchun, bolaning o'quv materiallarini ongli ravishda bilib o'zlashtirish bilim jarayonlarini faolligini vujudga keltirishi lozim. Ma'lum musiqa asarini kuylab yoki tinglab o'zlashtirish va undan badiiy-estetik, zavqlanib, idrok etishda, bolaning eng awalo, diqqat e'tiborini jalb eta bilish unda qiziqish uyg'ota bilish, onglilik va faollikni vujudga

keltiradi. Musiqani ongli idrok etish va o'z navbatida badiiy ohang va mantiqiy jihatdan xotirada turg'un saqlanishni talab etadi. Musiqa mashg'ulotlarida onglilik va faollik ayniqsa, vokal-xor malakalarini shakllantirilishi uchun zarurdir. Xor bo'lib qo'shiq kuylash, musiqa tinglash, musiqa savodi, faoliyatlarida ham onglilik va faollik musiqani nazariy va amaliy jihatlarini to'g'ri bilish va o'zlashtirishni osonlashtiradi.

## **3. Musiqa mashg'ulot (dars uarida ko'rgazmalilik prinsipi.**

Musiqa ta'limida ko'rgazmali idrok etish katta imkoniyatlarga egadir. Eslab qolishda ko'rgazmalilikning o'zi emas, balki uning nutq va amaliy faoliyat bilan biriktirilishi muhimdir. Shuning uchun ham boshlang'ich guruh bolalari Shaxsini shakllantirishda qo'llaniladigan musiqiy bilimlar ko'lami. mazmunini tanlashda mazkur pririsipga mosligiga alohida e'tibor qaratiladi. Ko'pincha ko'rgazmalilik prinsipini o'quv-bilish faoliyatidagi jonli mushohada va mavhum tafakkurning uzviy bog'liqligini ta'kidlab. aniq va mavhumning birligi sifatida, ya'ni xususiydan-umumiyya, aniqdan mavhumga o'tish; boshqa hollarda esa mavhumdan muayyan tushuncha va faktlarga o'tish tarzida talqin qilinadi. **K.D.Ushinskiy** ko'rgazmalilik prinsipining pedagogik samarasini haqida shunday degan: «...bu shunday ta'-limki, u mavhum tasavvur va so'ziarga emas, balki bolalar bevosita idrok qiladigan ma'lum obrazlarga asoslanadi,...». Mazkur prinsip ko'rgazmali metodni tanlashda uning ilmiy-didaktik vazifalarini nazarda tutib, e'tiborni maqsadga muvotiqligiga qaratadi. Musiqa tarbiyasida musiqaning o'zi ko'rgazmali vositadir. Chunki, u

ko'z bilan emas, balki qulq bilan idrok etiladi. Musiqa tinglashda ham, asar tahlilida ham, ohang ko'rgazma sifatida chalib ko'rsatiladi. Musiqa rahbarining o'zi, nutqi, ijrosi ham asosiy ko'rgazma bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, turli tajriba-sinov materiallarini: metodik tavsiyalar, mashg'ulotlar ishlanmalari, sxema, jadvallar, boshqotirmalar, texnik vositalar, ko'rgazmali kartochkalar, grafik yozuvlar, rasmlar, nota yozuvlari, nazorat va boshqa didaktik materiallar va qo'llanmalarni tayyorlashda ham ushbu prinsipga suyaniladi.

## **4. O'quv materiallarining bolalar bilim va malakalariga mosligi prinsipi.**

Mazkur prinsip, dasturdan tanlab olingan o'quv materialari va mazkuf metodik materiallar asosida mashg'ulotlar mazmunini tuzish jarayonida qo'llaniladi. Bunda har bir guruhning umumiyl bilim va malaka darajasi hisobiga olinishi shart. Dastur asosida har bir guruhning bilim va malakalari hisobiga olingan holda, musiqa mashg'ulotlarining

yillik kalendar-mavzuli rejasi tuziladi. Kalendar-mavzuli ish rejasining tuzganda, uning mazmunida bolaiarning yosh xususiyati, musiqiy o'quvi, yangi qo'shiqlar, musiqa tinglash uchun asarlar, musiqa savodidagi o'quv materiallari, mashg'ulotlar faoliyatları hisobga olinadi.

### **5. Musiqa mashg'ulot (dars)larida bilim va malakalarining mustahkamligi prinsipi.**

Mazkur prinsipni amalga oshirishning eng asosiy sharti, yuqorida bayon etilgan to'rtta prinsipga jiddiy amal qilishdan iboratdir. **Birinchidan**, bilim va malakalarining chuqurligi, mustahkamligi va hayotiyligini ta'minlash lozim, ya'ni mazkur asarni va uning ijro uslubini, madaniy hayotimiz uchun zamr ekanligi haqida bolalarda ishonch hosil qilinishi lozim. **Ikkinchidan**, asarlarni tanlashda quyidagilarga amal qilish kerak:

**a)** Asarning bolalarni badiiy va axloqiy tarbiyasi uchun mosligi.

**b)** Musiqa ta'liming xususiyati.

**s)** Guruhdagi barcha bolalarni mazkur asarga qiziqtira olish va to'la o'zlashtirishga erishish. **Uchinchidan**, mashg'ulotlarda olinadigan bilimlar doyrsasi va malakalarini amaliyotda takrorlash va mustahkamlash. Masalan: qo'shiqlarni jumlalarga bo'lib o'rgatish va keying! mashg'ulotlarda mustahkamlab takrorlash.

To'rtinchidan- musiqa mashg'ulot (dars)larida har bir yangi- bilim elementi mashg'ulotlar faoliyatida to'Iiq o'zlashtiriladi va keyingi mashg'ulot (dars)larda keng qo'llanilib, doimiy bilimga aylantiriladi.

### **6. Ta'lim va tarbiyaning birligi prinsipi.**

Maktab bolalariga ta'lim berish bilan birga tarbiyalash, ya'ni ularning aqliy va axloqiy shakllanishlarini bir butunlikda amalga oshirish zarur. Musiqa mashg'ulotlari bolalarga musiqiy bilimlami berish bilan birga ularning axloqiy sifatlarini ham shakllantirib boradi. qanday faoliyat turi bo'lmasin, xoh musiqa tinglash, xoh qo'shiq kuylash, xoh musiqa savodi, xoh musiqa ostida ritmik harakatlar bajarish va musiqiy asboblarda jo'r bo'lish – bularning barchasi bolalaming axloqiy fazilatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, musiqiy did, musiqiy qobiliyat, musiqiy tafakkur, musiqiy idrok, musiqiy dunyoqarash va musiqa madaniyatini shakllantiradi.

**H.N.Nurmatov** bolalarni musiqiy-estetik tarbiyalashming quiay shartsharoitlari sifatida quyidagilarni tavsiya etadi:

- darslarning maqsadga yo'naltirilganligi (estetik tarbiya borasida);
- musiqa darslarining aniq tuzilishi va o'tilayotgan materialga muvofiqligi;
- o'rgatiladigan materialni to'g'ri tanlash (katta bo'imagan, lekin yorqin asarlar) va ta'limga mos usul va uslublarni tanlash;
- musiqa o'qituvchisining har bir sinf (guruh) va ?ar bir bolaning o'ziga xos xususiyatlarini bilishi;
- musiqa musiqa o'qituvchisining maxsus yo'naltirilgan ishi bolalaming musiqiy-estetik tarbiyasining asosi sifatida bo'lishi;
- musiqa o'qituvchisining bolalarga musiqiy-estetik tarbiya berishida uzviylik va tizimlilikka erishish;
- butun dars (mashg'ulot)lar davomida musiqa o'qituvchisi tomonidan ma'lum bir psixologik muhitaing yaratilishi;

- estetik xarakterdagи kechinmalarni hosil qilishi;
- musiqa o'qituvchisining estetik, metodik, psixologik va pedagogic jihatdan tayyor bo'lishi;
- ota-onalaming bolalari estetik didi, qiziqishi va hissiyotlariga e'tibor berishi.

## **7. Musiqa ta'limga tabaqlashtirilgan tarzda vondashish prinsipi.**

Bolalaming qobiliyati, imkoniyatlariga muvofiq ravishda musiqaga qiziqishlarini oshirish va musiqa bilan Shug'ullanishning o'ziga xos yo'llarini tanlash, ularning musiqiy didi, musiqiy idroki, musiqiy dunyoqarashi va musiqiy madaniyatlari shakllanishini ta'minlashda muhim o'rinni tutadi. Bolalaming bilim olishga bo'lgan ehtiyojlarini yanada to'laroq qondirishga yo'naltirilgan didaktik choralardan yana biri musiqa ta'limi mazmunini tabaqlashtirishdir. Tabaqlashtirilgan yondashuv asosida bolalar musiqiy bilimlarning uzviyligini ta'minlash uchun bosqichlararo bog'lanishga oid amaliy topshiriqlarni bajarishda turli tayyorgarlikka ega bo'lgan bolaiarning har birida mavjud bo'lgan o'quv imkoniyatlarini hisobga olgan holda o'z bilimlarini qo'llashlari va individual yutuqlarga erishishlarini ta'minlash ko'zda tutilishi lozim. Bu sohada musiqiy bilimlami o'zlashtirishda guruhdan tashqari olib

boriladigan ko'rinishlari ham o'qishni tabaqlashtirish uchun katta. imkoniyatlarni ochib beradi. **Q.M.Mamirov** musiqa ta'limini tabaqlashtirish uchun bolalarning bilim darajalarini tekshirib chiqib, ularni uch guruhga ajratadi:

1-guruhga - musiqani sevadigan, musiqashunos bo'lish istagidagi, mashg'ulotlarda o'ta faolligi bilan ajralib turuvchi bolalar.

2-guruhga - musiqiy rahbarning barcha talablarini o'z vaqtida bajaruvchi, lekin musiqiy to'garaklarga qatnashmaydigan, o'zlarini mustaqil vazifa bajarmaydigan, biroq mashg'ulotlar vazifalarini o'z vaqtida bajaradigan bolalar.

3-guruhga - uyida musiqaga kam e'tibor beriladigan, berilgan vazifalarni o'z vaqtida bajarmaydigan, past o'zlashtiruvchi bolalar.

**Q.M.Mamirov** bolalarni yana ovoz diapazoniga qarab ham tabaqlashtirish mumkinligini ko'rsatib bergan. U ovozga qarab tabaqlashtirishda faqat ovozni hisobga olmasdan, bolalar musiqiy bilimlarini qay darajada o'zlashtirganliklarini ham hisobga olishni ta'kidlab o'tgan. Musiqiy bilimlarni o'zlashtirishni ham boialarning Shaxsiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda amalga oshirish maqsadga muvofiq. Musiqiy bilimlar majmuasi (mazmuni) va metodikasini belgiiashda Shaxsiy xususiyatlarini inobatga olish ham muhim ta'limiy-tarbiyaviy shart hisoblanadi.

**8. Ta'lim jarayonida boialarning voshi va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish prinsipi.** Ushbu prinsip o'quv materialining mazmuni, uning hajmi, xarakteri u yoki bu guruh bolalarining jismoniy rivoji, umumiyligi tayyorgarlik saviyasi va imkoniyatlariga mos bo'lishini taqozo etadi. Ushbu prinsip musiqiy ta'limning ikki tomonini nazarda tutadi:

- 1) Musiqa ta'limida ma'lum guruh uchun belgilangan o'quv materiallarining xarakteri, mazmuni va hajmi shu guruh bolalarining yosh xususiyatlariga mos bo'lmo'i lozim;
- 2) Har bir guruh uchun belgilangan musiqiy bilim hajmi Shu guruh bolalarining saviyasiga mos bo'lishi kerak.

Bu prinsip musiqiy bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki musiqiy bilimlarni bolalarga sodda, lo'nda qilib tushuntirilmasa, ularni o'zlashtirish yaxshi natija bermaydi. Ko'pincha o'ziashtrilgan bilimlar sodda, o'zlashtiriimagan mavzular murakkabdek ko'rindi. Ta'larning sodda bo'lishi u yoki bu o'quv materialini ortiqcha urinmay tushunib olinishidir. Bolalar yaxshi tushungan, o'zlashtirgan bilimlarini yangi (murakkab) tushunchalar bilan aniq va ravshan bog'lash natijasida sodda vazifalarni bajarib, murakkab vazifalarni o'zlashtirishga hozirlanib boradilar. Musiqiy bilimlar tizimini shakllantirishda aynan shu prinsipga amal qilinadi.

### **9. Bilim beruvchi. tarbiyalovchi. rivojlantiruvchi ta'lim prinsipi.**

Musiqiy bilimlarni o'zlashtirish jarayonida bola shaxsim shakllantirishda bu prinsipdan maqsadga muvofiq, muntazam foydalanish lozim. U o'qitishning bilim beruvchi, tarbiyalovchi va rivojlantiruvchi vazifalarini chambarchas bog'liq holda olib borishga xizmat qiladi. O'qitishning bilim beruvchi vazifalari boialarning fakt, hodisa, tushuncha va xulosalarni o'zlashtirishlari zarurligini belgilasa, tarbiyalovchi vazifalari bola Shaxsining ma'lum e'tiqod hamda axloqiy sifatlarini shakllantirishga qaratilgan. Rivojlantiruvchi ta'lim esa musiqiy materialni o'rganish bolalarda qanday ko'nikma va malakalarni shakllantirishga umumiyligi va musiqiy tafakkurning qaysi jihatlarini rivojlantirish lozimligiga e'tibor beradi. Shuningdek, bilim berish va bolalarni har tomonlama kamol toptirish jarayonlari orasida uzluksiz aloqa o'rnatilishini talab qiladi. O'zlashtiriladigan bilimlar hosil qilinadigan ko'nikma va malakalar uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Yuqorida qayd qilingan mashg'ulot(dars)lar bolalarda mustaqil fikr yuritish, musiqiy materialni zamon va makonda tahlil qilish, musiqa asarlarini o'xshashlik va farq qiluvchi xususiyatlariga qarab taqqoslash, musiqiy faktlar o'rtasida mavjud bo'lgan sabab - oqibatli aloqani aniqlash kabi ko'nikma va malakalarni hosil qilishga ko'maklashadi. Musiqiy bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'quvchi shaxsini shakllantirishning mazmuni va metodikasi, shakl va usullari, bir so'z bilan aytganda uning pedagogik tizimini yaratish - musiqiy pedagogikaning hozirgi davrdagi eng dolzarb muammolaridan biri. Bu tizim musiqa san'atining vositalari orqali Shaxsni shakllantirishning umumiyligi pedagogik prinsiplaridan iborat bo'lmog'i lozim. Shuningdek, u ma'lum usullar va shakllarni hamda ilmiy-metodik tavsiyalarni o'zida mujassam etishi kerak. **E.B.Abdullin:** - «...musiqiy ta'limning mohiyati, maqsad va vazifalari, yo'nalishi, mazmim va jarayonining xarakterini ochib berishda prinsiplar asosiy o'rinni egallaydi», deydi. U musiqiy ta'limdagi bir nechta prinsiplarni yo'nalishlarga ajratadi:

1. Falsafiy-estetik yo'nalish (... musiqiy ta'limda insonparvarlik ?arashi: bola Shaxsini san'at bilan muloqotda o'z-o'zini baholashi...).
2. Musiqashunosiik yo'nalishi (... xalq, milliy va zamonaviy musiqa birligiga tayanish; musiqa janrlari va uiarning hayot bilan bog'liqligiga tayanish; tinglash ijro etish, ijod etish faoliyat asosi sifatida..).
3. Badiiy-psixologik yo'nalish (... musiqiy ta'limda ong va tafakkur birligiga tayanish...).
4. Badiiy-didaktik yo'nalish (... musiqiy ta'lim-tarbiya birligi, izchillik va tizimlilik, ilmiylik, musiqiy ta'lim natijalari mustahkamligi...).

5. Musiqiy pedagogik yo'naliш (... obrazlilik va butunlik, musiqiyedagogik maqsad va vositalar aloqadorligi, badiiylik va texnologiya birligi...).

Ayni vaqtda shuni ta'kidlash joizki, bola shaxsini shakllantirishda amal qiladigan ilmiy asoslangan mazmun va metodika, shakl va usullar muayyan pedagogik prinsiplarga amal qilishi lozim. Bu prinsiplar ta'lim-tarbiyaning davr talabiga, ya'ni zamonaviy ijtimoiy buyurtmaga mosligi, pedagogic jarayonda ob'ektiv-sub'ektiv jarayordarning uyg'uniigi, ta'lim-tarbiyada maqsad, mazmun, metod va vositalarning bir-biri bilan bog'liqligi kabi pedagogikaning umumiy qonuniyatlariga asoslanadi. Natijada, musiqiy bilimlami o'zlashtirish jarayonida bola shaxsini shakllantirish uchun quyidagi prinsiplar muhim va ular nafaqat musiqiy ta'lim strategiyasini, balki ta'lim va tarbiyaning boshqa masalalarini ham muvaffaqiyatli hal etish imkonini beradi. Musiqiy biiimlarga oid mazmunni belgilash, unga monand metodika, ta'lim shakli va usullarini tanlashda, pedagogik shart-sharoitlarini ishlab chiqishda bu prinsiplarga amal qilish pirovard pedagogik ijobjiy natijaning samarasidir.

#### **10. Nazariyaning amalivot bilan uzviyligini ta'minlash prinsipi.**

Musiqiy bilimlami o'zlashtirishda nazariy bilimlami amaliy faoliyat bilan bog'lagan holda mashg'ulotlar o'tish o'zlashtirish samaradorligini oshiradi.

Umuman, yuqorida qayd etilgan prinsiplar musiqiy bilimlami o'zlashtirishda, bolalaming shaxsiy xususiyatlarini shakllantirish va uni amaliyotga joriy qilish uchun metodik sharoitlarni ishlab chiqishda asos bo'ladi. Xulosa qilib aytganda, pedagogikaning umumdidaktik prinsiplari, musiqa madaniyati mashg'ulotlarlarida muhim ahamiyatga ega bo'lib, musiqani hayot bilan bog'lashda katta ahamiyat kasb etadi.

#### **Musiqa o'qitish metodlari**

Musiqa o'qitish metodikasi - bu pedagogikaning bir qismi hisoblanib, pedagogika fani sifatida tajribada sinalgan ishlami nazariy qismlarini - usul, uslub, vositalarini umumlashtirib, amaliyotda samarali natijalar bergen o'qitish metodlarini taqdim etadi. Ushbu metodlar o'quv-tarbiyaviy jarayonning tuzilishini umumlashtirib, unga kiruvchi alohida va bir butun vazifalarni hal etish bilan shug'ullanadi. «Metod» yunon tilidan olingan bo'lib, «yo'l», «usul» degan ma'nolami anglatadi. «Metodika» so'zi grekcha so'z bo'lib, «tadqiqot yo'li», «bilish usuli» degan ma'noni anglatadi va ta'lim-tarbiyaning alohida qismlari bo'lib hisoblanadi, ularning yig'indisi musiqa o'qitish metodlari deyiladi. Musiqaning o'qitish metodlari deganda, maktab bolalarining bilim, mahorat va malakalarini egallashda, ularning

ijodiy qobiliyatlarini rivqjlantirishda va dunyoqarashini tarkib toptirishda musiqa rahbarilaming qo'llagan ish usullari tushuniladi. Metodika asosan, Pedagogika, psixologiya, estetika va san'atShunoslikning tadqiqot natijalariga asoslanadi. U musiqa o'qitishning qonun-qoidalarini ta'riflab beradi, kelajak yosh avlodni tarbiyalashda qo'llanadigan zamonaviy metodlami belgilaydi. Metodika, ta'lim-tarbiya jarayonida musiqa rahbarining bolalar bilan ishslash usullarining, mazmunini anglatadi. Musiqa o'qitish metodikasi musiqa rahbaridan iste'dod, qobiliyatlar va ishtiyoqlar mavjud bo'lishini talab etadi, chunki, san'at pedagogikasi mashaqqatli va juda mas'uliyatli

sohadir. Musiqani o'qitish metodikasi, yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, musiqa mashg'ulotlarining tashkil etish usullari va yo'llarini o'rgatadi. Hozirgi kunda musiqa o'qitish metodikasi birdaniga kelib shakllangan fan emas, balki bunga qadar mazkur fanni shakllanishi ijodiy va murakkab taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan. Respublikamizda musiqa o'qitish etodikasini shakllantMshda mahalliy olimlar, metodistlar, tajribali musiqa rahbarilarning qator izlanishlari, o'quv qo'llanmalarining ahamiyati kata bo'ladi. Pedagogikaning metodika sohasidagi so'nggi yutuqlari talabalarni pedagogika faoliyatiga tayyorlash, ularni metodik bilim va mahoratlar bilan qurollantirish, musiqa o'qitish metodikasini bu maqsadga erishish uchun amaliy mashg'ulotlar mobaynida uzoq mehnat qilishni talab etadi. Ma'lumki, maktabgacha ta'lim muassasalarda bolaiarning yosh fiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda, ko'nikma va malakalariga muvofiq musiqa o'qitish metodikasi qo'llaniladi. Bu erda ta'lim usuli, o'quv materiallarining (o'quv reja, dastur, darslik) ta'lim prinsiplari, o'quv-tarbiyaviy ishlarning umumiyligi maqsad va vazifalari eng muhim ahamiyatga egadir. Demak, musiqa o'qitish metodikasi talabalarning musiqa san'atiga o'rgatislming mazmuni, vazifalari, metodlarini o'rgatuvchi va o'quv jarayonlarini tashkil etuvchi shakl va yo'llarini tadbiq etuvchi fandir. Musiqa o'qitish metodikasi vazifalarini amalga oshirishda, musiqa o'qitishning qator metodlari bilan birgalikda, pedagogikaning amaliy yo'nalishini unumli metodlar egallab, musiqa mashg'ulotlarida qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Musiqa o'qitish metodikasi vazifalarini amalga oshirishda, musiqa mashg'ulotlarida o'qitishning unumli metodlaridan unumli foydalanishga bog'liq. Yetuk olimlarimizning tadqiqotlarida maktab musiqa o'qituvchisining shaxsiyati va unga bo'lgan kasbiy talablar va bolalar munosabatini, xususiy metodlardan foydalanish jarayonida hal qilish lozimligini ilmiy asosda ta'riflab berganlar. Unumli metod - biror bir fanning amaliy va ijodiy ishlari mazmunini va mavzusini keng yoritib berish va mustahkamlashda, musiqa rahbari va bola faoliyatida o'zaro aloqadorligini va bolalarni bilish jarayonida izlanishga undovchi metoddir. Unumli metodlar o'qitish faoliyati va maqsadiga qarab to'rtga bo'linadi:

- 1. Mashg'ulot (dars)larning musiqiy umumlashtiruvchi metodi.**
  2. O'tilajak mashg'ulot(darslar)ga oldindan «yugurib», bog'lab o'tish va ilgari o'tilganlarga qaytish metodi.
  3. Mashg'ulot (dars)lar mazmunining emotsional dramaturgiyasi metodi.
  4. Mashg'ulot (dars)larning pedagogik jihatdan kuzatilishi va bilimlarning baholanishi metodi.
- Endi har bir metodni alohida ko'rib chiqamiz.
- 1. Mashg'ulot (dars)larni musiqiy umumlashtiruvchi metodi yetakchi metodlardan biri bo'lib, bolalarni musiqa idroki, mantiqiy badiiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgandir:**
    - a) Musiqa rahbari (o'qituvchisi) mashg'ulot (dars)larda hal qilinishi lozim bo'lgan konkret vazifalarni vujudga keltiradi;
    - b) Musiqa rahbari (o'qituvchisi) va bola o'zaro hamkorlikda masalani echadi;
    - v) Bolalar tomonidan yakuniy xulosalar chiqariladi.

2. Oldinga «yugurib o'tish», ya'ni ilgari o'tilgan materialdan foydalanib, bolalarni yangi material o'zlashtirishga tayyorligini sinab ko'rish va bunda oldin egallagan bilimlarga suyanish uchun foydalaniladi.

3. Emotsional dramaturgiya metodi bilan mashg'ulotlarning mantiqiy yaxlitligiga erishiladi.

Bunda chorak mavzusi asosida mashg'ulotlar rejasi uchun asarlar tanlanadi. Tanlangan mavzular ham maqsadga muvofiq bo'lib, boshlanishi va yakunlanishiga bog'liqdir. Musiqa rahbari mashg'ulotlarni ijrochilik mahorati, so'z ustaligi bilan qiziqarli qilib o'tishi kerak va bolalarni mashg'ulotlarga faol qiziqtirib, mashg'ulotlarning emotsiyal dramaturgiyasini, ya'ni avjiga erishishi lozim. Musiqa madaniyati o'qituvchisi maktabda musiqa darslaridan tashqari konsertlar, badiiy kechalar, uchrashuvlar o'tkazishi talab etiladi. Mashg'ulot (dars)larni pedagogik kuzatilishi va bilimlami baholash maqsadga qarab bir necha turlarga bo'linadi:

a) Bolalarni bilish faoliyatini tashkil etuvchi va amalga oshiruvchi turi.

b) Bilim faoliyatini rag'batlantirish va tanbehlash talablarini qo'yish.

v) O'qish, bilish faoliyatini samaradorligini boshqarish va nazorat qilish.

Baholashda shunday ehtiyyotkor bo'lish kerakki, bolalaming kayfiyati tushib ketmasin, mashg'ulotlarga, qo'shiq kuylashga qiziqishi so'nmasin. Rag'batlantirishda esa, aksincha. Musiqa rahbari va bola munosabatlari me'yordan chiqib ketmasligi kerak. Balki, rag'batlantirish, guruhda boshqa bolalarga namuna bo'lib xizmat qilsin va ular odobli, aqlli bo'lishga intilsinlar.

Shunday qilib, musiqa o'qitishning xususiy metodlaridan tashqari boshqa turlari ham mavjud:

1. Musiqa o'qitishning og'zaki metodlari.

2. Ko'rgazmali o'qitish metodlari.

3. Amaliy o'qitish metodlari.

4.0'yin metodlari.

5. Taqqoslash metodlari..

6. Musiqiy o'quvi, musiqiy eshitish qobiliyati bo'sh bo'lgan bolalar bilan ishslash metodlari.

### **1. Musiqa o'qitishning og'zaki metodlari.**

Musiqa mashg'ulotlarida musiqa rahbarining so'z mahoratiga alohida talab qo'yiladi. Musiqa rahbari o'zining asar haqidagi badiiy kirish so'zi bilan bolalarni ajoyib va sehrli musiqa olamiga olib kiradi hamda qiziqarli hikoya" yoki suhbat yo'li bilan bolalar diqqatini jalb qilib, musiqani badiiy idrok etishlariga ehrishadi.

**Hikoya** - bu musiqa rahbarining musiqa asari haqida jonli, emotsiyal yorqin bayoni. hikoya qisqa, obrazli, jonli, qiziqarli bo'lib, uning maqsadi bolalarni asarni badiiy idrok etishga o'rgatish.

**Suhbat** - musiqa rahbari va bolalar orasidagi dialog shaklidagi faoliyatidan iborat bo'lib, bolalarni mustaqil fikrlashga undaydi. Ularning nutqini o'stiradi, fikriy faoliyatini kuchaytiradi, bilish qobiliyatini faollashtiradi hamda dunyoqarashini kengaytiradi.

Tushuntirish-ilmiy isbotlash metodi sifatida musiqa mashg'ulotlarida qo'llaniladi. Bu asosan, musiqa savodi faoliyatida qo'llaniladi.

### **2.Ko'rgazmali o'qitish metodlari.**

Ma'lumki, musiqa harakatlanuvchi kuy va garmonik tovushlaridan iborat bo'lgan san'atdir. Uni faqat eshitish organi orqali tinglab idrok etish mumkin. Ko'rgazmali o'qitishni esa, nota yozuvlarini, plakatlar, rasmlar, musiqa rahbarining so'zi, dirijyorlik ifodalari, raqs harakatlari, bolalar cholg'u asboblari, musiqani jonli va aniq ijrosi, 4exnik vositalaridan foydalaniladi. Demak, musiqaning jonli yangrashi mashg'ulotlarda asosiy ko'rgazma bo'lib xizmat qiladi.

Musiqa ta'limidagi ko'rgazmalilik turlari:

1. Tabiiy ko'rgazmalar (tabiatdan olingan).
2. Grafik ko'rgazmali qo'llanmalar (chizma, sxema, jadvallar).
3. Tasviriy ko'rgazmalar (suratlar, fotosurat, videofil'mlar).
4. Muayyan belgilarni ifodalaydigan ramziy ko'rgazmalar.
5. Eshittirishga doir ko'rgazmalar (grammplastinkalar, magnit lentalari, komp'yutering eshittirish moslamalari).

Musiqa ta'limida illyustraciya metodi asosan plakatlar, cholg'u asboblari, stend, chizmalar, kompozitorlarning suratlari, jadvallar kabilarni ko'rsatishni o'z ichiga olsa; namoyish etish metodlariga asl holidagi tabiiy ob'ektiarni ko'rsatish, mashg'ulotlar jarayonida esa texnik namoyish, ya'ni zamonaviy komp'yuter, axborot kommunikaciya tarmoqlari yordamida, kompakt disk elektron kitoblaridagi mavzularni ehkranda yoritish, mavzuga oid kino va diafil'mlar, audio va videomateriallar kiradi.

### **3. Amaliy o'qitish metodlari.**

Amaliy metodlar vositasida bolalar vokal-xor malakalarini, musiqaning tuzilishi hamda ifoda vositalarini tahlil etish, uning janr va shakllarini aniqlash va no'ta yozuvini o'rganish malaka-ko'nikmalarining shakllantirishi uchun foydalaniladi. Amaliy metodlar, vokal-xor malakalarini rivojlantirishda muhim vosita bo'lib hisoblanadi.

**4.O'yin metodi** - asosan boshlang'ich guruhlarda ko'proc yaxshi natija beradi. Yangi dastur asosida yaratilayotgan qo'llanma va mashg'ulotlarliklarda o'yin va uning eelementlari keng ioriy etiladi. Boshlang'ich guruh bolalari serharakat va o'yinga moyil bo'iadilar. Mashg'ulotlarda qo'llaniladigan musiqali o'yinlar boialarning musiqiy o'quvini o'stiradi, musiqiy qobiliyatinni rivojlantiradi, xotirasini mustahkamlaydi va musiqa mashg'ulotlariga qiziqish uyg'otadi.

### **5. Taqqoslash metodi.** Musiqa

mashg'ulotlari jarayonida taqqoslash metodi keng qo'llaniladi. U vokal-xor ishlarida musiqa rahbari, bolalar va gramyozuvdagi ijrolarini taqqosiashda musiqa asarining tahlili va janrlarini belgilashda keng qo'llaniladi. Masalan, raqs, marsh, janrlarining templarini, turli cholg'ulardagi ijrolar farqini aniqlashda foydalaniladi. .,

**6. Musiqa o'quvi, musiqiy eshitish qobiliyati bo'sh bo'lgan bolalar bilan ishjash metodi.** Musiqa o'quvi bo'sh bo'lgan bolalar bilan mashg'ulctlar jarayonida

differensial guruhlarga bo'lib va mashg'ulotlardan keyin vaqt ajratib, yakka (individual) tarzda ish olib boriasiadi. Differensial guruh - deganda boialarning musiqiy qobiliyati, o'quvi va ovoziga qarab tabaqalashtirish yoki guruhlarga bo'lish tushuniladi.

1-guruhgaga ovozi jarangli, yaxshi musiqiy qobiliyatga ega bo'lgan bolalar kiradi.

2-guruhgaga ovozi, musiqiy qobiliyati o'rtacha bo'lgan. ya'ni musiqa rahbarining ovoziga ergashib, tayanib kuylaydigan bolalar kiradi.

3-guruhgaga esa ovozi uncha yaxshi bo'lman, musiqiy qobiliyati bo'sh bo'lgan bolalar kiradi.

Musiqa mashg'ulotlari jarayonida bu bolalarni quyidagicha o'tkazish kerak: birinchi qatorga musiqa rahbarining ovoziga tushunolmaydiganlar, ikkinchi qatorga musiqiy o'quvi bo'sh, yaxshi mos qobiliyatga ega bo'lman bolalar, uchinchi qatorga qobiliyatli, jarangdor bo'lgan bolalar o'tiradilar. Bunda ikkinchi qatordagi bolalar ohanglarini atrofdagilardan eshitib ularning ovozlariga ergashib,

to'g'ri kuylashga harakat qiladilar. Shu uslub bilan bolalarni musiqiy o'quvini o'stirish mumkin. Musiqiy o'quvi bo'sh bolgan bolalar bilan, mashg'ulotlardan keyin alohida yakka tartibda Shug'ullanib, topshiriqlar beriladi va ovozlari soz

qo'shiqlar alohida o'rgatiladi.' Shu tariqa, bolalarda musiqaga **qiziq** qo'shiq kuylash, musiqa tinglash ishtiyooqi, musiqiy qobiliyat, musiqiy qo'shiq kuylash malakalari hosil bo'ladi.

## 7. Musiqa bilan ta'sir

**ko'rsatish metodi.** Bu metod musiqa tint faoliyatida qo'llaniladi. Bolalar musiqani turlicha tushunadilar. Mas **P.I.Chaykovskiyning «To'rgag»** kuyini tinglab, uni nomini bilmay turlicha fikr yuritadilar. Ayrimlari tabiat manzarasiga, boshqalari kuylashini, qolganlari esa boshqacha xarakter his etib aytadilar. Boshqalarida esa yaxshi kayfiyat tug'iladi. Shuning uchun musiqa rabf(o'qituvchisi) bolalarga asarni tushuntirib beradi. Bolalar diqqatini musiqaning ifoda vositalariga qaratadi. . ." Ular kuyllovchi qush obrazini yaratadilar. Bu musiqa bilan ta'sir qilish metodidir. Bolalarning musiqaga qiziqish, musiqa tinglashda taqqoslash o'rganish, kuylashda, raqsda, turli cholg'ular ijrosida o'rgatiladi. Mus

rahbari ushbu faoliyatami ketma-ket olib borganda aniq maqsadga erishish Musiqa o'qitish metodikasi fanining maqsadi ta'lim maqsadidan chiqib, musiqa madaniyati o'qituvchisini dars (mashg'ulot) berish jarayoni nazariy va amaliy tayyorlash. Bu maqsad quyidagi vazifalarni hal etish ko'zda tutadi.

1. Maktabda musiqa ta' limini va tarbiyasini mazmunini tashkil qilishni turli shakl va metodlari haqida asosiy ma'lumotlar berish.

2. Musiqa ta'limi va tarbiyasi sdhasidagi ilg'or tajribalar umumlashtirish.

3. Musiqa ta'limi va tarbiyasi jarayonida pedagogik amaliyot bo'yicha metodik dabiyotlarni mustaqil o'rganishga tayyorlash.

4. Musiqa asoslarining badiiy pedagogik tahlili metodikasi asosini bilis

5. Ilmiy tadqiqot ishlari masalalarini hamda bolalarni musiqa vositasi o'qitish va tarbiyalash masalalariga to'g'ri yondashuvni shakllantiri!

Musiqa o'qitish metodikasi musiqa rahbarining musiqa ta'limi kasb

mukammal bilguvchi musiqachi pedagogni tayyorlaydi. Musiqa o'qitish metodikasini o'zlashtirishda pedagogika, psixologiya, musiqiy pedagogika tarixi, musiqiy ta'lilda innovation texnologiyalar, musiqiy pedagogika va boshqa musiqiy, psixologik va pedagogik fanlarga asoslanadi. Ajdodlarimiz barkamol insonni voyaga yetkazishda badiiy estetik tarbiya vositalari, jumladan, musiqa san'atining ahamiyatini chuqur anglab, yoshlamaing ichki : dunyosini boyitishga, ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish va kamol toptirishga uning ta'siri jihatlariga diqqat-e'tibor bilan qarashgan. Musiqani kattalar, bolalar va qariyalar ham sevib tingiashadi. Xoh u mumtoz bo'lsin, xoh xalq musiqasi, xoh yengil yoki vazmin musiqa bo'lsin, barchamiz uni bajonudil tinglaymiz. Lekin musiqiy yo'naliishlarni anglash, ayniqsa bolalarga juda qiyin. hayotda hamma ham musiqa tilini tushunavermaydi. Ko'pchilik mumtoz musiqamizga nisbatan o'ta befarq. Buning sababi bolalikda musiqiy tarbiyaga kerakli e'tibor berilmaganligidadir.

## **7-mavzu. Musiqa o'qitish shakllari, musiqa tarbiyasi prinsiplari va metodlari**

**Reja:**

1. Dars-musiqani o'qitish asosiy shakli va uning talablari.
2. Musiqiy tarbiyaning jamiyatda tutgan o'mi va psixo-fiziologik asoslari.
3. Musiqa tarbiyasi metodlari haqida tushuncha ulaming maqsadi va vazifalari.

Musiqa madaniyati o'quv predmeti o'quvchilarining ma'naviy, badiiy va axloqiy madaniyatini shakllantirishga, milliy g'urur va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga mahorat, nafosat, badiiy didni o'stirishga, fikr doirasini kengaytirishga, mustaqillik va tashabbuskorlikni tarbiyalashga xizmat qiladi. Musiqa madaniyati o'quv predmeti umumiyligi ta'lim maktablarida o'qitiladigan barcha o'quv predmetlari, jumladan adabiyot, tasviriy san'at, jismoniy tarbiya, mehnat va boshqa fanlar bilan bog'lanadi. Barcha o'quv fanlari qatori musiqiy ta'lilda ham davlat ta'lim standartining joriy etilishi milliy musiqiy meroslardan to'laqonli foydalanish imkonini beradi. Bular ommaviy xalq kuy va qo'shiqlarida, xonanda va sozandalarning ijodiy faoliyatları, maqom, shashmaqom, dostonlar hamda bugungi zamонавиы musiqiy faoliyatda o'z aksini topadi. Musiqa san'atining bu kabi imkoniyatlari yangi avlodni tarbiyalashda, ularning barkamol bo'lib yetishishlarida o'ziga xos va takrorlanmas manba bo'lib xizmat qiladi. Musiqa ta'limidan davlat ta'lim standartlari asosida yangi ta'lim mazmuni o'quvchilarining musiqiy bilim va malakalari bilan birga ularda kuzatuvchanlik, xotirani

mustahkamlash, obrazli tasavvur qilish, ijodkorlik, mustaqillik, tashabbuskorlik, badiiy va musiqiy did kabi xislatlarni rivojlantirishni ta'minlaydi. O'quvchilarning musiqiy-estetik rivojlanishlari uchun o'qituvchi o'zining ish faoliyatida sidqidil tayyorlanib, darslarni yuksak metodik darajada o'tilishini ta'minlashi lozim. Zero, dars o'qituvchidan katta irodaviy kuch, izlanish, hozirjavoblik hamda turli pedagogik vaziyatlarga tezda munosabat bildirishini talab etadi. Samarasiz, omadsiz dars, kamchiliklar uzoq vaqt o'qituvchiga orom, halovat bermaydi, ortga nazar solib uning sabablarini qidirishga ehtiyoj sezadi. Musiqa madaniyati darsi – mактабда мусиқа тарбијасини ташкіл етішнің асосиғы шақлідір. Мусиқи тоғаралар, факультатив машғұлттар һам амалийтада бο'лса-да, дарс hech qachon o'z ahamiyatini yuqotmaydi. Musiqa madaniyati darslari musiqiy faoliyatning turli shakllarini o'z ichiga oladi. Bular- ommaviy jamoaviy aytim, musiqiy ritmik harakatlarni bajarish, musiqa tinglash, savodxonlik, musiqa ijodkorligi, bolalar cholg'u asboblarida chalish faoliyatidir. Dars musiqa tarbiyasi sistemasida етакчи омил hisoblanadi, zeroki, unda bolalar yalpi tarzda qamrab olinadi. Musiqa darslari boshqa fanlar darslaridan o'zining badiylici, qiziqlarliligi va bolalarda ko'proq ijodiy zavq, emotsiyonal tuyg'ular va obrazli kechinmalar uyg'otishi bilan ajralib turadi. Musiqa, ayniqsa, bolalarning aqliy va axloqiy rivojlanishiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Zero, «Musiqa tarbiyasisiz bolalarga aqliy tarbiyani etarli darajada bajarib bo'lmaydi». Shuning uchun musiqa darslari, eng avvalo, tarbiya darsidir. Badiiy tarbiya uning mantiqiy mazmunidir. Shu boisdan predmetimiz «musiqa o'qitish metodikasi» emas, balki «musiqa tarbiyasi metodikasi» deb ataladi. Musiqa darslari quyidagi spetsifik xususiyatlari bilan farq qiladi:

Birinchidan, u muciqa tarixi, nazariyasi va ijrochiligiga doir turli namunalardan-xor mashg'ulotlari, musiqa savodi, musiqa tinglash, musiqa tahlili va adabiyoti, bolalar cholg'u asboblarida chalish, ritmik harakatlar bajarish elementlaridan iboratdir. Shuning uchun u aralash dars tipiga kiradi. Ikkinchidan, musiqa boshqa san'at turlaridan o'zining ifoda vositalari, «tili» bilan farq qiladi. Agar badiiy adabiyot, badiiy so'z , tasviriy san'at ranglar va grafik chiziqlar, raqs, badiiy harakatlar bilan ifodalansa, musiqa musiqiy tovushlarda vujudga kelgan ohang vositasida ifodalansadi. Agar tasviriy san'at va haykaltaroshlik asarlarini ko'rish orqali, badiiy adabiyotni o'qish va eshitish vositasida, kino va teatrni ko'rish va eshitish orqali idrok etsak, musiqani faqatgina diqqat bilan tinglabgina idrok eta olamiz. Buning uchun hatto ko'zi ojiz kishilardan ham yetuk musiqa ijrochilarining yetishib chiqishlari bejiz emas. «Faqat musiqiy quloqgina musiqaviy hissiyotni uyg'ota oladi». Musiqa aniq vaqt o'lchovi bilan bog'layotgan san'atdir. Ijro etilayotgan musiqa tempiga sozlanib, uning har bir elementini ilib olib tinglamasa, asar mukammal idrok etilmaydi. Shuning uchun klassik asarlarni ham bir qayta tinglaganda uning yangi badiiy qirralarini his etamiz. Musiqa vositasida ifodalananadigan his-tuyg'ularni so'z bilan ifodalash qiyin. «Qachonki so'z ojizlik qilsa, musiqa yordamga keladi». Uchinchidan, musiqa bolalarga faol emotsiyonal ta'sir ko'rsatadi, quvontiradi, ijobiy kechinmalar uyg'otadi. Yahshi, mazmunli, qiziqlarli muciqa darsidan bolalar quvnoq, xursand bo'lib, xordiq chiqaradilar.

Demak, agar musiqa darsi oxirgi darsda qo'yilgan bo'lganda ham, bolalar hordiq chiqarib, charchoqlari tarqaladi. Bugungi kunda musiqa fanining yangi sohasi-funktsional musiqa orqali musiqaning kishi psixikasi va fiziologiyasiga ta'sirini o'rganilishi buning boisidir. Xulosa, musiqa darsi o'zining aralash dars tipi (tuzilmasiga ega), ifoda vositasi (tili) va aktiv psixologik ta'siri bilan farq qiladi. Demak, musiqa darslari bolalarning shaxsiyati va dunyoqarashining shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Musiqa madaniyati darslar uchun alohida emotsional muhit xarakterlidir. Bu tabiiy hol, albatta, chunki musiqa «hissiyotlar tili». Musiqa to'lqinlanadir, bolalarning ruxiyatiga ta'sir ko'rsatib, muayyan kayfiyat uyg'otadi. SHakllangan badiiy taassurotlar o'qituvchi ta'sirida nafaqat ifodali ijro, balki «so'z» san'ati, yuz ifodasi, turli harakatlar yordamida yanada kuchaytiriladi. O'quvchilar diqqati yangrayotgan musiqaga jalb etilib, ularning xayoloti rivojlantiriladi. Musiqiy obrazlar olamiga kirishishlari, ifodalilikni aniq his etishlariga erishiladi. Umumiy jihatlariga qaramay har bir dars o'ziga xos va takrorlanmasligi bilan farq ham qiladi. Ma'lumki, hoxlagan ishning yahshi tashkil etilishi uning yarim yutug'i va bu to'liq ma'noda musiqa madaniyati darslariga ham taaluqlidir. Darsda barchasi o'ylangan bo'lishi kerak- maqsad va vazifalar, mazmun va tuzilma, vosita hamda metodlar. Aks holda hech qanday ijobiy natijalarga erishib bo'lmaydi. Darsga tayyorgarlik o'qituvchining pedagogik malakasi, mahoratiga bog'liq. Bu esa musiqa materialining tarbiyaviy, ta'limiy va rivojlantiruvchi imkoniyatlarini, shuningdek ularni tadbiq etish yo'llarini ta'minlaydi. Darhaqiqat, musiqiy tarbiya vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish- asarni chuqur o'ganishni talab etadi. Ularni tanlab olish esa o'quvchilar musiqiy tayyorgarligi hamda yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq sanaladi. Dars mazmunida turli xil tabiatdagi, kayfiyatdagi musiqa asarlari bo'ladi. Ularning yaxlitligini ta'minlash uchun dars tuzilmasini aniqlab olish zarur. Bunda turli musiqiy faoliyatlarning birin-ketinligiga e'tibor berish muhim ahamiyat kasb etadi. Darsning emotsional tuzilmasini o'ylab o'qituvchi bir asardan boshqasiga o'tish jarayoniga o'quvchilardagi muhim hissiy holatni saqlab qolishi va ularning diqqatini jalb etish usullarini tadbiq etishi lozim. Shuningdek, dars tuzilmasini tuzishda bolalar jismoniy, aqliy va emotsional holatlarini, sinfning o'ziga xosligini inobatga olish maqsadga muvofiq bo'lib hisoblanadi. Masalan, boshlang'ich sinflarda kichik yoshdagagi o'quvchilar diqqatini uzoq vaqt barqaror saqlay olishmaydi, shu bois ularning faoliyatini o'z vaqtida almashtirib turish maqsadga muvofiq. Bu bolalarning qiziqishlarini so'nishidan saqlaydi. Murakkab qo'shiqni, raqsni bir necha dars davomida o'rgatish samarali kechadi; murakkab musiqiy -ritmik harakatlar o'rganilishidan so'ng qo'shiq kuylashga o'tish maqsadga muvofiq emas. Shuningdek jadvalda musiqa darsining o'rnini ham, ya'ni o'sha kunda bu mashg'ulot nechanchi soatda o'tilishini ham hisobga olish lozim. Kunning so'ngi soat darslarida bolalarning charchab qolish holatlari ro'y beradi, shuning uchun turli hil ishlarni almashtirib, qiziqishni uyg'otuvchi metodlardan foydalanish tavsiya etiladi. Qaysi darsdan so'ng musiqa madaniyati mashg'uloti bo'lishi ham ahamiyat kasb etadi. Musiqa madaniyati mashg'ulotlari mehnat ta'limi va ayniqsa jismoniy tarbiya darslaridan keyin o'tiladigan bo'lsa, o'quvchilarni fikrlashga, idrok etishga undovchi faoliyatlardan

boshlash lozim. Har bir muayyan holatda o'qituvchi sinfning o'ziga xoslik jihatlarini, o'quvchilarning u yoki bu musiqiy faoliyatga qiziqishlarini, ularning tayyorgarlik darajalarini hisobga olishi maqsadga muvofiqdir.

Shunday qilib, to'liq shart-sharoitlar hisobga olingen dars tuzilmasini amalga oshirish uchun o'qituvchining ijodiy yondashuvi talab etiladi. Bu esa har bir darsni takrorlanmas bo'lishiga yordam beradi. Axir bir mashg'ulotdan ikkinchisigacha bo'lган davrda boshqa fanlar o'tilib, taassurotlar sayozlashishi mumkin. O'qituvchi hafta davomida musiqa darslarida yaxlit taassurotlar va qiziqishlarni saqlab qolishlariga erishmog'i kerak. Dars oldindan rejalahtirilsa, o'ylab qo'yilgan reja asosida bo'lmos'i, o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlik faoliyati doimiy jonli jarayon asosida amalga oshirilishi lozim. Biroq ayrim kutilmagan holatlar bo'lishi mumkin va muayyan har bir holatga maslahat berib bo'lmaydi. Ba'zan ko'zda tutilmagan holatlar yo'l- yo'lakay dars tuzilishida ham amalga oshirishga to'g'ri kelib qoladi. O'qituvchining kasb mahorati o'zini yo'qotmasdan har bir holatga tegishli xulosa chiqarishni taqozo etadi. Natijada dars maqsadiga erishilib, belgilangan tuzilmada amalga oshiriladi. Tajribali o'qituvchilar yaxlit dars tuzilmasiga alohida ahamiyat berishadi. Zero darsning turli elementlari: bosqichlari o'zaro uygun va bir-biri bilan bog'liq bo'ladi. Turli metodlar (asarni taqqoslash, muammoli izlanish, o'yin holatlari) asosida o'qituvchi bolalarni ijodiy topshiriqlar orqali faolligini oshiradi va istagan natijalarga erishishlariga harakat qiladi. Ma'lumki, zamonaviy musiqa madaniyati darslarining sifati o'quvchilar faolligi bilan belgilanadi. Faollik muammosi nafaqat darsning qiziqarli tuzilmasi, bolalarga qiziqishni shakllantiruvchi metodlarni qo'llash orqali hal etiladi. Ko'pincha o'qituvchining har bir o'quvchiga yakka-individual yondashuviga ham bog'liq bo'ladi. Shubhasiz, bu o'qituvchi oldidagi muhim vazifalardan biridir. O'qituvchi bolalar bilan hammasi bo'lib haftasida bir marotaba uchrashadi, musiqa madaniyati darsi sinf bilan keng ko'lamli ishlarni amalga oshirishni talab etadi. Shu bois, o'qituvchi o'z o'quvchilarini yahshi bilmog'i, ularning kuchli va zaif tomonlarini, qiziqish va ehtiyojlarini to'g'ri anglab, bolalar dunyosiga kirishib har bir o'quvchi imkoniyatlarini baholashi kerak. Darsda bevosita muloqot o'rnatishga harakat qilish, savollarga undovchi, so'rovli nigoh, yuz ifodasida bayon etish vosita va usullaridan keng foydalanish maqsadga muvofiq. Har bir musiqiy faoliyat bolalarga individual yondashish imkonini beradi. Ayniqsa, bu ikki, uch ovozli asarlarni o'rganishda bolalar musiqa cholg'u asboblarida jo'r bo'lish, o'quvchilar imkoniyatiga ko'ra ijodiy xarakterdagи topshiriqlar berishda va h.k.larda buni yaqqol kuzatish mumkin. Differentsial topshiriqlar o'quvchilarda qiziqish uyg'otadi, ularning muvaffaqiyatli bajarushi esa o'quvchilar musiqiy rivojlanishlarini faollashtiradi. Natijalarni baholash, toza kuylashga erishish yoki ritmik jo'rovozlikni bajarish orqali o'qituvchi bolalikda o'z-o'zini nazorat qilish hissini rivojlantiradi. Shuningdek, bolalarga individual yondashuv ularda jamoatchilik hissini ham tarbiyalaydi. Bolalarning bajariladigan ijodiy topshiriqlarning sifatiga mas'ullik oshadi. Bu esa barcha o'quvchilarga quvonch qiziqish tuyg'ularini uyg'otadi. Zamonaviy musiqa madaniyati darslarini maxsus jihozlangan sharoitsiz amalga oshirish murakkab. Musiqa xonasining estetik jihozlanishi bolalarga ruh bag'ishlab, darsga o'ziga

xos kayfiyat uyg'otish kerak. Darsda bolalar musiqa cholg'u asboblari, texnik, ko'rgazmali vositalar juda ham muhim. Ularning sifatliligidan, o'z vaqtida tayyorlanganligidan va unumli tadbiq etilishidan darsning muvaffaqiyatli o'tishi ta'minlanadi. Bugungi kunda o'qituvchi darslarda musiqa asarlarining turli ijrolarini (orquestr, ansambl ijrosida) sadolanishi texnik vosita, yozuvlarsiz tasavvur qilish qiyin. Bu vositalar o'quvchilarning har bir musiqa cholg'ularining jaranglashini va ovozning ifodaliliginu idrok etish tasavvurlarini kengaytiradi, Fonoxrestomatiya esa o'qituvchida qo'shiq o'rgatishni yanada qiziqarli qilishga yordam beradi. Gramezuvlarda jo'r qismlari, Bolalar xor jamoalarining ijrolari o'z aksini topgan. Magnitafonda o'qituvchi dars davomida qo'shiq ijrosini yozib olib, o'quvchilarning o'ziga qaytib eshitirishi va ijroga nisbatan bolalarning munosabat hamda baholarini berishni taklif etadi. Keyingi paytlarda musiqa darslarida turli hil ko'rgazmali vositalardan keng foydalanilmoqda. Bular illyustratsiya, turli tasviriy manzaralar va boshqalar. Bu esa darsda tasviriy san'at, so'z san'ati namunalaridan ham unumli foydalanishni nazarda tutadi. Musiqa madaniyati darslarida o'quvchilar musiqiy qobiliyatlarini rivojlantiruvchi ko'rgazmali vositalardan foydalanish muhim. Nota tablitsalari yordamida bolalarda nota asosida kuylash malakalari egallanadi. Qo'shiq kuylashni tezroq o'zlashtirilishiga erishiladi. Tovushlarni to'g'ri va toza kuylash, eslab qolishlariga yordam beradi. Darsda texnik va ko'rgazmali vositalarini tadbiq etish chuqur o'yangan bo'lishi kerak. Ulardan unumli foydalanish musiqa tarbiyasi vazifalarini hal etishda muhim rol o'ynashini ta'kidlash lozim. Shunday qilib, umumta'lim maktabida musiqa madaniyati darslariga puhta tayyorgarlik ko'rish va uni samarali o'tkazish o'qituvchidan doimo ijodiy yondashuvni, **kasbiy tajribalarni**, bilim, malaka va ko'nikmalarni faol tadbiq etishni taqozo etadi. O'qituvchi ijodining natijasi bo'lgan dars g'oyaviy-emotsional ta'sir kuchiga ega bo'lib, o'quvchi ichki dunyosini zabit etib, musiqa san'atiga qiziqish va ehtiyojni tarbiyalaydi. Musiqa madaniyati darslarining muvaffaqiyati savodxon, chuqur bilimli, o'z kasbiga fidoiy bo'lgan o'qituvchi shaxsiga bog'liq. Shu bois, musiqadan bilim va malakalari yetarli bo'limgan o'qituvchilarga musiqa darslarini mutaxassis mualliflardan zaruriy saboqlar olib, magnit yozuvlardan keng foydalanib, musiqa o'qitish jarayonida yangi pedagogik texnologiya usullaridan unumli foydalangan holda dars o'tishlari maslahat beriladi. Aks holda o'quvchilarning belgilangan dastur talablarini o'zlashtirishlari mushkullashib, musiqa madaniyati darslari oldiga qo'yiladigan talablarga erishilmay qoladi.

Maktabgacha yoshdagagi bolalar uchun musiqiy ta'limning maqsadi, vazifalari va mazmuni musiqa ta'limi usullarini tanlashni aniqlash. Yunon tilidan tarjima qilingan usul - yo'l, haqiqat sari harakat qilish, yo'l har qanday maqsadga erishish; fokuslar to'plami. An'anaviy ravishda pedagogikada usul erishish uchun narsalarni qilishning tartibli usuli sifatida aniqlanadi ta'lim maqsadlari. Usul quyidagi ususiyatlarni o'z ichiga oladi o'rganish yo'nalishi (maqsad), assimilyatsiya qilish usuli (ketma-ketlik harakatlar), sub'ektlarning o'zaro ta'sirining tabiatini (o'qitish va o'qitish). Musiqa pedagogikasida musiqa o'qitish metodikasi mavzu mazmunini o'zlashtirishni tashkil etish usullari sifatida qaraladi; ta'lim jarayonining maqsad va etakchi vazifalariga javob berish Musiqiy

ta'limning asosiy vazifalarining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda mактабгача yoshdagi bolalar, musiqiy ta'lim usullari va usullari sifatida belgilanadi qaratilgan o'qituvchi va bolalarning o'zaro bog'liq faoliyati usullari musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirish, musiqiy asoslarni shakllantirish madaniyat. Ushbu yondashuvlarni tahlil qilish asosida sohada usullarni aniqlash musiqa pedagogikasi, musiqa ta'limi metodlari bo'lishi mumkin o'qituvchi va bolaning o'zaro bog'liq harakatlari tizimi sifatida belgilanadi; musiqaning ma'naviy-axloqiy imkoniyatlarini o'zlashtirishga qaratilgan va musiqa ta'limi maqsadlariga erishish.

### VERBAL USULLAR

Suhbat musiqa pedagogikasida og'zaki usulning bir turi, bolaning tinglanganlarga hissiy munosabatini aniqlashga qaratilgan musiqiy asar yoki musiqiy asar mazmunining spetsifikatsiyasi ularni tinglashdan oldin ishlaydi. Odatda bolalar bilan suhbat quriladi savol va javoblar shakli. Suhbatni o'tkazishda saqlash tavsiya etiladi quyidagi savollar ketma-ketligi:

1. Musiqa qanday tuyg'ularni ifodalaydi? (Musiqaning hissiy mazmunini tavsiflash);
2. Musiqa nima deydi? (Musiqiy asar dasturi, uning tasviri daqiqalar);
3. Musiqa qanday aytadi? (Musiqaning ifodali vositalari va ularning tahlili musiqiy obraz yaratishdagi roli).

Hikoya, qoida tariqasida, kichik va o'rta yoshdagi bolalar bilan ishlashda qo'llaniladi musiqiy dasturni idrok etishdan oldin mактабгача yosh asarlar va syujetli musiqiy o'yinlarni o'tkazish. Bu og'zaki uslubning bir turi assotsiativ va ijodiy aktuallashtiradi bolalarni fikrlash, ularning tasavvurlarini rivojlantiradi, bolaning tushunchasini chuqurlashtiradi musiqiy tasvir Og'zaki usulning bir turi sifatida tushuntirish jarayonda qo'llaniladi yangi musiqa bilan tanishtirish. Tushuntirish bo'lishi kerak ixcham, aniq va ixcham, bu esa oldida turgan vazifani tushunishga yordam beradi musiqa bilan muloqot qilish jarayonida bolaning oldida. Tushuntirish mumkin muayyan harakatlarning namoyishi bilan birga bo'lishi mumkin. Og'zaki usulning turlarini qo'llashda buni esga olish kerak ta'lim jarayonini haddan tashqari og'zakilashtirishga olib kelishi mumkin aloqa vositasi sifatida musiqaning o'ziga xos qiymatini kamaytirish va ahamiyatini kamaytirish bolaning haqiqiy musiqiy faoliyati.

### MUSIQIК-ESTETIK TARBIYA USULLARI

Musiqiy uslubda umumiy didaktik usullar bilan bir qatorda estetik tufayli bolalarni tarbiyalash, usullar qo'llaniladi musiqa san'atining mohiyati va intonatsion tabiatini. N. A. Vetlugina, musiqiy va estetikaning vazifalari va mohiyatiga asoslanib. ta'lim to'rtta pedagogik usulni ishlab chiqdi:

- Empatiya va emotsiyonal javob berishni rag'batlantirish usuli bolaning hissiy va hissiy tajribasini boyitishga qaratilgan atrofdagi dunyoda o'zallik;
- Estetik idrokni shakllantirish jarayonida ishontirish usuli;
- Amaliy harakatlarda mashq qilish usuli;
- Ijodiy va amaliylikka undaydigan vaziyatlarni qidirish usuli harakatlar.

## MUSIQA MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH USULLARI

O. P. Radinova, maktabgacha yoshdagи bolalarning musiqiy madaniyatini o'rganib, ta'kidlaydi uni shakllantirishning quyidagi usullari:

- Asarlarni kontrastli taqqoslash usuli (ichida kontrast bir janr, bir kayfiyat, bir xil yoki bilan asarlar orasida o'xshash nomlar va boshqalar);
- Musiqa tovushining tabiatiga singdirish, faollashtirish usuli musiqiy asarni tushunishga qaratilgan bolaning ijodiy ko'rinishlari tasvir.

O'zlashtirish turlari:

- motor-motor (harakatdagi musiqa tabiatini uzatish);
- taktil (musiqa tabiatiga ko'ra teginish);
- og'zaki (musiqa haqidagi bilimlarni og'zaki uzatish);
- vokal (qo'shiq kuylash);
- mimik (musiqa tabiatini yuz ifodalarida uzatish);
- tembr-instrumental (musiqiy asarlar orkestri);
- intonatsiya (musiqaning hissiy rangini aniqlash uning intonatsion tilining xilma-xilligi);
- rang ("rang - kayfiyat" texnikasi asosida);
- poliartistik (har xil turdagи asarlarni taqqoslash asosida). san'at).

## 8-mavzu. Musiqa vositalari bilan axloqiy, ma'naviy, mehnat, jismoniy tarbiyalash. Estetik, badiiy, musiqiy tarbiyalash

**Reja:**

1. Musiqa olamining boyligi. Musiqachining dunyoqarashi.
2. Musiqa tarbiyasining fiziologik asoslari.
3. Estetik, badiiy, musiqiy tarbiyalash haqida tushuncha va qoidalar.

Maktabgacha ta'lif muassasalari bolalari uchun musiqiy bilimlar mazmunini belgilash **bir** qator psixologik xususiyatlarni e'tiborga olishni talab etadi. **Zero**, musiqiy bilimlami egallash awalo shaxsnmg ruhiy olami bilan chambarchas **bog'liq**. Shuning uchun ham B.M.Teplov tomonidan berilgan tezislami bu jarayonda yo'naltiruvchi deb idrok etish mumkin. Unda quyidagilarga e'tibor qaratilgan:

1. Musiqiy kechinmalar tabiatdan olingan kechinmalardir... Musiqani tushunish, agarda musiqiy asaming ichki tuzilishini nazarda tutmasak, doimo his-hayajon tushunchalaridir.

2. Musiqiy kechinmalar faqat his-hayajondan iborat bo'lishi kerak emas. V his-hayajondan boshlanadi, lekin tugamaydi. his-tuyg'ular orqali biz hayotni anglaymiz. Musiqa - dunyoni his-tuyg'ular orqali anglashdir.

3. Musiqanining asl mazmunini chuqur anglash qiyin. Uni bilishning boshqa vositalari orqali o'rghanish mumkin. Musiqiy obrazlar olami «o'zo'zidan oxirigacha tushunarli bo'lmaydi». B.M.Teplovning nuqtai-nazari insonning estetik ongi shakilanishini ilk bora o'rgangan buyuk olim Arastuning fikri bilan hamohangdir: «Paydo bo'lgan narsalarning biri oddiy yo'l bilan paydo bo'lsa, boshqasi san'at orqali yuzaga keladi. uchinchisi o'z-o'zidan yaraladi... San'at orqali inson ruhidagi mavjud hissiyot shakllanadi». Inson ruhiyatida mavjud bo'lgan **narsalarga** Arastu quyidagilami kiritadi: «o'sish qobiliyati», «intilish qobiliyati», «**his** qilish qobiliyati», «harakatlanish qobiliyati», «fikrlash qobiliyati». Shaxsning estetik ongi tarkibiy qismlari ko'rinishini **V.G.Mozgot** o'zining ilmiy ishida sodda va tushunarli qilib bergan: - «...zamonaviy yoshlarning estetik ongini muvaffaqiyatli shakllantirish jarayoni, mamlakatdagi ijtimoiy-psixologik muhit, siyosiy va madaniy sharoitga bog'liqdir..»

1. Qo'shiq kuylash faoliyatida musiqiy dunyoqarash, musiqiy did shakllanadi. Bu faoliyat turida bolalar musiqiybilimlarga asoslangan holda qo'shiq kuylaydilar. Buning uchun ular musiqiy asarga taalluqli bo'lgan ma'lumotlarni o'zlashtiradilar. Shu jarayonda ularda musiqiy dunyoqarash va musiqiy did shakllanadi.

Musiqa savodi faoliyatida musiqiy tafakkur, tasawur va musiqiy dunyoqarash shakllanadi. Bu faoliyat turida bolalar musiqanining yaratilish tarixi, musiqanining ifoda vositalari - ritm, metr, registr, o'lchov, lad, temp, nota yo'li va yozuvi, tovushlar uzunligi va balandligi, musiqa ijodkorlari, ijrechilari haqida bilimga ega bo'iish bilan birga, ulaming musiqiy tafakkurlari shakllana boradi. Bu o'z navbatida bolalarni musiqa olamiga olib kiradi va musiqiy dunyoqarashlarini shakllantiradi.

2. Musiqa tinglash faoliyatida musiqiy idrok, musiqiy dunyoqarash shakllanadi. Bu faoliyatda bolalar musiqa tinglab, uni bevosita idrok eta boshlaydilar. Bu esa uiarning musiqiy tafakkurlarini shakllantiradi shuningdek, ularda musiqiy dunyoqarash ham shakllanib boradi. Tinglangan musiqiy asar haqida mulohaza yurita boshlaydilar.

3. Musiqa ostida ritmik harakat bajarish faoliyatida musiqiy dunyoqarash, musiqiy did, musiqiy tafakkur, musiqiy idrok. musiqiy ritm hissi va musiqiy xotira shakllanadi. Bu faoliyat turida o'quvchilarda deyarli barcha musiqiy psixologik xususiyatlar shakllanadi. Chunki bu faoliyatda ular o'zları bevosita.musiqa'y asargajo'r bo'ladilar. Avval ular musiqiy asarni tinglab ko'radiar (musiqiy idrok), bu esa musiqanining ritmik ko'rinishini eslab qolishni (musiqiy xotira), qaysi asbobda jo'r bo'lsa yaxshiroq jaranglashini (musiqiy did) tanlashni taqozo etadi. O'quvchi bu faoliyatda mustaqil fikrlavrii (musiqiy tafakkur), natijada uning musiqiy dunyoqarashi shakllanib boradi.

4. Bolalar cholg'u asboblarida jo'r bo'lish faoliyatida musiqiy dunyoqarash, mvsiqiy did, musiqiy tafakkur, musiqiy idrok, musiqiy ritm hissi va musiqiy xotira shakllanadi. Bu faoliyat turida bolalarda deyarli barcha musiqiy psixologik xususiyatlar shakllanadi. Chunki bu faoliyatda ular o'zları bevosita musiqiy asargajo'r bo'ladilar. Awal ular musiqiy asarni tinglab ko'radilfr (musiqiy idrok), bu esa musiqanining ritmik ko'rinishini

eslab qolishni (musiqiy xotira), qaysi asbobda jo'r bo'lsa yaxshiroq jaranglashini (musiqiy did) tanlashni taqozo etadi. Bola bu faoliyatda mustaqil fikrlaydi (musiqiy tafakkur), natijada uning musiqiy dunyoqarashi shakllanib boradi.

Ayni vaqtda shuni aytish joizki, musiqaning qanday faoliyat turi bo'lmasin, u Shaxsning barcha psixologik jihatlari shakllanishiga yordam beradi. Shuni ta'kidlashimiz kerakki, musiqiy faoliyatlarning har biri barcha sanab o'tilgan psixologik xususiyatlarni shakllanishiga qisman bo'lsa ham o'z ta'sirini o'tkazmay qo'ymaydi. Jumladan, musiqiy his-tuyg'ular, musiqiy dunyoqarash, musiqiy idrok, musiqiy tafakkur, musiqiy tasawur va musiqiy qobiliyatni shakllantiradi. Demak, ular boialarning umumiyligi musiqiy madaniyati, estetik dunyoqarashining shakllanishiga ham o'z ta'sirini, ko'rsatadi. **Musiqa** bolalarning estetik qiyofasini **shakilantiruvchi vosita sifatida** Musiqa boialarning his-tuyg'ulariga bevosita ta'sir qilishi orqali uiarning ma'naviy qiyofasini shakllantiradi. Musiqa san'atining ta'sir kuchi boshqa - ta'kid va uqtirishiarga nisbatan kuchliroq bo'ladi. Bolalarni har xil emotsiyal-obrazli mazmundagi asarlar bilan tanishtirar ekanmiz, biz beixtiyor ularni hissiyotlariga ta'sir qilamiz va ularni kechinmalar olamiga olib kiramiz. Musiqa janrlari qahramonlik ruhidagi, lirik ohangdagi, quvnoq yumorni **va** jo'shqin raqsona kuylarni o'ta jiloli tovushlar hamda boy tembri bilan idrok etishga ko'mak beradi. qo'shiq, raqs va musiqa tinglash faoliyatları jarayonida bolalar ruhan birlashadilar hamda jamoada tarbiyalanadilar. Bolalar individual shakllannishlari uchun ham ularga jamoada yaxshi muhit yaralilgan bo'lmos'hil lozim. Ijrosi yaxshi bo'limgan, tortinchoq bolalar o'z tengdoshlarining ijrosini ko'rib ruhan tetiklashadilar va faollashadilar, ularga ergashadilar va yaxshi ijroga intiladilar. O'ziga haddan ziyod bino qo'ygan bolalarga ijrosi sust bo'lgan o'rtoqlariga yordam berishni taklif qilib, ularni kamtarinlikka o'rgatish hamda uiarning qobiliyatlarini rivojlantirish kerak. Musiqa mashg'ulotlri boialarning umumiyligi madaniyatiga ham ta'sir qilmay qolmaydi. Har xil faoliyatlar bilan shug'ullanish (musiqa tinglash,

qo'shiq aytish, musiqiy-ritimk harakatlar bajarish, bolalar musiqiy cholg'ularida ijro-etish) bolalardan diqqatni, uyushqoqlikm, Lodaviylikni, zukkolikni talab qiladi. Bu faoliyatlar davomida bolalarda irodaviylik shakllanib, tortinchoqlik yo'qola boradi. Shu tarzda musiqiy faoliyatlar bolalar shaxsining ma'naviy-madaniy sifatlarini shakllantirish uchun kerakli bo'lgan shart-sharoitlami ta'minlaydi va ulaming umumiyligi madaniy saviyasiga asos soladi. **Bolalarni jismoniy tarbiyalashda** musiqaning o'rni Musiqa eshitish organi orqali idrok etilsada, u kishi organizmining umumiyligi ahvoliga - qon aylanish tizimi, nafas olishga va boshqa jihatlariga ta'sir qiladi. Qo'shiq kuylash ovoz apparatini rivojlantiradi, ovoz apparatini mustahkamlaydi, nutqni yaxshilaydi (Jogoped vrachlar kuylashni nutq talafiuzini davolovchi vosita sifatida qo'llaydilar), ovoz-eshitish koordinatsiyasini yaxshilaydi. Kuylash jarayonida to'g'ri o'tirish nafas olish tizimiga ijobiy ta'sir qiladi. Musiqiy ritmik harakatlar bajarish jarayonida bolalar musiqa bilan birgalikda har xil harakatlar bajaradi. Bu esa o'z navbatida bola qomatini to'g'ri rivojlanishiga, uning koordinatsiyasini, to'g'ri qadam qo'yish, yurishini to'g'ri va yengil bo'lishiga imkon beradi. Musiqadagi barcha dinamik, ritmik va sur'atga daxldor ifoda vositalari bolalarni bir holatdan boshqa holatga o'tishlariga. .harchoqlarini yozishlariga,

kayfiyatlarini ko'tarishlari uchun muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Buyuk mutafakkirlarimizdan Ibn Sino musiqa ovozlarining kishi ruhiga ta'siri haqida ham o'z fikrlarini bayon etgan. Bu borada buyuk alloma mashxur «Qonun-fit-tib» asarida quyidagilami ta'kidlaydi: «Tanani chiniqtirishda chaqaloqlar uchun juda foydali vositalar qatoriga, birinchidan yengil tebratish, ikkinchidan, odatda uxlatish uchun aytildigan qo'shiqlar - ailalar kiradi. Bolaning ushbu ikki narsani idrok etish darajasiga muvofiq uning jismoniy mashqlarga va musiqaga moyilligini aniqlaydilar. Ularning birinchisi tanaga, ikkinchisi esa ruhiyatga tegishlidir»<sup>3</sup>. Bunda Ibn Sino ma'naviy tarbiya bolaning chaqaloq yoshidan belanchagini tebratish davomida (jismoniy tarbiya) alia (qo'shiq) aytish vositalari bilan mushtarak tarzda olib borilishi lozimligini aytib o'tgan. Ibn Sinoning musiqaga oid asariari u yashagan davr musiqa ilmidan juda muhim ma'lumotlar berishi bilan hate qlmasatiidir.

## **9-mavzu. Musiqiy tarbiya va ta'lim tizimida boshqarish va tashkil etish. Musiqachining pedagogik faoliyati va vazifalari.**

### **Reja:**

1. Musiqiy tarbiya va talimni boshqarish hamda tashkil etishning umumiy asoslari.
2. Umumiy maktab va maktabdan tashqari muassasalarda musiqiy tarbiyani tashkil etish.
3. O'zbekiston respublikasida musiqiy tarbiya va ta'limining hozirgi ahvoli hamda uning rivojlanish istiqboli.

O'zbekistan Respublikasining Ta'lim to 'g'risidagi qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablari asosida ta 'lim tizimida ro'y berayotgan o 'zgarishlarga ko'ra, 9 yillik umumiy o'rta ta'lim joriy etildi. Musiqa predmetiga davlat ta 'lim standartini joriy etilishi, milliy, musiqiy merosimizdan foydalanishni hamda xududiy voxalarni san'ati va madaniyati, u yerdagi maxalliy xalq an'analari o'z ifodasini topgan. SHuningdek ta'lim standard o 'zining tuzilishiga va mazmuniga kura, davlat, xudud, maktab manfaatlari va vositalari muvozanatini aks ettiradi, o'quvchi shaxsi, uning intilishlari, qobiliyati va qiziqishini hisobga olgan holda yangi (1-7) sinflar uchun yangi dastur tuzildi. Dastur asosida darsliklarmetodik qo'llanmalar, tavsiyanomalar yaratilmoqda. Yetti yillik musiqa o 'qitish davrida o 'quvchilami go'zallikni his eta oladigan, musiqaga mehr va xavas bilan qaraydigan, milliy musiqa merosimizga vorislik qila oiadigan barkamol inson qilib tarbiyalash asosiy maqsad qilib quyiladi. Yangi dastur asosida musiqa madaniyati darslarini sifatli, pedagogik va metodik jixatdan yuqori talab darajasida olib borish uchun o 'qituvchi, ijodkor, o'z kasbini va o 'quvchilami sevuvchi, yaxshi cholg'uchi,

metodikani puxta o 'zlashtirgan inson bo'lishi kerak. Musiqa ta 'limining milliy asosini tarkib topishida, foitepiano asbobi bilan birgalikda, o 'zbek xalq cholg'u asboblaridan ham foydalana olishi zarur. SHuningdeq o'zbek xalq musiqa merosimizni tarixi va xozirgi kun talablarii kuzatib o 'rganib borishi shart. Chunki, maktabda musiqa ta 'limining asosiy maqsadi o 'quvchilarda <<Musiqa madaniyatini>> tarkib toptirishdir. Musiqa o'qituvchisi darslarga mavzularni tanlab, rejalashtirishda ko'rgazmali qurollardan texnika vositalaridan ham foydalanishi kerak.

Umumiy ta'lim maktablarida jumladan, boshlang`ich (1 - IV) sinf musiqa fani buyicha, quyidagi vazifalarni amalga oshirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Chunki, boshlang`ich sinflarda musiqa ta'limi poydevori quyiladi va shakllanadi.

Yuqoridagilardan ko'rinish turibdiki, har bir darsga ijodiy yondoshib, yangi dastur talablariga muvofik dars o 'tish lozim. Musiqa fanidan bir yilda 2 marta yarim yillik taxminiy – mavzuli ish rejasi va shunga qarab, har bir dars uchun reja -konsept tuziladi. Yarim yillik ish rejasi boshlang`ich va o 'rta sinflar uchun alohida - alohida tuziladi. Bunda o 'quvchilarni Yoshi (sinf), ovoz diapazoni, musiqaga qiziqishi va qobiliyati, yil fasllari.bayramlar, yil, choraq dars mavzulari hisobga olinib, yangi dasturdan foydalanib dars strukturasi asosida tuziladi. Ba'zi qo'shiqlarni, tinglash uchun asarlarni, o 'qituvchi o 'quvchilar istagi va yangi zamonaviy qo'shiq!ar bilan dars rejasiga mos keladigan asarlarga o'zgartirishi mumkin. Musiqa darslari asosan bir haftada bir soat o 'ti!adi.O'quv yili davomida esa quyidagi tartibda;

I chorak 9 soat

II chorak 7 soat

III chorak 10 soat

IV chorak 8 soat

Jami bir yilda 34-35 soat dars o'tiladi. SHuningdek, har bir o'quv yilida 12-14 ta qo'shiq o'rgatiladi, shunga qarab, musiqa savodi va musiqa tinglash jarayonida 12-14asarlar tinglanadi. Boshlang`ich sinf o'quvchilari asosan, bir ovozli qo'shiqlari sof unisonda kuylash malakalarini puxta o'zlashtiradi va ayrim hollarda ko'p ovozlikka j 'tishga tayyorgarlik ko'riadi.

Ikkinci sinfping ikkinchi yarmidan boshlab, ikki ovozlik elementi bor qo'shiqlar kiritilgan.

- IV sinflarda o 'quvchilami ovoz apparatlari shakllangan boiib, ikki ovozli qo'shiqlami kuylash, ko'nikma va malakalarga ega bo'ladi. SHunga ko'ra oddiydan murakkabga printsipi asosida musiqaviy asarlar tanlanadi. Boshlang`ich sinfda dars stmkturasi beshta faoliyat turidan iborat bo'ladi:

1. Xor bo'lib kuylash
2. Musiqa savodi
3. Musiqa tinglash
4. Musiqa harakteriga mos harakatlar bajarish
5. Bolalar cholg'u asboblardan jo 'r bo'lish

O 'rta (V-VII) sinflarda esa, dars faoliyati bir mucha kamayadi. Chunki, o 'rta sinf o 'quvchilari ko'nikma va malakalarga ega bo'madilar. Dars mazmuni chuqurlashib,

0‘quvchilar bilim va malakalarini kengayishiga xizmat qiladi. Musiqa darsi uchta faoliyat asosida olib boriladi:

1. Xor bo‘lib kuylash
2. Musiqa savodi
3. Musiqa tinglash

Bunda bolalarning ovoz apparatlari shakllangan musiqiy qobiliyatlarini rivojlangan, musiqaning tuzilishi, shakii musiqa ifoda vositalari haqida bilimga ega bo‘ladilar va musiqa tinglash qobiliyati rivojlangan bo‘ladi. 0 ‘rta sinfdagi o‘quvchilar uchun (V - VII sinf) musiqa dasturi asosida darslar rejalashtirib, ikki ovozli, ovoz mashqlari, ikki ovozli qo‘shiqlar, musiqa savodi va musiqa tinglashdan, shunga qarab murakkabroq asarlar tinglanadi. Har bir faoliyat bir - biri bilan bog‘liq bo‘lib, dars mazmunini, ya’ni bir butunlikni ta’minlaydi. Chorak mavzulari, yil mavzulariga buysunadi. Dars samaradoriigini oshirishda o‘quvchiarni bilim va malakalarini baholash muhim pedagogik ahamiyatga egadir. Qo’shiq kuylash bilan birga, ularni ko‘proq fikr bildirish, baxsga tortish va amaliy faoliyatiga ko‘proq jalb etish va odilona baholash lozim bo‘ladi. Shunday qilib, musiqa darslari, yangi dastur asosida rejalashtirilib, o‘quvchilarni milliy musihamizga mehr - muhabbat va qiziqish uygotishi lozim.

## **2-modul. Musiqa psixologiyasi**

### **10-mavzu. Musiqa psixologiyasining umumiyligi asoslari. . Musiqachini shaxsiy fazilatlari va faoliyati.**

**Reja:**

1. Musiqa psixologiyasining umumiyligi asoslari.
2. Musiqachi shaxs sifatida. Musiqachini shaxsiy fazilatlari.
3. Musiqachining faoliyati.

Musiqa psixologiyasi juda qadim davrlardan buyon o‘rganib kelinmoqda. Musiqa psixologiyasi bo‘yicha ilk izlanishlar kurtaklarini antik davr faylasuflari asarlarida ko‘rishimiz mumkin. Darhaqiqat, Pifagor (er. avv. VI asr) asarlarida, uning evritmiya ta’limotida shu haqda gap boradi. Evritmiya deganda olim insonning barcha hayotiy hodisalardan munosib ritm, usul topa olish qobiliyatini tushungan. Ijtimoiy hayotni ladga, orkestrga qiyoslash Pifagordan qolgan. Bu orkestrda har bir ijrochi ma’lum bir cholg‘uni chalganidek, hayotda har bir insonning o‘z vazifasi bor. Pifagor kuy va ritm inson qalbiga muayyan ta’sir ko‘rsatishini ham aniqlagan. Umidsizlik, ruhiy iztiroblar, asabiylashish, g‘azab va boshqa noxushliklarga qarshi musiqa farq qilingan.

Boshqa bir Yunon faylasufi Platonning (er. avv. V asr) fikricha, davlatning kuch-qudrati unda qanday musiqa, qaysi ohang va qay ritmda yangrayotganligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqidir. Platon va uning izdoshlari davlat uchun insonni Yuksaklikka ko‘tarishga yordam beruvchi musiqa kerak deb hisoblaganlar.

Aristotel' (er. avv. IV asr) ham musiqani individning ijtimoiy hayot bilan uyg‘unlashish vositasi deb hisoblagan. Aristotel' insonning ichki olami va unga san’at yordamida ta’sir o’tkazish usullarini ochib bergen mimesis ta’limotini ishlab chiqdi. Mimesis nazariyasida «katarsis» konsepsiyasi ishlab chiqilgan. Unga ko‘ra, qadim Yunon tragediyalari tomoshabin ko‘nglini xastalik jazavalaridan tozalagan. CHuqur kechinmalar jarayonida inson ruhan poklanadi, uning qalbi o‘zining xususiyligi, yagonaligidan umumiylilikka ko‘tariladi.

Aristotel' psixikani o‘zgartiradigan musiqiy ladlarni batafsil tasvirlab bergen. Bir laddagi musiqa kishini rahmdil va muloyim qilib qo‘yadi, boshqa biri esa asabiylashish yoki hayajonlanishga olib kelishi mumkin. SHunday qilib, doriy, frigiy, lidiy ladlaridagi musiqa kishining ruhi va sog‘lig‘iga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan, boshqa ladlarda yozilgan musiqani esa yosh avlod qulog‘iga etkazmaslik tavsiya etilgan. SHunday tavsiyalar musiqa cholg‘ulari bo‘yicha ham ishlab chiqilgan.

Qadimgi Yunonlar savodsiz odamni «axareutos» deyishgan, bu kuylash, raqs tushish, cholg‘u chalishni, demakki, «xorey»da ishtirok etishga yaroqsiz bo‘lgan odamni anglatgan. Qadimgi YUnioniston shahridagi aholini yaxlit birlashtiruvchi musiqiy-xoreografik harakat «xorey» deb nomlangan.

Demokrit, Platon kabi antik davr mualliflarining ko‘pchiligi musiqaning inson ruhiy holatiga ta’sir qilishi haqida ko‘plab dalillar keltirgan: Odisseya haqidagi eposda musiqa ta’sirida qontalash yaraning bitib ketishi tasvirlangan, hayotda juda qahrli bo‘lgan Sparta hukmdori Likurg o‘z qo‘shinlari uchun musiqa yaratgan.

Qadimgi Xitoyda musiqa tartib va sivilizasiya ramzi hisoblangan, u tarbiyaning eng muhim vositasi hisoblangan va o‘rganilishi shart bo‘lgan fanlar qatoriga kiritilgan. Ma’lumki, Konfusiyning o‘zi (er. avv. VI asr) sin degan musiqa cholg‘usida chala olgan. <sup>2</sup>indistonda qadimgi shifokorlar musiqadan davolash vositasi sifatida foydalanishgan. (Qarang: Petrushin V.I. «Muzo‘kal’naya psixologiya» M., 1997, s.10).

O‘rta asrlarda YAqin va O‘rta SHarqda musiqa psixologiyasi Forobi, Ibn Sino, Jomiy, Marog‘iy, Kavkabiy kabi buYuk mutaffakkirlar ijodida o‘z rivojini topdi. Masalan, Forobi (873-950) «Musiqa haqida katta kitob»ida musiqaning inson psixologiyasi va ruhiy olamidagi ulkan ahamiyati haqida yozgan. Musiqa kishilarni xursand qilishi, quvontirishi, tinchlantirishi, o‘ylantirib qo‘yishi, xotirjamlik baxsh etishi, sergaklantirishi va bir vaqtning o‘zida uxlatib qo‘yishi ham mumkin.

Ibn Sino (980-1037) musiqaning ruh bilan birgalikda tanaga ham shifobaxsh ta’sir ko‘rsatishi haqida aytib o‘tgan. U musiqani ham fiziologik, ham psixologik nuqtai nazardan o‘rgangan. Abdurahmon Jomiy (1414-1492) «Risolai musiqa»sida, shuningdek, interval oraliqlarining his etilishi, ularning melodik va garmonik tuzilishlari konsonans (yoqimli) va dissonans (yoqimsiz) bo‘lishlari haqida fikr Yuritgan.

O‘rta asrlarda G‘arbda bu sohani Boesiy, Gvido Aretinskiy, Sarlino (XVII-XVIII asrlar) kabi nazariyotchi musiqachilar hamda Kunau, Kirxer, Matteson va boshqa musiqachi faylasuflar taraqqiy ettirdi.

Umuman olganda, ilmiy musiqa psixologiyasi nemis tabiatshunosi German Gel’mgol’sning (1821-1894) «Uchenie o sluxovo‘x ohuheniyax kak fiziologicheskaya

osnova teorii muzo‘ki» asaridan boshlangan. Gelmgol’s eshitish rezonansi nazariyasini ishlab chiqdi. Unga ko‘ra, eshitish sezgilari ichki eshitish organlarining tashqi ta’sirga javoban aks-sado berishi tufayli Yuzaga keladi.

Musiqa psixologiyasining fiziologik asoslari fiziolog-olimlar I.M.Sechenovning (1829-1905) «Reflekso‘ golovnogo mozga» («Bosh miya reflekslari») va I.P.Pavlovning oliy nerv faoliyati, ikkinchi signal sistemasi haqidagi asarlarida bayon qilingan.

Fan taraqqiyotiga psixolog musiqashunoslar Karl SHtumpf (1848-1936) («O psixologicheskom proisxojdenii prostranst-venno‘x predstavleniy», «Psixologiya muzo‘kal’no‘x vospriyatiy», Kurt Zaks (1881-1959), shuningdek, ularning izdoshlari M.Mayer, G.Revesh, V.Kyoler katta hissa qo‘shishgan.

San’at ustalari shaxsining xususiyatlarini odatda rus tilida «t» harfi bilan boshlanadigan beshta so‘zga bog‘lashadi. Bular: «talant» – iste’dod, «tvorchestvo» – ijod, «trudolYubie»— mehnatsevarlik, «terpenie» – sabr, «trebovatel’nost’» – talabchanlik. Bu erda musiqachining iste’dodi katta ahamiyatga ega. Masalan, yosh Mozart Vatikanda xor ijrosidagi murakkab asarni (Italiya kompozitorи Grigorio Allegrining «Mizerere») atigi ikki marotaba eshitib, ikki kundan so‘ng o‘z xotirasida saqlab qolgan o‘sha to‘liq partituraning qo‘lyozmasini Rim Papasiga topshirgan.

## **16-mavzu. Musiqa san’atida bilish jarayonlari. Musiqa san’atida shaxsiy psixologik farqlar.**

**Reja:**

1. Diqqat, Sezgi, Idrok , Tafakkur, Xayol, Xis-tuygular, Iroda.haqida tushuncha.
2. Temperament haqida tushuncha.
3. Qobiliyatlar haqida tushuncha.

Inson faoliyatining boshqa turlarida bo‘lgani kabi, musiqa san’atida diqqat insonning barcha sensor (hissiy), intellektual (aqliy), harakatga keltiruvchi jarayonlardagi faoliyat samaradorligining muhim va zarur shartidir.

Diqqat –ma’lum paytda faoliyatning bir narsaga qaratilishidir.

Asosan ikki tur: ixtiyorsiz va ixtiyoriy diqqat mavjud. Lekin yana bir o‘ziga xos turni ham ajratish mumkin – u ixtiyoriy diqqatdan keyin kelib, uzoq muddat davom etishi bilan xarakterlanadi. Bu ancha tig‘iz va samarali aqliy faoliyat bo‘lib, barcha turdagи mehnatga Yuqori samaradorlik bag‘ishlaydi.

Musiqa san'atida musiqiy faoliyatning barcha turlari diqqat bilan bog'liqdir. Ayniqsa, ommaviy ijrochilikda diqqat juda muhim. Namoyishdan avval dirijyorning ko'tarilgan qo'llari, auftakt, yakkaxon va jo'rnavoz o'rtasidagi ishora va harakatlar – bularning hammasi musiqa terminologiyasida diqqat deb ataladi.

Zamonaviy psixologiyada diqqat tarkibida uning sifat xususiyatlari o'rganiladi. Bunga diqqat barqarorligi, ko'chishi, taqsimlanishi va hajmi kiradi. SHuningdek, bu sanoqqa diqqat parokandaligini, buzilishini ham kiritish mumkin.

Diqqat – bu o'quv jarayonidagi eng muhim tarkibiy bo'laklardan biridir. Barcha bu Yuk musiqachilar favqulodda diqqat egasi bo'lgan. Masalan, Mozart ko'pchilik bo'lgan xonada hamda begona ovozlar eshitilib turganda ham xotirjamlik bilan musiqa yoza olgan. Pol'shalik pianinochi va kompozitor I.Gofman maqsadga muvofiq yagona ish uslubi haqidagi savolga: diqqatni jamlash – omad alifbosidagi birinchi harf, deb javob bergen. Rus kompozitori va pianinochisi N.Metner bo'lsa: «Ish boshlashdan avval yaxshilab diqqatni jamlash hamda nima va qanday qilishni bilish zarur, shunda musiqachi kamroq toliqadi va charchaydi», - degan edi.

I.Gofman shunday degan: «Ish to'la aqliy diqqat jamligida bajarilgandagina serunum bo'ladi». Biroq «shu narsani esda tutish kerakki, mashg'ulotlarda miqdoriy tomon faqat sifat tomoni bilan qo'shilgandagina ma'no kasb etadi».

E'tiborlilik, diqqatni jamlash qancha muddat ishlash kerak, degan savolga chek qo'yadi. I.Gofman har yarim soatdan so'ng tanaffus qilishni va hech qachon tanaffussiz bir yoki ikki soat ishlamaslikni tavsiya qilgan.

L.Barenboym tomonidan (V.I.Petrushinning «Muzo'kal'naya psixologiya». M. 1997, 121-122-betlar) musiqachilar uchun diqqatni takomillashtirish mashqlari taklif etilgan edi. S.Stanislavskiyning ta'kidlashicha, aktyor diqqati, agar u o'zining kundalik ishida iloji boricha e'tiborli va intizomli bo'lsa, o'z professional ishiga tushunib va mas'uliyat bilan yondoshsa, maxsus mashqlarsiz ham takomillashishi mumkin. SHuningdek, barcha musiqachilar diqqatning shakllanishida o'zini tashqaridan turib eshita olish qobiliyati g'oyat muhim hisoblanishini ta'kidlashgan. SHuning uchun ham musiqachining chalayotgan narsasini nazorat qila olishi, o'zini tashqaridan eshita olishi – musiqa san'atining asoslaridan biridir.

## SEZGI

Biz o'zimizni o'rab turgan olamni sezgi organlarimiz va his qilish orqali bilamiz va kerakli axborotni olamiz.

Sezgi – narsa va hodisalarini sezgi a'zolari orqali his qilishning oddiy psixik jarayonidir. Sezgi organlari bilan muvofiq tarzda sezgining ko'rish, eshitish, hid, ta'm, teri, mushaklarni harakatga keltiruvchi va organik sezgi turlari mavjud. Musiqa san'atida eshitish, taktil (paypaslab), ya'ni qo'l tegizib his etish, harakat va ritmik sezgilar katta ahamiyatga ega. Xonandalar, damli (puflama) va torli musiqa cholq'ulari sozandalari uchun ovozga o'ziga xos to'lalik va ohang bo'yoqdorligini ta'minlovchi vibrasion sezgi ham katta ahamiyatga ega. Sezgi qonuniyatiga ularning sifati, tezligi, davomiyligi va fazoviy lokalizasiya kabi xususiyatlarini ham kiritish mumkin. Eshitish sezgisi asosida musiqachilarda ichki eshitish va musiqiy eshitish xususiyatlari rivojlanadi. Bizning

analizatorlarimiz moslashuvchanlik qobiliyatiga ega, ya’ni qo‘zg‘atuvchi ta’sirga ko‘nika oladi. Uzoq muddat baland ovozdagi musiqani tinglagandan so‘ng biz «piano» yoki «messo-forte» ovoz kuchidagi nozik o‘zgarishlarni kam his etamiz. Uzoq vaqt sukunatda bo‘lgach esa, biz hatto o‘rta kuchdagi ovozni ham baland ovozdek qabul qilamiz. Masalan, SHopen kuyni hech qachon baland chalmagan. Lekin u piano, pianissimo, messo-forte bobida tengsiz ijrochiligi hisobiga ohangdorlikka erishgan.

## **IDROK**

Idrok – narsalar yoki hodisalarining sezgi a’zolariga bevosita ta’siri orqali ongimizda etishidir.

Psixologiyada idrok predmetlilik, yaxlitlik, strukturalilik, barqarorlik, anglangan bo‘lishi kabi o‘ziga xos jihatlarga ajratiladi.

Sezgida predmetning alohida qismlari, idrokda predmetning barcha tarkibiy qismlari bir butunlikda his qilinadi. Masalan, musiqiy asarni eshitib, biz uning kuyi, ritmi, tembri, garmoniyasini alohida qabul qilmaymiz, aksincha, bu musiqani obrazli, umumlashgan holda yaxlitligicha anglab, idrok etamiz.

«Musiqa ensiklopediyasi»da musiqiy idrok musiqaning inson tuyg‘ularida aynan muvofiq ravishda aks etishi va musiqiy materialni shaxsan idrok etish (persepsiya) hamda insonning musiqiy va hayotiy tajribalari (appersepsiya), bilimi, emosional kechinmalari va asar qiymatini birlashtirishga yo‘naltirilgan murakkab faoliyat ekanligi ko‘rsatilgan.

Qabul qilish jarayonida qaysi analizator ustunlik qilishiga qarab, idrokni tasniflab chiqish mumkin. Ko‘rish, eshitish, sezish, kinestetik (fazoviy, vaqtga bog‘liq), hid va ta’m bilish idroklari farqlanadi. Musiqa san’ati uchun hid va ta’m bilishdan boshqa hamma analizatorlar katta ahamiyatga ega. Eshitish idroki bo‘lishi o‘z-o‘zidan shart.

Musiqa psixologiyasida ritm, tembr, lad, kuy, garmoniya, polifoniya, shakl, janr idroki masalalarini ko‘rib chiqish muhimdir. Musiqiy idrokning to‘laqonliligi musiqiy qobiliyatning

## **XOTIRA**

Xotira – eslab qolish, to‘plangan tajribaning saqlanishi va tiklanishidir. SHuningdek, xotiraning unutish xususiyatini ham nazarda tutish kerak. Bu jarayon to‘qimalar va ularning xossalaring bioximik o‘zgarishlari bilan birga amalga oshadi. DNK-genetik, avloddan-avlodga o‘tuvchi xotira tashuvchisi, RNK esa ontogenik, individual va hayotiy xotira asosi ekanligi olimlar tomonidan aniqlangan1.

Xotirani uch turga bo‘lish mumkin: 1)faoliyat bilan bog‘liq–harakat, emosional-obrazli va og‘zaki-mantiqiy xotira, 2) xususiyatga ko‘ra – ixtiyoriy va ixtiyorsiz, 3) vaqtga ko‘ra – qisqa muddatli, uzoq muddatli va operativ xotira.

Xotira mashqi muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, musiqa san’atida ba’zan turli hamda katta hajmdagi musiqiy asarlarini eslab qolishga to‘g‘ri keladi.

YAxshi musiqiy xotira – bu musiqiy asarning tezda va uzoq muddatga yodda saqlanib qolishidir.

Mosart, List, Anton Rubinshteyn, Raxmaninov, Toskaninilarning musiqiy xotirasi kuchli bo‘lgan. Ular asosiy musiqiy adabiyotlarni yod bilgan. O‘zbek musiqasi namoyandalaridan Yunus Rajabiy «O‘zbek xalq musiqasi», «SHashmaqom» kabi ko‘p jildlik to‘plamlarini xotirasiga tayanib yaratgan. Hofizlar san’ati ham bunga misol bo‘la oladi. «Hofiz» so‘zi «xotirali» deb tarjima qilinadi.

Ma’lumki, musiqiy ijrochilikda yoddan chalish musiqachining ijrochilik imkoniyatlarini kengaytiradi. R.SHuman nota bo‘yicha har qanday erkin ijro etilganakkord yoddan ijro etilganining yarmicha ham jaranglamaydi, deb hisoblagan.

## **TAFAKKUR**

Tafakkur – kishi ongida borliqning uning tahlili va sintezi bilan aks etish jarayonidir. Tafakkur hissiy bilish (his etish, idrok etish) vositasida va uning chegaralaridan chiqqan holda amaliy faoliyat asosida Yuzaga keladi. Tafakkur aniq bilimlar, dalillarga suyanadi, tahlil qiladi, qiyoslaydi, umumlashtiradi, xulosalar chiqaradi.

Tafakkur muammolarini ilmiy, falsafiy o‘rganish bilan bilish nazariyasi – gnoseologiya shug‘ullanadi. Tafakkurni ikki fan mantiq va psixologiya tadqiq etadi.

Mantiqda tafakkurning mantiqiy shakllari o‘rganiladi – tushunchalar, fikrlar, xulosa chiqarishlar.

Umumiy psixologiyada tafakkurning quyidagi turlari tavsiflanadi: ko‘rgazmali-harakatli, ko‘rgazmali-obrazli va abstrakt, mavhum (umumiy, nazariy). Mustaqillik, o‘ziga xoslik, kenglik, ixchamlik, tezlik kabilalar tafakkurning individual o‘ziga xos jihatlaridir.

Musiqiy tafakkur musiqiy his, musiqiy idrok asosida paydo bo‘ladi va ovozli, musiqiy, badiiy obrazlarga tayanadi.

## **XAYOL, TASAVVUR**

Xayol, tasavvur yoki fantaziya – yangilik yaratuvchi kishining ruhiy, ijodiy faoliyatini natijasidir.

Xayol, tasavvur, fantaziya qobiliyati inson miya faoliyatidagi oliy fikrlesh jarayonlarining eng ajoyibidir. Tasavvurli obraz yaratish, Yuzaga keladigan masalalarni hal etish, hatto kerakli axborot va bilim to‘liqligi bo‘lmasa ham, kelajakni ko‘ra olish imkonini beradi. Masalaning bunday hal etilishidagi kamchilik shundaki, tasavvurlar doim ham etarlicha aniq bo‘lavermaydi.

Umumiy psixologiyada tasavvurning quyidagi: faol va sust ko‘rinishlari ajratib ko‘rsatiladi.

Sust tasavvurlar: atayin – xayol, orzu va bexos – tush, gallYusinasiya.

Faol tasavvurlar: yaratuvchanlik – tasvirga mos obraz yaratish va ijodkorlik – mustaqil holda yangi obraz yaratish.

Musiqi san’atida xayol, tasavvur, fantaziya favqulodda muhim ahamiyatga ega. Musiqiy ifoda vositasi faol tasavvur va uning yaratuvchilik va ijodkorlik xususiyatlari tufayli ongimizda badiiy obrazlar yaratilishiga yordam beradi.

Tasavvurning faolligi, uning ijodkorlik xususiyati kompozitor, ijrochi faoliyatida, ularning yangi musiqiy badiiy obrazlar yaratishida etakchi rol’ o‘ynaydi. Xayol,

tasavvur, fantaziya musiqa san'atiga shu qadar yaqinki, hatto aynan «fantaziya», «xayollar», «orzular» deb atalgan ko‘pgina musiqiy asarlar mavjud.

## **IRODA**

Psixologiyada iroda deganda qo‘yilgan maqsadga etish uchun qiyinchiliklarni engib o‘tishga qaratilgan faoliyat tushuniladi.

Xotira muammosi bilan bir qatorda iroda fenomeni ham keng jamoatchilikda katta qiziqish uyg‘otadi. Bu tushunarli, negaki hayotdagi ko‘plab muvaffaqiyatlarimiz oxir-oqibatda iroda va matonat tufayli turli qiyinchiliklar, o‘z ojizliklarimiz va tabiiy kamchiliklarimizni engish natijasidir. Vol’ter aytadi: «Eng katta g‘alaba – o‘zimizning ustimizdan qilgan g‘alabamizdir».

Jamiyat rivojiga katta hissa qo‘shgan fan va san’at namoyandalarining ko‘pchiligi, qoidaga ko‘ra, mustahkam va bukilmas irodaga ega bo‘lganlar. Bu borada Bal’zakning so‘zlarini keltirishimiz mumkin: «Katta irodasiz katta iste’dodlar mavjud bo‘lmaydi... Iroda iste’dodga nisbatan ancha ko‘proq mag‘rurlik uchun asos bo‘la oladi va bo‘lishi kerak. Agar iste’dod – rivojlangan tabiiy layoqat bo‘lsa, mustahkam iroda – bu har daqiqada tiyib turiladigan va bartaraf etiladigan hissiyotlar, mayllar, injiqlik va qiyinchiliklar, turli murakkabliklarni engishdir»<sup>12</sup>.

Iroda orqali inson o‘zining hozircha mavjud bo‘lmagan, lekin iroda harakatlari natijasida ro‘y berishi kerak bo‘lgan kelajagini ta’minlaydi. «Men bugun musiqa cholg‘usida olti soat dars qilmasligim mumkin va ertaga ham mashg‘ulotlarimni qoldira olishim mumkin, lekin agar haqiqiy musiqachi bo‘lishini istasam, unda men charchoqqa, kasallik va boshqa chalg‘ituvchi omillarga qaramasdan qunt bilan shug‘ullanaman», deydi irodali kishi.

Qaror qabul qilish va ijro etish iroda jarayonining muhim tarkibiy qismlaridir.

Iroda sifatlari, uning favqulodda namoyon bo‘lishining individual xususiyatlariga iroda kuchi yoki iroda sustligini kiritish mumkin.

## **TEMPERAMENT**

Musiqa san’ati faqat o‘ziga xos bo‘lgan ko‘rinish va shakllarda, shuningdek, musiqiy-badiiy janrlarda, obrazlarda inson fikri, tuyg‘ulari, maqsadlari, emosiyalari va temperamentini aks ettiradi. Bunday tafovutlar musiqiy faoliyatning janri, shakli, ko‘rinishlari, musiqiy asar mazmuniga bog‘liq bo‘ladi.

Inson ruhiyatidagi dinamik ko‘rinishlarning individual xususiyatlarini biz temperament deb ataymiz.

Ruhiy jarayonlarning o‘tish tezligi inson temperamentida namoyon bo‘ladi. Temperamentlar xilma-xilligini bu jarayonlarning o‘tish sifati tarzida tavsiflash mumkin. Gippokrat (eramizdan avvalgi V asr) kishi organizmining holati undagi suYuqliklarning (qon, zardob, safro) o‘zaro mutanosibligiga bog‘liq deb hisoblagan. Qismlarning tegishli tarzdagi mutanosibligi lotin tilida temperamentum deb Yuritilgan.

Turli temperamentlarning nomlari shundan kelib chiqqan.

Sangvinik («sanvis» – qon) – sezilarli psixik faollikka ega odam. Fiziologiyada nerv faoliyatining kuchli vazmin tezkor turiga to‘g‘ri keladi.

Flegmatik («flegma» – zardob) – xotirjam odam. Fiziologiyada nerv faoliyatining kuchli vazmin sust turiga to‘g‘ri keladi.

Xolerik («xole» – safro) – juda serg‘ayrat odam. Fiziologiyada nerv faoliyatining kuchli novazmin turiga to‘g‘ri keladi.

Melanxolik («melayna xole» – qora safro) – psixologik faolligi past odam. Fiziologiyada nerv faoliyatining kuchsiz turiga to‘g‘ri keladi.

Antik davr fanining temperamentning organik asoslari haqidagi ma'lumotlari faqat qiziqish uyg‘otadi, xolos. Lekin temperamentning tipologik tuzilishi to‘g‘ri tasniflangan va hozirgi vaqtgacha amal qiladi.

Musiqa san‘atida turli temp, dinamika, xarakterning birlashuvi asarni ijro etish jarayonida unga rangdorlik va uyg‘unlik baxsh etib turadi. Musiqada asarni temperament bilan ijro etish juda muhim, bu tinglovchi idrokini faollashtiradi. Asar xususiyati ko‘p holda kompozitor va ijrochi temperamentiga, ularning ruhiy holatiga bog‘liq. O‘quvchilarning psixologik o‘ziga xosligini, temperamentini bilish pedagogga o‘quv jarayonini to‘g‘ri tashkil etish, zarur musiqiy o‘quv repertuarni to‘g‘ri tanlash imkonini beradi.

Jamoaviy ijro (orquestr, xor, ansamblida) uchun o‘quvchilarни tanlashda temperamentlarning bir-biriga mos kelishi, xilma-xilligiga e’tibor berish katta ahamiyatga ega.

## **QOBILIYAT**

Qobiliyat – ma’lum bir turdagи faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishning sub’ektiv sharti bo‘lib hisoblanuvchi shaxsiyatning individual xususiyatidir. Qobiliyat – bilim, malaka va ko‘nikmalar emas, balki ularga erishish dinamikasıdir. Qobiliyat faoliyat usullari va yo‘llarini egallash tezligi, chuqurligi va puxtaligida aniqlanadi.

Qobiliyat – faoliyat jarayonida namoyon bo‘luvchi imkoniyatdir. Masalan, agar inson musiqiy faoliyat uchun zarur ko‘nikmalarni egallamagan bo‘lsa, uning musiqiy qobiliyatı haqida gapirish mumkin emas. Amaliyotdan misol keltiramiz: o‘qituvchi bir sinfning ikki o‘quvchisiga bir asarni topshiradi. Bir o‘quvchi bir haftadayoq bu asarni tez va bexato idrok etadi, boshqasi esa bir oydan so‘ng ham ijroda xatoga yo‘l qo‘yadi. Bunday hollarda har qanday pedagog Yuqlardagi farqni qobiliyatlardagi tafovut hisobiga kiritadi. Demak, qobiliyat deganda insonning lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikmalarni egallashida va ularni amaliyotda samarali qo‘llashida yordam beruvchi psixologik xususiyatlar tushuniladi.

YUqorida keltirilgan nazariy holat va amaliy misollarga qaramay qobiliyat va uning rivojlanish muammozi psixologiya va pedagogikaning eng murakkab masalalaridan biri hisoblanadi. Qobiliyat sezgi analizatorlari, kuch, harakat hamda asabiy, jismoniy va aqliy jarayonlar muvofiqlashishi kabi nerv sistemasi xususiyatlariga bog‘liq bo‘lgan tabiiy iqtidor, iste’dod, shuningdek, tashqi ijtimoiy muhit ta’siri ostida rivojlanadi. Musiqiy ta’limni boshlash, musiqiy qobiliyatni rivojlantirish haqida G.G.Neygauz shunday degan: «Qaysidir musiqa cholq‘usida chalishni o‘rganishdan avval – u bola bo‘ladimi, katta yoshli odam bo‘ladimi – qandaydir musiqani allaqachon egallagan bo‘lishi kerak. Boshqacha qilib aytganda, musiqani ongida saqlashi, ko‘ngliga jo qilishi va idroki bilan

